Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

O‘zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik kafedrasi

O`quv - uslubiy majmua

O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI

Tuzuvchi: filologiya fanlari nomzodi Sh.Amonov

Toshkent – 2018

Mazkur o`quv-uslubiy majmua Oliy va o`rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil “ __ ” - _____dagi ____-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan o`quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: filologiya fanlari nomzodi Sh.Amonov

Taqrizchi: fil.f.f.n., dotsent I. Yoqubov

O`quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti kengashining 2018-yil “___” _____ dagi __- sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

SO`Z BOSHI…….....4

ISHCHI O‘QUV DASTURI…….5

KALENDAR REJA ……...24

«O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI» FANI BO‘YICHA MA’RUZA MATERIALLARI……... ……..26

TA’LIM TEXNOLOGIYASI……..112

TEST TOPSHIRIQLARI……145

NAZORAT SAVOLLARI……...161

XORIJIY ADABIYOTLAR…….163

GLOSSARIY……164

SO`Z BOSHI

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua “O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI” fanidan “5111200 – O`zbek tili va adabiyoti” ta'lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan bo`lib, majmua “O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI” fanidan fan dasturi, ishchi o‘quv dasturi, ma`ruzalar matni, ta'lim texnologiyasi, barcha nazorat turlari bo‘yicha topshiriqlar, test savollari, tarqatma va taqdimot materiallari, glossariy va reyting tizimi asosida talabalar bilimini baholash mezonlari, fanning asosiy xususiyatlari hisobga olingan holda loyihalashtirilgan ta'lim texnologiyalarini o‘z ichiga oladi.

O‘quv-uslubiy majmua “O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI” fanini o‘qitadigan oliy o‘quv yurtlari va uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o‘quv muassasalari professor-o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Ro‘yxatga olindi:
№_____
2016-y. «__»_____

«TASDIQLAYMAN»
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
I.Yuldashev_____
2016-y.«___»_____

O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI FANIDAN

ISHCHI O‘QUV DASTURI
fani ishchi o‘quv fan dasturi
(2-kurs, 3-4-semestr uchun)

Ta’lim yo`nalishi: 5111200 – O`zbek tili va adabiyoti

Umumi o‘quv soati: 269
Shu jumladan:
Ma‘ruza –96
Seminar mashg‘uloti – 90
Mustaqil ta‘lim – 83

TOSHKENT – 2016

Tuzuvchilar:

K.Mullaxo'jayeva – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, f.f.n.

Sh.Amonov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o‘qituvchisi, f.f.n.

Taqrizchilar:

G. Xolliyeva – O‘zDJTU dotsenti, f.f.d.

D. Yusupova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, f.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi “O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik” kafedrasining 201_ yil _____dagi __-sonli majlisida muhokama etilgan va ma'qullangan.

Kafedra mudiri: dots. R.Zohidov

Fanning ishchi o‘quv dasturi O‘zbek filologiyasi fakulteti Kengashining 201_ -yil _____dagi __-sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, tasdiqqa tavsiya etilgan.

Dekan B.R.Mengliyev

Mazkur ishchi o‘quv dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 201_-yil __ - _____dagi majlisida tasdiqlangan.

O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i A. Sayfullayev

Kirish

Mazkur dasturda o'zbek adabiyoti tarixiining XV asrdan XIX asr so‘ngiga qadar bo‘lgan davriga oid masalalari, shu jumladan, Alisher Navoiy hayoti va ijodi, Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati hamda temuriylar davridan keyingi badiiy tafakkur namunalari qamrab olingan. Unda o‘zbek adabiyoti tarixining ushbu davrdagi dolzarb muammolari, adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, davr ijodkorlarining hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq masalalar to'g'risida ma'lumot beriladi.

O'quv fanining maqsad va vazifalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi №PF-4797 Farmonida aks etganidek, o'zbek tili va adabiyoti qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, uning shakllanishida miloddan oldingi va miloddan keyingi dastlabki asrlarda mintaqamiz hududida yashagan baqtriylar, so'g'diylar, xorazmiylar va boshqa elat va millatlar o'z ta'sirini ko'rsatgani haqida mavjud ilmiy manbalar dalolat beradi. Bu borada Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi ilmu fan va adabiyot namoyandalarining xizmati va qoldirgan merosi muhim o'rin egallaganini qayd etish joiz. O'zbek adabiy tili ayniqsa XIV-XV asrlarda – Amir Temur va temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko'tarildi. Shu ma'noda mazkur fanning maqsadi talaba yoshlarni xalqimizning boy ma'naviy merosiga suyangan holda ajdodlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan. Adabiy-badiiy manbalarni, O'zbek adabiyoti tarixi namunalarini o'rgatish, o'zlashtirish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirish, tafakkur ko'lamini yuksaltirish, komil ma'naviyatni shakllantirish nazarda tutilgan.

Mazkur fan oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- talabalarga o'zbek mumtoz adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish;

-o'zbek adabiyoti tarixi namunalari bilan izchil va tizimli suratda tanishtirish;

-noyob adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs rivojidagi ahamiyatini tushuntirish;

-talabalarda badiiy asar mohiyatini chuqur yanglash, ularni tahlil va talqin qilish ko'nikmasini shakllantirish;

-mavjud matnlarni poetik jihatdan tahlil va tadqiq etish, teran ilmiy-nazariy xulosa va yechimlarga kelish;

-egallangan bilim va malakani xalq ma'naviyatini rivojlantirish yo'lida amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga qo'yiladigan talablar

“O'zbek adabiyoti tarixi” fani bo'yicha talaba o'zbek mumtoz adabiyotining milliy madaniyatimiz tarixi va takomilidagi o'rni, adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs hayotidagi ahamiyati, mumtoz

adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlari, mumtoz adabiy janrlarning shakllanishi va takomili, adabiyot tarixini o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi davrlarining o'ziga xos jihatlari, janrlar poetikasi, aruz vaznining umumiy qonuniyatlari, badiiy san'atlarning hosil bo'lish yo'llari va mumtoz she'riyatda qo'llanish usullari, mumtoz she'riyatda qofiya va radifning tutgan o'rni, mumtoz nazmiy asarlar matni ustida ishlash, mumtoz asarlar uchun tuzilgan lug'atlardan foydalanish, tasavvufiy istilohlar ma'nosini tushunish, o'zbek adabiyoti tarixida qo'llangan ramz va timsollar mohiyatini anglash, bu davr adabiyotiga oid adabiy asarlarni tahlil qila olish bilimi, malakasi va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“O'zbek adabiyoti tarixi” fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, 2-7-semestrlarda o'qitiladi. Mazkur dastur 3-4-semestrlarda o'rganiladigan mavzularni qamrab olgan. Unda Alisher Navoiy hayoti va ijodi, Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyati va adabiy merosi, temuriylardan keyingi davr adabiyoti hamda XVII – XIX adabiyoti va shu davrlarga aloqador adabiy hodisalar qamrab olingan. Dasturda belgilangan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot va seminar shaklida olib boriladi. Fanning ayrim muhim muammolari va muayyan adabiy-badiiy asarlar talabalarga mustaqil o'zlashtirish uchun tavsiya etiladi.

“O'zbek adabiyoti tarixi” fani o'rganiladigan muammolarning yaqinligi jihatidan falsafa, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, jahon adabiyoti, tasavvuf va mumtozpoetika, ma'naviyat asoslari, dinshunoslik fanlari bilan o'zaro bog'liqdir.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Filolog mutaxassisning o'zbek adabiyoti tarixi, uning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha aniq va mukammal ma'lumotga ega bo'lishi talaba malakasini belgilovchi mantiqiy asos vazifasini o'taydi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlarida filologik ta'limni yo'lga qo'yishda ushbu fan muhim ahamiyat kasb etadi. “O'zbek adabiyoti tarixi” fanini to'liq o'zlashtirish nafaqat ta'lim tizimi, balki bakalavrlarning mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishi uchun zamin hozirlaydi.

Fanni o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “O'zbek adabiyoti tarixi” fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalanish bilan bir qatorda nazariy va amaliy mashg'ulotlar davomida “Aqliy hujum”, “Klaster”, “BBB” kabi, shuningdek, mavzularning xususiyatidan kelib chiqqan holda boshqa interfaol usullarni qo'llash tavsiya etiladi. Internetdagi www.ziyo-

net.uz,www.literature.uz,www.kutubxona.uz va www.alishernavoiy.uzsaytlaridan foydalanish ham nazarda tutiladi.

Shuningdek, yangicha usullarning o'zigina yutuqni ta'minlaydigan yagona omil emasligidan kelib chiqib, asrlar sinovidan o'tib kelayotgan usullardan ham istifoda etiladi.

Asosiy qism
(2-kurs, 3-semestr uchun)

Umumi o‘quv soati:163
Shu jumladan:
Ma’ruza – 60
Seminar mashg‘uloti –54
Mustaqil ta‘lim – 49

Alisher Navoiy merosi va uning o‘rganilish tarixi

Navoiy asarlari uning ijodini o'rganishda muhim manba ekanligi. Navoiy zamondoshlar xotirasida. Navoiy vafotidan so'ng shoir ijodining o'rganilishi. G'arb va rus sharqshunoslari tomonidan Navoiy ijodining o'rganilishi. XX asr navoiyshunosligi. Bugungi navoiyshunoslikning dolzarb masalalari.

Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va adabiy merosi

Hayoti va ijodiy faoliyati. Shoir hayoti va ijodining manbalari. Navoiyshunoslik tarixidan. Navoiyni anglash – davr talabi. Alisher Navoiy rahnamoligida bunyod etilgan inshootlar. Navoiy va Jomiy. Alisher Navoiy abadiyati.

Alisher Navoiy lirikasi.

Lirik merosi. Ilk devonlar mundarijasi. “Xazoyinu-l-maoniy” – lirik qomus sifatida: tuzilishi va janr xususiyatlari.

Navoiy lirikasining mavzu ko‘lami, janr xususiyatlari. Mavzular doirasi, g‘oyalar va timsollar tizimi.

Devoni Foniy. “Devoni Foniy”ning tuzilisi. Janr xususiyatlari. Foniy g‘azallarida an’ana va o‘ziga xoslik. “Nazmu-l-javohir” maxsus to‘rtliklar majmui sifatida. “Hiloliya” qasidasi. Qasidada shoir ijtimoiy va adabiy-badiiy qarashlarining aks etishi. Navoiyning lirik mahorati.

Navoiyning epik merosi.

Navoiy dostonlari. Xamsanavislik an’analari. “Xamsa”ning mundarijasi va shakl-uslubiy jihatlari.

“Hayrat ul-abror”dostoni. “Hayrat ul-abror” dostoni. Dostonning tuzilishi, janr xususiyatlari. Boblar va maqomotlar zamiridagi ilohiy, falsafiy, axloqiy-ta’limiy va ijtimoiy-siyosiy masalalar.

“Farhod va Shirin”dostoni.“Farhod va Shirin” dostonida insonparvarlik g‘oyalari, orzu-umidlari Farhod siymosida. Dostonning timsollar olami. Dostonning tasavvufiy talqinlari va badiiy xususiyatlari.

“Layli va Majnun” dostoni. “Layli va Majnun” – pok va yuksak muhabbat ifodasi. Undagi bosh qahramonlar. Dostonning g’oyaviy mundarijasi, timsollar olami.

“Sa’bai sayyor” dostoni. “Sab’ai sayyor”. Shoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar. Dilorom iste’dodli san’atkor, vafodor yor timsoli.Yetti iqlim yo‘lidan kelgan musofirlar afsonalari. Dostonning kompozitsion xususiyatlari va badiiy qimmati.

“Saddi Iskandariy” dostoni. “Saddi Iskandariy” falsafiy-ta’limiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy asar. Navoiyning adolat timsoli, ma’rifatli shoh haqidagi qarashlari Iskandar timsolida.Doston mundarijasi, falsafiy-axloqiy muammolar sharhi.

“Lison ut-tayr” - falsafiy-majoziy doston. “Lisonu-t-tayr” falsafiy-tasavvufiy doston sifatida. Navoiyning tasavvuf falsafasi va axloqiga xos munosabati. Simurg‘– haqiqat timsoli. Dostondagi hikoyatlarning falsafiy-tasavvufiy ma’no kasb etganligi.Dostonning badiiy xususiyatlari.

Navoiy nasri. “Mahbub ul-qulub” asari. Asarda ijtimoiy toifa va guruhlar. Asarning Navoiy qarashlarini umumlashtiruvchi xarakteri.Asarning badiiy xususiyatlari.

Navoiyning ilmiy merosi. Adabiyotshunoslik asarlari. “Majolisu-n-nafois” tazkirasida shoirlar talqini.Asarda nazariy masalalarning yoritilishi.

“Mezon-l-avzon” aruz nazariyasi tadqiqiga baishlangan asar sifatida.

Tilshunoslikka oid asarlari*:* “Muhokamat ul-luatayn”da ikki til mubohasasi.

“Nasoyim ul-muhabbat” – tasavvufiy mazmundagi asar. Tasavvuf tarixini o‘rganish va mohiyatini anglashda “Nasoyim ul-muhabbat”ning o‘rni va ahamiyati**.**

”Tarixga oid asarlari: “Tarixi anbiyo va hukamo”da tarixiy shaxslar talqini. “Tarixi muluki Ajam”ning tarixni o‘rganishdagi ma’rifiy ahamiyati.

Navoiy manoqiblari. “Xamsat ul-mutaharriyin” asarining mundarijasi.Asarda Jomiy timsoli. “Xoloti Sayyid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” asarlari. Tarixiy shaxslar tasviri va talqini.

“Vaqfiya” asarida Navoiy biografiyasiga oid ma’lumotlar. Ijtimoiy-iqtisodiy masalalar tasviri. Asarning adabiy qimmati.

Navoiy ijodiy merosining olamshumul ahamiyati.

Husayniy hayoti va adabiy faoliyati

Husayniyning madaniyat va adabiyotning rivojlanishidagi xizmatlari. Husayniyning adabiy faoliyati. Husayniyng devonining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari. “Risola” asarining Navoiy ijodini o‘rganishdagi ahamiyati.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti,faoliyati va adabiy merosi

Boburning hayot yo‘li. Faoliyati.Ijodiy merosi.bularni o‘rganish manbalari.

Bobur lirik merosi. Devonlar tarkibi, she’rlarning janr xususiyatlari, mavzular ko‘lami va poetikasi. Bobur azallarida ijtimoiy ohanglar. She’rlarda

lirik qahramon siymosi. Yor, diyor, may, rind va boshqa timsollar sharhi. Bobur devonida kichik (fard, tuyuq, qit'a, ruboiy) janrlar. Ularning ijtimoiy pafosi. Ruboiylarda biografik asosning kuchli ekanligi. Shoir she'rlarining timsollar olami.

"Boburnoma".O'zbek nasrining o'lmas obidasi va qomusiy asar. Asarning badiiy xususiyatlari: kompozitsion qurilishi, mavzu qamrovi, obrazlar silsilasi, janriy xosliklari va boshqa jihatlari. "Vaqoe'"da tarixiy siymolar va timsollar.

Bobur masnaviylari. "Mubayyin" va "Volidiya"da ilohiyot masalalari, shariat ahkomlari talqini.

Boburning adabiyotshunoslikka qo'shgan hissasi.

№	Mavzular	Ajratil-gan soat
1	Navoiy merosi va uning o'rganilish tarixi.	2
2	Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va adabiy merosi.	2
3	Alisher Navoiy lirikasi.	2
4	Navoiy lirikasining mavzu ko'lami, janr xususiyatlari.	2
5	Navoiy lirikasining mavzu ko'lami, janr xususiyatlari	2
6	Alisher Navoiy lirikasining badiiy xususiyatlari.	2
7	Alisher Navoiy lirikasining badiiy xususiyatlari.	2
8	Devoni Foniy.	2
9	Navoiyning epik merosi.	2
10	"Hayrat ul-abror" dostoni.	2
11	"Hayrat ul-abror" dostoni.	2
12	"Farhod va Shirin" dostoni.	2
13	"Layli va Majnun" dostoni.	2
14	"Sa'bai sayyor" dostoni.	2
15	"Saddi Iskandariy" dostoni.	2
16	"Saddi Iskandariy" dostoni.	2
17	"Lison ut-tayr" - falsafiy-majoziy doston.	2
18	"Lison ut-tayr" - falsafiy-majoziy doston.	2
19	Navoiy nasri. "Mahbub ul-qulub" asari.	2
20	Navoiyning ilmiy merosi. Adabiyotshunoslik asarlari.	2
21	Tilshunoslikka oid asarlari: "Muhokamat ul-luatayn"da ikki til mubohasasi.	2
22	"Nasoyim ul-muhabbat" – tasavvufiy mazmundagi asar.	2
23	Alisher Navoiyning tarixga oid asarlari.	2
24	Navoiy manoqiblari.	2
25	"Vaqfiya" asarida Navoiy biografiyasiga oid ma'lumotlar. Navoiy ijodiy merosining olamshumul ahamiyati.	2
26	Husayniy hayoti va adabiy faoliyati.	2

27	Bobur hayoti va adabiy faoliyati.	2
28	Bobur lirikasi.	2
29	“Boburnoma” – tarixiy-adabiy memuar asar.	2
30	“Boburnoma” – tarixiy-adabiy memuar asar.	2
Jami		**60**

SEMINAR MASHG‘ULOTLARI MAZMUNI VA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Mavzular	Ajratil-gan soat
1	Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti.	2
2	Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”ga kirgan devonlari.	2
3	Navoiy g‘azallarining mavzu ko‘lami, janr xususiyatlari.	2
4	Navoiy g‘azallarining mavzu ko‘lami, janr xususiyatlari.	2
5	“Devoni Foniy” she’rlari tahlili.	2
6	“Devoni Foniy” she’rlari tahlili.	2
7	“Hayrat ul-abror” dostoni tahlili.	2
8	“Hayrat ul-abror” dostonitahlili.	2
9	“Farhod va Shirin”dostoni tahlili.	2
10	“Layli va Majnun” dostoni tahlili.	2
11	“Sa’bai sayyor” dostoni tahlili.	2
12	“Saddi Iskandariy” dostoni tahlili.	2
13	“Saddi Iskandariy” dostoni tahlili.	2
14	“Lisonut-tayr” - falsafiy-majoziy doston.	2
15	“Lisonut-tayr” - falsafiy-majoziy doston.	2
16	“Mahbub-ul-qulub” - axloqiy-ta’limiy asar.	2
17	Navoiy – adabiyotshunos.	2
18	Navoiy – adabiyotshunos.	2
19	Navoiyning ilmiy-nasriy asarlari.	2
20	Navoiyning ilmiy-nasriy asarlari.	2
21	Navoiyning ilmiy-nasriy asarlari.	2
22	Navoiyning ilmiy-nasriy asarlari.	2
23	Bobur hayoti va adabiy faoliyati.	2
24	Bobur lirikasi.	2
25	Bobur lirikasi.	2
26	“Boburnoma” – tarixiy-adabiy memuar asar.	2
27	“Boburnoma” – tarixiy-adabiy memuar asar.	2
	Jami	**54**

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik;
- kurs ishini tayyorlash;
- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- masofaviy ta’lim.

Talabalar mustaqil ta’limining mazmuni va hajmi

№	Ishchi o‘quv dasturining mustaqil ta’limga oid bo‘lim va mavzulari	Mustaqil ta’limga oid topshiriq va tavsiyalar	Soat
1	Seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish	Kutubxonada tayyorgarlik	14
2	Alisher Navoiy hayoti va ijodining rus va g'arblik olimlar tomonidan o'rganilishi	Ma’lumotlarni to‘plab, o‘rganib chiqish, konspektlashtirish	3
3	“Devoni Foniy”da Hofizga bog‘langan tatabbular tahlili.	Asarning timsollar olamini tavsiflash	4
4	Alisher Navoiyning hamd va na’t g‘azallari badiiyati (obrazlar olami, badiiy san’atlar asosida).	Ma’lumotlarnio‘rganib chiqish	4
5	“Xamsa” qahramonlari.	Yozma	4
6	“Nasoyim ul-muhabbat”da keltirilgan hikoyatlar tahlili.	Og‘zaki	4
7	“Hamsat ul-mutahayyirin”da Jomiy siymosi	Og‘zaki	4
8	Boburning obraz yaratish mahorati	Og‘zaki	2
9	“Boburnoma”da madaniy-adabiy hayot tasviri	Yozma	4
	Jami		**49**

Ilova

Reyting nazorati jadvali

№	Reyting nazorati shakli/Maksimal ballari	1-JN	2-JN	ON	YN	Ballar yig‘indisi
1	Maksimal ball	20	20	30	30	100
2	Shakli	Og’zaki	Og’zaki	Yozma	Yozma	
3	Muddati (haftalarda)	6	12	15	19	

Asosiy qism
(2-kurs, 4-semestr uchun)

Umumiy o‘quv soati – 106 соат
Shu jumladan:
Ma’ruza – 36 соат
Seminar mashg‘uloti – 36 соат
Mustaqil ta’lim – 34 соат

Ma’ruza mazmuni
Temuriylardan keyingi davr o‘zbek adabiyoti

O‘zbekxonlar davrida adabiy hayot. XVI–XIX asrlar (I yarmi)da Markaziy Osiyodagi ijtimoiy ahvol. Shayboniyxon saroyida adabiyot mavqeyi. Xalq epik she’riyatiga yaqinlashuv. Dostonchilikda jangnoma tipidagi asarlarga alohida e’tibor berilganligi. Shayboniy sulolasidagi ijodkor. Tarixnavislik. “Tarixi guzida”, “Nusratnoma” asarlari. Diniy adabiyot va madrasalar tizimini rivojlantirishga e’tibor. Tasavvufiy adabiyot.

Qul Ubaydiy ijodi. Shoir "Devon"idagi turkcha g‘azallar talqini. Qul Ubaydiy ijodida yassaviylik va naqshbandiylik. "Hayratnoma", "Shavqnoma" kabi asarlarining g’oyaviy mundarijasi. "Kitob us-salot" asari.

Muhammad Solih ijodiga doir manbalar. Lirik merosi mundarijasi. Turkiy va forsiy g‘azallari. "Shayboniynoma" dostoni. Uning janr xususiyatlari. Dostonda tarixiy voqealar va shaxslar. Doston badiiyati. Bu haqda adabiyotshunoslikda aytilgan fikrlar.

Majlisiy ijodi. “Qissayi Sayfulmuluk” dostoni tarkibi va timsollar olami. Dostonda diniy syujet va og’zaki adabayot. Dostonning badiiy xususiyatlari.

Xoja hayoti va ijodi. “Muzakkiri ahbob” tazkirasidagi ma’lumotlar. Xojaning nasriy merosi. "Gulzor" asarining tarkibi, mundarijasi va janr xususiyatlari. "Gulzor"da Sa’diy an’analari. "Miftohu-l-adl" ("Adolat kaliti")

asari.

XVII – XIX asrlarda ijtimoiy siyosiy va madaniy hayotdagi o‘zgarishlar

XVII – XIX asrlar ijtimoiy siyosiy hayoti Xorazm, Qo‘qon xonliklari va Buxoro amirligining yuzaga kelishi va ular o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xosliklari bilan xarakterlanishi. Ushbu davrda bunyod etilgan me’morchilik yodgorliklari, yaratilgan tarixiy asarlar, davr adabiyoti haqida ma’lumotlar beruvchi tazkiranavislik, xalq ozaki ijodi va “xalq kitoblari” va ularning o‘ziga xos badiiyati. Davr badiiy adabiy hayoti va uning o‘ziga xos xususiyatlari.

Buxoro amirligidagi adabiy hayot

Ashtarxoniylar sulolasi davrida madaniy hayot. Madrasa tizimidagi o‘zgarishlar. Ashtarxoniylar sulolasidagi ijodkor xonlar. Saroy adabiyotining xalq hayotidan uzoqlashuvi. Subhonqulixon va Abulfayzxon saroyidagi adabiy muhit. Tarixnavislik.Amin Buxoriy, Yusuf Munshiy, Abdurahmon Tole’ asarlari. Tazkiranavislik. Mutribiy, Maleho Samarqandiy va boshqalarning asarlari. Xalq kitoblari. "Yusufbek va Ahmadbek", "Alibek va Bolibek", "Tohir va Zuhra" kabi asarlar. Tasavvuf adabiyoti. Naqshbandiylik tariqatining kengayishi. So‘fi Olloyor ijodida naqshbandiylik.

Turdi Farog’iy ijodi. Shoir ijodining o‘rganilish tarixidan. Turdining ijodiy merosi. Turdi she’rlarining janr xususiyatlari. Turdi lirikasi. Turdi hajviyoti. "Subhonqulihon haqida hajv" asarida saroy amaldorlari hajvi.

Mujrim Obid. Adabiy merosi. Lirikasining janr xususiyatlari. She’rlarida biografik asosning o’rni. Mujrim Obid she’rlarining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Boborahim Mashrab ijodi

Mashrab hayoti haqida ma’lumot beruvchi manbalar. "Shoh Mashrab" manqabasi. Tazkiralarda Mashrab hayoti va ijodi lavhalari. Is’hoq Bog’istoniy va Majzub Namangoniy. Mashrabshunoslik tarixidan. Mashrabning tarjimayi holini tiklash muammolari.

Lirik merosi. Lirikasi va uning janrlar ko‘lami. Mashrab lirikasida aks etgan mavzu va masalalar. Mashrab she’riyatida ilohiy va majoziy ishq talqini. Mashrab she’rlarining badiiyati.

Mashrab va qalandariylik tariqati. Tasavvufi she’rlaridagi timsollar silsilasi. Mashrabga nisbat berilayotgan asarlar ("Mabdai nur", "Kimyo") talqini.

Xo‘janazar Huvaydo ijodiy merosi

Hayoti va ijodiy merosi. Ijodiy merosida, xususan, she’riyatida Shoir dunyoqarashining qirralari: odob-axloq, ilm-ma’rifat, diniy va so‘fiyona qarashlar talqini. Poetik mahorat masalalari. “Rohati dil” dostoni va uning axloqiy-ta’limiy jihatlari.

Nishotiy hayoti va ijodi

Adabiy merosi. Lirik merosi jamlangan manbalar. Nishotiy lirikasi.

Shoir qasidalari va "Qushlar munozarasi" masnaviysi. "Husnu Dil" dostoni. Doston tarkibi. Dostonning janr xususiyatlari. Ramziy-majoziy timsollar olami. Dostonning tasavvufiy talqinlari. Doston tarkibiga kirgan mustaqil syujetli munozaralar.

Xorazm adabiy muhiti

Adabiy-madaniy hayotning jonlanishi. Xiva saroy adabiyotining xususiyatlari. Tarixiy va tarjima asarlarga munosabat. Folklorning yozma adabiyot bilan yaqinlashuvi. Xalq kitoblari. "Oshiq g'arib va Shohsanam", "Sanobar", "Sayyod va Hamro", "Yusufbek va Ahmadbek" dostonlari. Dostonlarning nasriy bayonlari. Xorazm shoirlari ijodida irfoniy mazmun. Ravnaq, Roqim va Vafoiy, Rojiy va boshqa shoirlar ijodi.

Munis ijodi. Shoirning adabiy, ilmiy, tarix va tarjima sohasidagi merosi. Shoir she'riyatining mavzular doirasi va g'oyaviy ko'lami. "Savodi ta'lim" risolasi. "Ravzatu-s-safo" asarining tarjimasi.

Muhammad Rizo Ogahiy ijodi. Ogahiy hayoti va ijodi manbalari. Ogahiy merosi. "Ta'vizu-l-oshiqin" devoni. Shoir she'riyatida ishq talqini. Olam va odam mohiyatiborasidagi qarashlari. Zullisonaynlik an'anasiga munosabat. Shoirning badiiy mahorati.

Qo'qon adabiy muhiti

Madaniy-adabiy hayot. Qo'qonda qurilgan madaniy obidalar. Qo'qon adabiy maktabining shakllanishi. Bayozchilik va matbaa ishlari. Qo'qon adabiyoti vakillari: Ado, Fazliy, Dabir, Nodiri Uzlat va boshqalar. Qo'qon adabiy maktabida janrlar poetikasi. Qo'qon adabiyotida satirik yo'nalish. Gulxaniy va Maxmur ijodi.

Gulxaniy ijodi. Shoirning tarjimai holi. Shoirning she'riy merosi. Zullisonaynlik an'anasi. She'riyatining o'ziga xosligi. "Zarbulmasal" asari va sharq nasri an'analari. Asardagi g'oyalar va timsollar tizimi talqini. Asar tarkibidagi masallar. Asar badiiyati, tili va uslubi.

Amiriy devoni. Shoir g'azallarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Uvaysiy adabiy merosi. She'riyatining mavzu va g'oyaviy ko'lami, badiiy xususiyatlari. Shoira ijodida ishq talqini. Ijtimoiy hayotga munosabati va xulosalari. "Shahzoda Hasan" va "Shahzoda Husayn" kabi dostonlari. "Voqeoti Muhammadalixon" (tugallanmagan) asari.

Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi. Nodira va Umarxonmunosabatlari. Shoiraning davlat arbobi sifatidagi faoliyati. Nodiraning she'riy merosi. Devondagi g'azal, muxammas, ruboiy, fard kabi janrlar tabiati. Nodira she'riyatining mavzu qamrovi. Ishq va sadoqat, visol va hijron tarannumi. Badiiy xususiyatlari.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti

Markaziy Osiyoni chorizm tomonidan istilo qilinishi va uning oqibatlari. Davriy o'zgarishlarini badiiy ijodda aks etishi. Yangi mazmunning an'anaviy janr va shakllardagi talqini. Madaniy hayot va adabiy muhit. Bu davrda yashab

ijod etgan, Zokirjon Furqat, Komil Xorazmiy, Zavqiy, Avaz O‘tar va boshqa yirik shoir va adiblarning ijod yo’li va adabiy merosi. An’ana va o‘ziga xoslik. Ushbu davrda yaratilgan muhim asarlar.

Muqimiy ijodiy merosi. Aminxo‘ja Muqimiy hayoti va ijodiy merosi, janr xususiyatlari. Muqimiy – lirik shoir. Muqimiy she’rlarida xalqona ohang. Muqimiy hajviyoti va sayohatnomalari. Shoirning badiiy mahorati.

Zokirjon Furqat hayoti va ijodiy merosi. Furqatning hayot yo‘li: Toshkentdagi va chet ellardagi hayoti. Ijodiy merosi. Lirik merosi. Asarlarining janr xususiyatlari. Shoir sheriyatida an’ana va mahorat. Furqat masnaviylarida ma’rifatparvarlik g’oyalari ifodasi. Furqatning publisistikasi va tarjima asarlari.

“O'zbek adabiyoti tarixi” fanidan o‘tiladigan mavzular va ular bo‘yicha mashg‘ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

Ma’ruza mazmuni va soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Ajratil-gan soat
1	Temuriylardan keyingi davr o‘zbek adabiyoti	4
2	XVII – XIX asrlardagi o‘zbek adabiyoti. Xonliklar davri adabiyoti	4
3	Mashrab ijodiy merosi	2
4	Xo‘janazar Huvaydo ijodiy merosi	2
5	Qo‘qon adabiy muhiti	2
6	Amiriy hayoti va ijodi	2
7	Gulxaniy ijodiy merosi	2
8	Uvaysiyning ijodiy merosi	2
9	MohlaroyimNodira ijodiy merosi	2
10	Xorazm adabiy muhiti	2
11	Nishotiyning hayoti va ijodi	2
12	Munis Xorazmiy ijodiy merosi	2
13	Ogahiy hayoti va ijodi	2
14	XIX asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar va ularning badiiy tafakkurga ta’siri	2
15	Muqimiy adabiy merosi	2
16	Zokirjon Furqat hayoti va ijodiy merosi	2
Jami		**36**

Seminar mashg‘ulotlari mazmuni

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalarma’ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini seminar mashg‘ulotlariga tayyorlanish orqali yanada boyitadilar.

Seminar mashg‘uloti mazmuni va soatlar taqsimoti

№	Mavzular	Ajratil-gan soat
1	Mashrab she’rlari tahlili	4
2	Huvaydo she’riyati	4
3	Qo‘qon adabiy muhitiga mansub shoirlar ijodi	4
4	Amiriy lirik merosi	2
5	“Zarbulmasal”ning badiiy xususiyatlari	2
6	Uvaysiy ijodiy merosi	2
7	Mohlaroyim Nodiraning ijodiy merosi	2
8	Nishotiyning “Husnu Dil” dostoni tahlili	2
9	Munis g‘azallari tahlili	2
10	Ogahiy lirikasi	4
11	Muqimiy lirikasi	2
12	Muqimiy sayohatnomalari, hajviy asarlari	2
13	Zokirjon Furqat lirikasi	2
14	Zokirjon Furqat publitistikasi	2
Jami		**36**

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik;
- kurs ishini tayyorlash;
- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruza qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fan bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- masofaviy ta’lim.

\

Talabalar mustaqil ta’limining mazmuni va hajmi

№	Ishchi o‘quv dasturining mustaqil ta’limga oid bo‘lim va mavzulari	Mustaqil ta’limga oid topshiriq va tavsiyalar	Soati
1	Seminar mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish	Kutubxonada tayyorgarlik	12
2	Qul Ubaydiy lirik merosiga oid ma’lumotlarni o‘zlashtirish	Ma’lumotlarni to‘plab, o‘rganib chiqish	2
3	“Shayboniynoma” dostonini mutolaa qilish va timsollarni tavsiflash	Asarning timsollar olamini tavsiflash	4
4	“Muzakkiri ahbob” tazkirasidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish	Ma’lumotlarnio‘r ganib chiqish	2
5	Mashraba sarlarida tasavvuf ta’limoti masalalari	Yozma	2
6	Huvaydo ijodi yuzasidan mulohaza yuritish	Og‘zaki	2
7	“Husnu Dil” dostonidagi timsollarni sharhlash	Yozma	2
8	“Zarbulmasal” asaridagi maqollarni to‘plash va ularning asardagi o‘rnini belgilash	Yozma	2
9	Ogahiy adabiy merosini to‘liq o‘zlashtirish	Ma’lumotlarni o‘rganib chiqish	2
10	Muqimiy ijodining o‘rganilish tarixi	Og‘zaki	2
11	Mustaqillik yillarida Furqat ijodining o‘rganilishi	Yozma	2
	Jami		**34 soat**

Ilova

Reyting nazorati jadvali

№	Reyting nazorati shakli/Maksimal ballari	1-JN	2-JN	ON	YN	Ballaryig‘indisi
1	Maksimalball	20	20	30	30	100
2	Shakli	Yozma	Yozma	Yozma	Yozma	
3	Muddati (haftalarda)	6	12	15	19	

O‘quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Darslik –T.: Sharq, 2006.
2. Ҳ.Болтабоев, Н.Раҳмонов. Мумтоз адабиёт намуналари. 1-2 жилд. Мажмуа. –Т:ЎзМУ нашриёти, 2003.
3. Orzibekov R.O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Darslik. -T: Fan, 2006.
4. И.Адизова. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма.–Т: Фан нашриёти, 2003.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Йигирма жилдлик. – Т.: Фан, 1991 – 2005.
2. Бобур. Бобурнома. – Т.: Фан, 2002.
3. Бобур. Бобурнома (Табдил). – Т.: Ўқитувчи, 2008.
4. Қудратиллаев Ҳ. Бобурнинг бадиий маҳоратиҳақида. – Т.: Шарқ, 2005.
5. Жалолов С. Бобурҳақида ўйлар. – Т.: Шарқ нашриёт аксиядорлик компанияси, 2006.
6. Фитрат. Танланган асарлар. Ж.2. – Т.: Маънавият, 2000
7. Мақсуд Шайхзода. ғазал мулкининг султони. – Т.,1972
8. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: Фан. 1960
9. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан.1983.
10. Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб. – Т., 1996.
11. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. – Т., 1991
12. Ҳаққул. Навоийга қайтиш. – Т., 2008.
13. Олим С. Ишқ, ошиқ ва маъшуқ. – Т, 1993.
14. Қудратуллаев Ҳ. Бобур армони. – Т., 2007.
15. Гулбаданбегим "Ҳумоюннома", – Т.: 1998.
16. Файзиев Ф. Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг авлодлари.1996.
17. Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. – Т., 1991.
18. Аждодлар ўгити. – Т.: 1989.
19. Абдуғафуров А. Муҳаммад Ризо Огаҳий. – Т.: Мерос, 1999
20. Матёқубова Т. Поэтик идрок ва маҳорат. – Т.: Фан ва технология, 2011
21. Машраб. Меҳрибоним қайдасан. – Т.: 1990
22. Ҳувайдо. Девон. – Т.: 2000
23. Гулханий. Зарбулмасал ва ғазаллар. – Т.: 1990.
24. Нодира. Девон. – Т.: 1962
25. Увайсий шеъриятидан. – Т.: 1991
26. Огаҳий. Асарлар. 6 жилдлик. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1971-1980

Ta’limning elektron resurslari

1.www. pedagog. uz
2. www. ziyonet. uz
3.www. edu. uz
4. www.o`zbek adabiyoti. com.
5. www. ziyo.uz

“O‘zbek adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha joriy nazoratni baholash mezonlari

Joriy nazoratni bir semestrda 2 marta yozma tarzda o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Har bir joriy nazorat uchun maksimal 20 ball qo‘yiladi. Jami umumiy 40 ballni tashkil etadi.

35-40 ball olishning tartibi quyidagicha:

- Talaba ko‘zda tutilgan 2 joriy nazoratda qatnashsa.
- Talaba o‘z vaqtida mustaqil ta’limda o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan topshiriqlarni bajarsa.
- Ko‘zda tutilgan barcha amaliy mashg‘ulotlarda berilgan savollarga batafsil, to‘liq javob bersa.

29-34 ball olishning tartibi quyidagicha:

- Talaba ko‘zda tutilgan 2 joriy nazoratda qatnashsa.
- Ikki joriy nazorat savollarining ayrimlariga etarlicha javob bersa.
- Talaba o‘z vaqtida mustaqil ta’limda o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan topshiriqlarning 80 % ini bajarsa.
- Ko‘zda tutilgan barcha amaliy mashg‘ulotlarda berilgan 20 savoldan 16 tasiga to‘liq javob bersa.
- Talaba berilgan adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy mashg‘ulotlardagi savollarga javob berishda faol ishtirok etsa.

22-28 ball olishning tartibi quyidagicha:

- Talaba ko‘zda tutilgan 2 joriy nazoratda ishtirok etsa
- joriy nazorat savollarining ayrimlariga qisman javob bersa.
- Talaba o‘z vaqtida mustaqil ta’limda o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan topshiriqlarning 50%ini bajarsa.
- Ko‘zda tutilgan barcha amaliy mashg‘ulotlarda berilgan 20 savoldan 10 tasiga to‘liq javob bersa.
- Talaba berilgan adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy mashg‘ulotlardagi savollarga javob berishda etarlicha ishtirok etmasa.

0-21 ball olishning tartibi quyidagicha:

- Talaba ko‘zda tutilgan joriy nazoratning 1 tasida qatnashsa.
- joriy nazorat savollarining ko‘p qismiga javob bera olmasa.
- Ko‘zda tutilgan barcha amaliy mashg‘ulotlarda berilgan topshiriqlarning ayrimlarini bajarsa.
- Talaba berilgan adabiyotlarni o‘zlashtirishda va amaliy mashg‘ulotlardagi savollarga javob berishda qoniqarsiz ishtirok etsa.

“O‘zbek adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha oraliq nazoratni baholash mezonlari

Oraliq nazorat bir semestrda 1 marta: yozma ish tarzida o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. oraliq nazorat uchun maksimal 30 ball qo‘yiladi.

26-30 ball olishning tartibi quyidagicha:

- Talaba berilgan vaqtda barcha savolga to‘g‘ri va to‘liq javob bergan bo‘lsa.
- Javoblarni yozishda tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalangan bo‘lsa.

- Fan bo‘yicha istiloh va atamalarni to‘g‘ri qo‘llasa.
- Yozma ishda imlo xatoliklariga yo‘l qo‘ymasa.
- Shaxsiy fikr va mulohazalarga ega bo‘lsa.
- Javoblar to‘liq xulosalangan bo‘lsa.
- Javoblar hajmi talabga javob bersa.

22-25 ball olish tartibi quyidagicha:

- Talaba berilgan vaqtda ko‘zda tutilgan savollarga asosan to‘g‘ri javob bergan bo‘lsa.
- Javoblarni yozishda tavsiya etilgan adabiyotlardan kam foydalangan bo‘lsa.
- Fan bo‘yicha istiloh va atamalarni qisman qo‘llasa.
- Yozma ishda imlo xatoliklariga yo‘l qo‘ymasa.
- Shaxsiy fikr va mulohazalari etarli bo‘lmasa.
- Javoblar xulosalangan bo‘lsa.
- Javoblar hajmida mutanosiblik saqlanmagan bo‘lsa.

17-21 ball olish tartibi quyidagicha:

- Talaba berilgan vaqtda ko‘zda tutilgan savollardan ayrimlariga to‘g‘ri javob bergan bo‘lsa.
- Javoblarni yozishda tavsiya etilgan adabiyotlardan qisman foydalangan bo‘lsa.
- Yozma ishda imlo xatoliklariga yo‘l qo‘ysa.
- Shaxsiy fikr va mulohazalari etarli bo‘lmasa.
- Javoblar hajmida mutanosiblik saqlanmagan bo‘lsa.

0-16 ball olish tartibi quyidagicha:

- Talaba berilgan vaqtda ko‘zda tutilgan savollarga yaxshi javob bermagan bo‘lsa.
- Javoblarni yozishda tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanmagan bo‘lsa.
- Yozma ishda imlo xatoliklariga ko‘p yo‘l qo‘ysa.
- Shaxsiy fikr va mulohazalarga ega bo‘lmasa.
- Javoblar xulosalanmagan bo‘lsa.
- Talaba mavjud adabiyotlardan ko‘chirgan bo‘lsa;
- mavzuga aloqasi bo‘lmagan, o‘qituvchini chalg‘itish uchun fikrlar yozsa;
- umuman savollarga javob bera olmasa.

“O‘zbek adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha yakuniy nazoratni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat bir semestrda 1 marta yozma o‘tkaziladi. Yakuniy nazoratda 3ta savol bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Yakuniy nazorat uchun maksimal 30 ball qo‘yiladi.

26-30 ball uchun talabaning faoliyati quyidalarga javob berishi lozim:

- talaba javob berishi kerak bo‘lgan 3 ta savolga hajman to‘liq javob yozgan bo‘lsa;
- mavzu to‘liq yoritilgan bo‘lsa;
- berilgan savollarga javob yozishda izchillik va mantiqiylik kuzatilsa;
- istiloh va atamalarni qo‘llashda xatoliklar bo‘lmasa;
- savollarga javob yozishda talabaning mustaqil yondashuvi sezilib tursa;

- yozilgan matn imlo xatolari va uslubiy g‘alizliklarga ega bo‘lmasa;
- shaxsiy fikr va mulohazalarga ega bo‘lsa;
- javoblar to‘liq xulosalangan bo‘lsa.

22-25 ball uchun talabaning faoliyati quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- talaba javob berishi kerak bo‘lgan 3 ta savoldan 2 tasiga to‘liq 1 tasiga qisman javob yozgan bo‘lsa;
- mavzu atroflicha yoritilgan bo‘lsa;
- talaba savollarga javob yozishda mavzuga doir istiloh va atamalarni to‘g‘ri qo‘llay bilsa;
- mavzuga doir adabiyotlar bilan tanish bo‘lsa;
- yozilgan matnda juz’iy bo‘lmagan ba’zi imloviy xatolar bo‘lsa;
- shaxsiy fikr va mulohazalarga ega bo‘lsa;
- javoblar etarlicha xulosalangan bo‘lsa.

17-21 ball uchun talabaning faoliyati quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- talaba javob berishi kerak bo‘lgan 3 ta savoldan 2 tasiga to‘liq 1 tasiga kam javob yozgan bo‘lsa;
- mavzu qisman bo‘lsada yoritilgan bo‘lsa;
- nazorat ishida ba’zi savollarga javob to‘liq bo‘lmasa;
- imloviy va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa;
- javoblar hajmida mutanosiblik saqlanmagan bo‘lsa;
- shaxsiy fikr va mulohazalarga etarli bo‘lmasa;
- javoblar etarlicha xulosalanmagan bo‘lsa.

0-16 ball bilan quyidagi hollarda talabaning yakuniy nazorat ishlari baholanadi:

- talaba javob berishi kerak bo‘lgan 3 ta savoldan 1 tasiga to‘liq 1 tasiga kam javob yozgan bo‘lsa;
- mavzu yoritilmagan bo‘lsa;
- imloviy va uslubiy xatolar ko‘p kuzatilsa;
- yozilgan matn nazorat talablariga javob bermasa;
- shaxsiy fikr va mulohazalarga ega bo‘lmasa;
- javoblar xulosalanmagan bo‘lsa;
- talaba mavjud adabiyotlardan ko‘chirgan bo‘lsa;
- mavzuga aloqasi bo‘lmagan, o‘qituvchini chalg‘itish uchun fikrlar yozsa;
- umuman savollarga javob yozmasa.

“TASDIQLAYMAN”
Kafedra mudiri_____R.Zohidov
“__” _____ 2016-yil

“O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik” kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi Shermuhammad Amonovning
5111200 – O'zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalish uchun
“O'zbek adabiyoti tarixi” fanidan
KALENDAR ISH REJASI
(2-kurs, 4-semestr)

№	Mshg‘ulot turi	Mavzu va nazorat turi	Soati	Bajarilgani haqida ma’lumot
				Вақти
1	Ma‘ruza	Temuriylardan keyingi davr o‘zbek adabiyoti	2	1- hafta
2	Семинар	Mashrab she’rlari tahlili	2	1- hafta
3	Ma‘ruza	Temuriylardan keyingi davr o‘zbek adabiyoti	2	2- hafta
4	Семинар	Mashrab she’rlari tahlili	2	2- hafta
5	Ma‘ruza	XVII – XIX asrlardagi o‘zbek adabiyoti. Xonliklar davri adabiyoti	2	3- hafta
6	Семинар	Huvaydo she’riyati	2	3- hafta
7	Маъруза	XVII – XIX asrlardagi o‘zbek adabiyoti. Xonliklar davri adabiyoti	2	4- hafta
8	Семинар	Huvaydo she’riyati	2	4- hafta
9	Маъруза	Mashrab ijodiy merosi	2	5- hafta
10	Семинар	Qo‘qon adabiy muhitiga mansub shoirlar ijodi	2	5- hafta
11	Маъруза	Xo‘janazar Huvaydo ijodiy merosi	2	6- hafta
12	Семинар	Qo‘qon adabiy muhitiga mansub shoirlar ijodi	2	6- hafta
13	Маъруза	Qo‘qon adabiy muhiti	2	7- hafta
14	Семинар	Amiriy lirik merosi	2	7- hafta
15	Маъруза	Amiriy hayoti va ijodi	2	8- hafta
16	Семинар	“Zarbulmasal”ning badiiy xususiyatlari	2	8- hafta
17	Маъруза	Gulxaniy ijodiy merosi	2	9- hafta
18	Семинар	Uvaysiy ijodiy merosi	2	9- hafta
19	Маъруза	Uvaysiyning ijodiy merosi	2	10- hafta
20	Семинар	Mohlaroyim Nodiraning ijodiy merosi	2	10- hafta
21	Маъруза	Mohlaroyim Nodira ijodiy merosi	2	11- hafta
22	Семинар	Nishotiyning “Husnu Dil” dostoni tahlili	2	11- hafta
23	Маъруза	Xorazm adabiy muhiti	2	12- hafta
24	Семинар	Munis g‘azallari tahlili	2	12- hafta

25	Маъруза	Nishotiyning hayoti va ijodi (“БББ” усулидан фойдаланилади).	2	13- hafta
26	Семинар	(“БББ” усулидан фойдаланилади).	2	13- hafta
27	Маъруза	Munis Xorazmiy ijodiy merosi (“Ақлий ҳужум” усулидан фойдаланилади).	2	14- hafta
28	Семинар	Ogahiy lirikasi	2	14- hafta
29	Маъруза	Ogahiy hayoti va ijodi	2	15- hafta
30	Семинар	Muqimiy lirikasi	2	15- hafta
31	Маъруза	XIX asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar va ularning badiiy tafakkurga ta’siri	2	16- hafta
32	Семинар	Muqimiy sayohatnomalari, hajviy asarlari (“БББ” усулидан фойдаланилади).	2	16- hafta
33	Маъруза	Muqimiy adabiy merosi (“БББ” усулидан фойдаланилади).	2	17- hafta
34	Семинар	Zokirjon Furqat lirikasi (“БББ” усулидан фойдаланилади).	2	17- hafta
35	Маъруза	Zokirjon Furqat hayoti va ijodiy merosi	2	18- hafta
36	Семинар	Zokirjon Furqat publitsistikasi	2	18- hafta
	Якуний назорат	Ёзма		
ЖАМИ:			**72**	

“O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI” fanidan
MA’RUZALAR MATNI

1-mavzu. Temuriylardan keyingi davr o‘zbek adabiyoti

Reja:

1. Davrning tarixiy sharoiti.
2. Manbalar va ularni o‘rganish yo‘llari.
3.Qul Ubaydiy hayoti va ijodi
4.M.Solih hayoti va ijodi
5. Majlisiy va Xoja ijodi

XVI asr siyosiy hayotda katta o‘zgarishlar bilan boshlandi. Hukmron sulolalar almashishi yuz berdi. 137 yil Movarounnahr va Xurosonni boshqargan Temuriylar sulolasi o‘rnini Shayboniylar egalladi. Temuriylar saltanatining so‘nggi vakillari – Husayn Boyqaro vafot etib, shahzodalar parokanda bo‘ldi. Bobur esa o‘z vatanidagi parokandalikning, siyosiy tarqoqlikning qurboni bo‘lib, yurtini tark etdi. Kobul, undan Hindistonga o‘tib, uch asrdan ko‘proq hukm surgan boburiylar saltanatiga asos soldi.

Muhammad Shayboniy o‘zbek urug‘ining shabon sulolasidan bo‘lib, Dashti Qipchoqdagi o‘zbek davlatining asoschisi Abulxayrxonning nabirasi edi.

Shayboniyxon 1499 yilda Buxoroni, 1500 yilda Samarqandni, 1505 yilda Xorazmni, 1507 yilda Xuroson poytaxti Hirotni egalladi.

1510 yilda Eron shohi Ismoil Safaviy qo‘shini bilan bo‘lgan jangda halok bo‘ldi. So‘ng taxtga amakisi Ko‘chkunchixon (1510-1530), o‘g‘li Abusaid (1530-1533), Shayboniyxonning jiyani Ubaydulloxon (1533-1539), keyin Abdullo I (1539-1540), Abdulatif (1540-1551) chiqdilar. 1550 yillarda Shayboniylar orasida toj-taxt uchun kurash kuchaydi. Abdullo II ning qo‘li baland keldi. U Xuroson va Movarounnahrni birlashtirib yagona saltanatga aylantirishga harakat qildi. Xalqning turmushini yaxshilashga, ma’naviy dunyosini boyitish yo‘lida ko‘p tadbirlarni amalga oshirdi. Uning faoliyati haqida tarixiy manbalarda ko‘p ijobiy fikrlar bayon etilgan. Ammo, u 1598 yilda o‘g‘li Abdulmo‘‘min tomonidan zaharlab o‘ldiriladi. Amakisi, uning o‘g‘illarini ham qatl ettiradi. Nizomiy “padarkush shoh bo‘lolmaydi, bo‘lsa ham olti oydan oshmaydi” deganidek, olti oydan keyin u ham amirlari tomonidan o‘ldiriladi. Taxt Pirmuhammadxon qo‘liga o‘tadi.

1599 yilda Astraxanlik o‘zbeklardan Boqimuhammad (1599-1605) avval Samarqandni, keyin Buxoroni egalladi. Va 150 yil davom etgan Ashtarxoniylar davri boshlandi. Bu davrda ham siyosiy hayotdagi beqarorlik, parokandalik davom etdi.Amir Temur davridagi barqaror, mustahkam, markazlashgan yirik saltanat orzu va armonga aylanib qoldi. Mamlakatdagi ichki tarqoqlikdan tashqari, Eron podshohi Shoh Abbos, Hindiston hukmdorlari SHohjahon va Avrangzeblar ham bobolari Mirzo Bobur uchun armon bo‘lgan mamlakatni olishga intilishardi. Bu kurashlar, albatta, yurtning siyosiy va madaniy taraqqiyotiga to‘sqinlik qilardi. Jumladan, ashtarxoniylardan bo‘lgan Buxoro xonlari Abdulazizxon bilan

Subhonqulixon o‘rtasidagi uzoq yil davom etgan kurash taloto‘plarini va oqibatlarini shu davrda yaratilgan tarixiy asarlardan, ayniqsa. voqealarning bevosita kuzatuvchisi, ishtirokchisi bo‘lgan Turdi Farog‘iy asarlari talqinidan anglab olishimiz mumkin. Yoki Xorazm xonligini talashishgan aka-uka Habash va Elborslar o‘z otalari Arabmuhammadxonning ko‘zlarini o‘yib olishi kabi jaholatlarning guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Shu davrlargacha Movarounnahr Sharq mamlakatlariaro savdo yo‘li sifatida katta mavqega ega edi. Dengiz suv yo‘llarining ochilishi uning bu rutbasiga putur etkazdi.

Ammo bu fikrlardan butun jamiyat inqirozga yuz tutgan, madaniyat va adabiyot tanazzulga uchragan degan xulosaga kelish kerak emas. Chunki har qanday mushkul vaziyatlarda ham, inson hamisha ezgulikka, taraqqiyotga intiladi. Eng g‘amgin, qorong‘u kunlaridan ham umid izlaydi. Shuning uchun ham, bizga bu davrlarda yaratilgan ulug‘ meros etib kelgan.

Ko‘p podshohlar hukmdor sifatida murosasiz bo‘lsalar-da, ijodkor qalbi bilan iztirobga tushishgan, dard bilan yashashgan. Mamlakat ravnaqi yo‘lida imkonlar izlagan. Jumladan, Qo‘qon xoni Amir Umarxon (Amiriy) saroyiga uzoq-yaqindagi barcha ijodkorlarni yig‘ib, ularga rahnamolik qilgan. Rafiqasi Nodira uning ishini davom ettirgan. Ko‘plab ijod chashmalari ko‘z ochishiga da’vatkor va homiy bo‘lishgan.

Yoki Xorazm xonlari, jumladan, Muhammad Rahim I, Muhammad Rahim II lar zamonida adabiyot va san’atning nodir namunalari yaratilishi bevosita ularning faoliyati bilan bog‘liqdir.

Bu davrning to‘g‘ri, ob’ektiv bahosini berish uchun, albatta, o‘sha paytda yaratilgan ilmiy, adabiy, tarixiy manbalarni mukammal o‘rganish taqozo etiladi. Chunki ular davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti, tarixiy sharoiti, adabiy muhiti haqida ma’lumot berib falsafiy, ijtimoiy qarashlarni tahlil etish uchun muhimdir.

Bunday asarlar sirasiga Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, muallifi noma’lum ”Tavorixi guzida-nusratnoma”, Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma”, Gulbadanbegimning “Humoyunnoma”, Boburning “Boburnoma”, Zayniddin Mahmud Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe” Husayn Voiz Koshifiyning “Rashahot aynul-hayot”, Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Mutribiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Maleho Samarqandiyning “Muzakkiri ashob”, Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron”, Vozehning “Tuhfatul-ahbob”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy”, Mirmuhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullonoma”, Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix”, Munis Ogahiy, Abulg‘ozining tarixiy asarlarini kiritish mumkin.

Bu asarlardan biz faqat davrning muhim tarixiy, siyosiy hodisalari haqidagina ma’lumot olmaymiz. Balki, u asarlar keng qamrovli, qomusiy mazmunga egadir. Ulardan zamonning adabiy va madaniy hayotiga, iqtisodiyotiga, etnografiya, toponimiyasiga doir ma’lumotlarni ham uchratish mumkin.

Shunday muhim asarlardan biri Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”sidir. U tugallanmay qolgan bo‘lsa-da, XVI asr hayoti borasida batafsil tasavvur uyg‘ota oladi. Ushbu manba Shayboniylar sulolasining so‘nggi

xoni Abdullaxon II hukmronligi tavsifiga bag‘ishlangan. U Movarounnahr ravnaqi uchun, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy sohalar taraqqiysi uchun jonfido hukmdorlardan edi. Ammo, umri fojea bilan yakun topadi. O‘g‘li tomonidan qatl etiladi.

“Abdullanoma” faqat tarixiy asar emas. Unga Hofiz Tanish Buxoriy mahorati tufayli badiiy asar sifatida ham baho berishimiz mumkin. Tarkibiga kiritilgan “O‘g‘izxon” kabi hikoya va rivoyatlar asarning ilmiy va badiiy qimmatini yanada oshirgan.

Ikkinchi muhim tarixiy asar “Tavorixi guzida- nusratnoma”dir. U 1502-1504 yillarda yozilgan. Muallifi noma’lum. Asar Shayboniyxonning tarixiga bag‘ishlangan. Mazmunidan uni saroyda, jangu jadallarda xon bilan yonma-yon yurgan tarixchi tomonidan yozilgani ma’lum bo‘ladi. Ushbu manba ma’lumotlarning ko‘pligi va aniqligi bilan qimmatlidir.

Bu davrda yaratilgan Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk”, Munis va Ogahiylarning tarixiy asarlari ham nodir dalillari, betakror uslubi bilan ahamiyatli manbalardir.

Qul Ubaydiy

Ubaydullaxon, Ubaydulla Sulton, Ubaydiy (to‘liq ismi: Abulg‘oziy Ubaydulloh Bahodirxon ibn Mahmud Sulton ibn Shoh Budog‘ Sulton ibn Abulxayrxon) (1486, Xorazmning Vazir shahri yaqinidagi Tirsak mavzesi — 1540.17.3, Buxoro) — Buxoro xoni (1533—40), shoir. Shayboniylar sulolasidan. Muhammad Shayboniyxonning jiyani, Mahmud Sultonning o‘g‘li. Otasining iltimosiga ko’ra, unga Xoja Ubaydulloh Ahror o‘z ismini bergan. Tasavvuf bo‘yicha dastlabki saboqni otasining piri Mavlono Muhammad Qozidan olgan. Ubaydullaxonga o‘z davrining mashhur ulamolari Fazlulloh ibn Ro‘zbehon, Maxdumi A’zam, Mavlono Muhammad Azizon, Mavlono Xoja Muhammad Sadr va boshqalar ustozlik qilgan. Xususan, unga davlat arbobi va sarkarda amir Abdulla Yamaniy (Buxoroda Mir Arab nomi bilan mashhur bo‘lgan) harbiy san’atdan saboq bergan va o‘ziga murid qilib olgan.

Xorazm va Buxoro hokimi bo‘lgan otasi Mahmud Sulton Qunduzda vafot etgach (1504), unga O‘rusbek Do‘rmon (1512 yil Ko‘li Malikda bo‘lgan jangda o‘ldirilgan) otaliq qilib tayinlangan. Ubaydullaxon amakisi Shayboniyxonning Xorazm (1505), Balx (1506), Hirot va Mashhad (1507)ga qilgan harbiy yurishlarida qatnashgan. Dastlab safaviylar qo‘shinining Movarounnahr ichkarisiga bostirib kirishidan cho‘chigan Ubaydullaxon va Muhammad Temur Sulton (Shayboniyxonning o‘g‘li) shoh Ismoil I bilan elchilar almashib, sulh tuzishga uringanlar. Shayboniylar sulolasining xoni Ko‘chkunchixonikng asosiy noibi (1510 yildan) va Buxoro hokimi (1504 yildan) sifatida Ubaydullaxon dushmanga qarshi kurashga otlangan. 1511 yilda bo‘lgan jangda yengilgan Ubaydullaxon va Ko‘chkunchixon, Samarqand hokimi Suyunchxo‘jaxon, shuningdek, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton o‘z yaqinlari bilan Turkiston shahriga chekinadilar.

1512 yil 28 aprelda Ko‘li Malik jangida Ubaydullaxon g‘alaba qozonib, Buxoro va Samarqandni egallaydi. 1512 yili bahorida Ubaydullaxonning shijoati natijasida Movarounnahr yana shayboniylar qo’liga o‘tdi. Biroq Ismoil I yuborgan Najmi Soniy boshchiligidagi 60 ming kishilik safaviylar qo‘shiniga suyangan Bobur 1512 yil kuzida G‘uzor va Qarshini egallaydi. Najmi Soniy qo‘shini G‘ijduvonni qamal qilishga kirishdi. Ubaydullaxon va Jonibek Sulton Karmanaga; Kuchkunchixon va Temur Sulton Miyonkolga chekinib, hal qiluvchi jangga tayyorgarlik kurishadi. 1512 yil 24 noyabrdagi G‘ijduvon jangida Ubaydullaxon boshchiligidagi qo‘shin g‘alaba qozongan.
1513 yil yanvarda Ubaydullaxon boshchiligidagi qo‘shin Xurosonga harbiy yurishlar qilib, safaviylarga kuchli zarbalar berdi. 1513 yil 11 martda Ubaydullaxon Marvni egallaydi. Bu orada Ubaydullaxon Xorazmni ham egallab, o‘g‘li Abdulazizxonni hokim qilib tayinlaydi. Uzoq davom etgan harbiy to‘qnashuvlardan so‘ng Mashhad, Hirot (1529) va b. shaharlar egallandi. Ubaydullaxon Hirotdagi murakkab vaziyatni tartibga solish (bu yerda shialarning ta’siri kuchayib ketgan edi) va uning Buxoro bilan aloqalarini mustahkamlashga katta e’tibor qaratgan. Kuchkunchixon
Ubaydullaxon o‘zbek va fors adabiyotidagi yirik ruboiynavislardan hisoblanadi. Uning bu 2 tildagi ruboiylari 850 ga yaqin. Xususan, o‘zbek adabiyotida ruboiyning Boburdan keyingi taraqqiyoti Ubaydullaxon nomi bilan bog‘liq. Shoir she’rlarida o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan, uziga xos xususiyatlaridan mahorat bilan foydalangan.
Ubaydullaxon Buxoro yaqinida joylashgan Bahouddin majmuasidagi Daxmai shohon (Shoxlar daxmasi)dagi shayboniylar xilxonasida dafn etilgan. Ubaydullaxon kulliyoti yagona nusxada O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qulyozmalar fondida (inv. ?8931), «Devoni Ubaydulloxon» qo‘lyozmasi Turkiyaning Nuri Usmoniya kutubxonasida (inv. ?4904), «Masoil us-salot» nomli terma bayozi Ko‘niyodagi Izzatquyun xususiy kutubxonasida saqlanadi.

Muhammad Solih

Muhammad Solih XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning boshlarida yashab ijod etgan shoirdiAr.

Muhammad Solihning Bobosi Amir SHohmalik Amir Temur va Mirzo Ulug‘bek saroyida, otasi Nur Saidbek esa Mirzo Ulug‘bek, Jo‘gi Mirzo va Abu Said Mirzo saroyida xizmat qilgan. U Abu Saidning vasalli sifatida Xorazmni boshqarardi. Husayn Boyqaro hujum qilib Xorazmni egallaydi. Nur Said yaxshi mudofaa qilmaganlikda ayblanib, hibsga olinadi. Ixtiyoriddin qal’asiga qamaydilar. Jomiy tilagi bilan ozod etiladi. 1469 yilda Husayn Boyqaro Hirot taxtiga chiqadi. Abusaid yaqinlari qatorida bo‘lgan Nur Said ham qatl etiladi. Keyinchalik Muhammad Solih “SHayboniynoma”sida bu fojealarni, qiyinchilik ko‘rganini yozadi. “Kitob nazmining sababi” qismida shunday misralar bor:

Laqabi Solihu o‘zi tolih,
Nur Said o‘g‘li Muhammad Solih.

Munoq ayturki, xudodin taqdir,
CHun otam ishiga berdi tag‘yir –
CHiqti Xorazm diyori qo‘lidin,
Xivaku Kot hisori qo‘lidin.
Tushti andin guzori Marv sori
Anda sovrildi evu eli bori.
Mani gardun sitami qildi etim,
Ayladi kishvari g‘am ichra muqim.
Xorliqlar bila o‘stum bisyor,
Zorlig‘lar bila ko‘rdum ozor.
Har falokatki bo‘lur dunyoda,
Hech qaysidin eman ozoda.
Gah Xuroson aro qildim manzil
Gah Samarqandga bo‘ldum moyil...

Muhammad Solih Jomiydan tahsil oladi. Arab va fors-tojik tillarini o‘rganadi. Tarix, adabiyot, husnixat bilan shug‘ullanadi. U temuriylarga kek saqlaydi. 1499 yilda Mullo Abdurahim degan amaldorning maslahati bilan temuriylar saroyidan ketadi. SHayboniyxon tomoniga o‘tadi. SHayboniyxon unga yaxshi munosabatda bo‘ladi. “Amirul-umaro” (amirlar amiri), “malik-ush-shuaro” (shoirlar boshlig‘i) martabasini beradi. Muhammad Solih Buxoroda, CHorjo‘yda hokim vazifasida ishlaydi. 1505-1506 yilning boshida Niso (Ashxabod) shahriga dorug‘a bo‘ladi. 1510-1511 yillargacha Nisoda yashagan, SHayboniy vafotidan so‘ng Buxoroga qaytadi. “Otashkada” asarida yozilishicha, u Buxoroda vafot etgan.

U xalq orasida ikki tilli shoir sifatida shuhrat topgan. Muhammad Solihga Navoiy, Bobur kabi ulug‘ shaxslar yuqori baho berganlar. SHoirning o‘zbek va fors-tojik tilidagi she’rlaridan ayrim parchalar va “SHayboniynoma” dostoni to‘liq etib kelgan.

Muhammad Solih haqida Navoiy “Majolis un-nafois” asarida, Bobur “Boburnoma”sida, Xondamir “Habib us-siyar”, Mirzo Haydar “Tarixi Rashidiy”, Lutf Alibek Ozar “Otashkada”, Somiyning “Tuhfai Somiy”, Nisoriy “Muzakkiri ahbob” asarlarida ayrim ma’lumotlar keltiradilar, ijodidan namunalar beradilar. Bundan tashqari, u haqida “Milliy tatabbular majmuasi”, “Fathnomai xoniy”da ham ayrim ma’lumotlar uchraydi.

Navoiy shunday yozadi: “Muhammad Solih – ismi bilan “Solih” taxallus qilur. NurSaidbek o‘g‘li dururkim, ko‘p vaqtlar CHahorjo‘y navohisidin Adoq navohisiga degincha amorat qiladi va Sulton Abusaid Mirzo eshigida, Ulug‘bek va Jo‘gi Mirzo eshigida sohib ixtiyor va jumlat ul-mulk erdi... Tab’ida xeli diqqat va choshni bor. Xatka ham qobiliyati ko‘pdur. Bu matla aningdurkim:

Nim oshifta gar pushid kokuli mohi tobonash,
CHi g‘am az tiyragiyi shab, chun boshad subhi poyonash.

(YArim parishon kokili yorqin oy yuzini berkitgan ekan, tunning qorong‘iligidan nima g‘am bor, zeroki, tunning oxiri tongga aylanadiku.)

Bobur “Boburnoma” asarida Muhammad Solih haqida SHunday yozadi: *“YAna Muhammad Solih edi, choshnilik g‘azallari bor, agarchi hamvorligi*

choshnisicha yo'qtur, turkiy she'ri ham bor, yomon aytmaydur. So'ngra SHayboniyxon qoshiga kelib edi. Filjumla rioyat qilib edi. SHayboniyxonning otiga bir turkiy masnaviy bitubtur... Bir yaxshi bayti budur:

Bo'ldi Tanbalga vatan Farg'ona,
Qildi Farg'onani tanbalxona.

Hasanxoja Nisoriyning XVI asrda (1566 yilda) yozilgan va 288 shoir haqida ma'lumot beruvchi "Muzakkiri-ahbob" (Do'stlar yodnomasi) tazkirasida ham Muhammad Solih haqida ma'lumot keltiriladi. Unda Bobur huzurida o'qilgan bir ruboiy, uning M.Solihniki ekanligi, Majlisiy esa u yozgani haqida gap boradi.

Muhammad Solih devon tuzgan, nusxalari saqlanmagan. SHe'rlari tazkira va bayozlarda uchraydi. Bizgacha "SHayboniynoma" dostoni (1506-07) etib kelgan, Qosim Ali xattot tomonidan (1510) ko'chirilgan qo'lyozma Venada saqlanadi. Asar 76 bob, 8902 misradan tashkil topgan.

Muhammad Solih lirik va epik shoir. Uning lirik she'rlar to'plami to'la holda etib kelmagan. YUqorida qayd etilgan manbalar orqali ba'zi she'riy parchalar etib kelgan. "SHaboniynoma"da ham she'rlari bor. Uning merosi haqida olimlar o'rtasida turli fikrlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar Muhammad Solih "Majnun va Laylo", "Noz va Niyoz" nomli asarlar yozganini qayd etadilar. Vamberi "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" asarida "Layli va Majnun" ruhida masnaviy yozganini aytadi. Ammo Muhammad Solihning asosiy merosi "SHayboniynoma" dostoni bo'lib qolmoqda.

"SHayboniynoma" SHayboniyxonga bag'ishlangan doston. Unda temuriylar bilan SHayboniylar o'rtasida kurash, jangu jadallar tasvirlangan. Prof. N.Mallaevning fikricha, doston 8902 misradan iborat bo'lib, 76 bobga bo'lingan. 16 bob muqaddima. Bu qismlarda an'anaviy tarzda hamd, munojot, na't, SHayboniyxon madhi, uning aqli, ilmi, Qur'on o'qish mahorati, qilichi, kiyimlari, karami, hunarlari, kitobning yozilish sabablari kabilar haqida yoziladi. 1-3 boblar diniy xarakterda, 4 bob so'z ta'rifi va SHayboniyxon madhi, 5-14 boblar SHayboniyxon ta'rif va tavsifi, 15 bob "Kitob nazmining sababi" haqida, 16 bob Mullo Abdurahimga ataladi. Dostonning asosiy qismi 17 bobdan boshlanadi. Bu boblarda 1499-1500, 1505-1506 yillarda ro'y bergan voqealar izchil bayon etiladi. Dostonda SHayboniyxonning 1499-1500 yillarda Turkistondan Samarqandga qo'shin tortib kelishi, chekinishi, Buxoroni olishi, Qorako'l, Qarshi, G'uzor va boshqa joylardagi aholi qo'zg'olonlarini bostirishi, Samarqandni olti oy qamal qilishi, Boburning shaharni tashlab chiqishi, SHayboniyxonning Samarqandni, keyinchalik Andijon, Toshkent, Hisor, Badaxshon kabi joylarni birma-bir zabt etishi tasvirlanadi. Doston 1504-1506 yillarda SHayboniyxonning Xorazmga yurishi, uni egallab, Buxoroga qaytishi tasviri bilan yakunlanadi.

"SHayboniynoma" o'zbek adabiyoti tarixida jangnomaning yangi turi, birinchi tarixiy dostondir. Asardagi obrazlar tarixiy shaxslardir. SHayboniyxon va uning tarafdorlari Sulton Mahmud, Temur Sulton, Jonvafobiy bir tomon, Bobur, Husayn Boyqaro, Boqi Tarxon, Sulton Ali, Badiuzzamon kabi temuriylar ikkinchi tomon. SHoir doimiy tarzda obrazlarni tasvirlashda haqqoniylik yo'lidan bormaydi. SHayboniylarni ulug'laydi. Temuriylarni qoralaydi.

Dostondagi bosh obraz SHayboniydir. U (1451-1510) Dashti qipchoqda ko‘chmanchi o‘zbeklarning yirik davlatini vujudga keltirgan Abulxayrxonning nabirasidir. SHayboniy (shoh Budog‘ning o‘g‘li) butun umrini janglar bilan o‘tkazgan hukmdor. Ayni paytda lashkarboshi, shoir, ilm ahli homiysi edi. Muhammad Solih SHayboniyxonni maqtaydi:

Tengrining soyasi SHayboniyxon
Kim ani qo‘ydi xalifa rahmon.
G‘aybdan oti Muhammad bo‘ldi,
Qobili davlati sarmad bo‘ldi...

O‘zga xonlar kibi majlis qurmas
Ayshu ishrat soridin dam urmas
Boda ichmoq sori bo‘lmas moyil,
Bir zamon ishidin ermas g‘ofil.

SHoir SHayboniyxonni “Jamshidi davron”, “Sulaymoni zamon” – deb ta’riflaydi. Iskandar, xalifa Haydar kabilarga tenglashtiriladi. Ilm-fanda esa Ibn Sino. SHoirligi esa quyidagicha baholanadi:

SHe’rni xo‘b tanir zavq bila
O‘zi ham xo‘b aytur shavq bila.
Turki ab’yoti erur sharbati nob,
Forsiy she’rlari ham serob.

SHoir temuriylarga yaxshi munosabatda bo‘lmaydi. Boburni qoralaydi.

CHu Samarqandni oldi Bobur.
Xalq aro tafriqa soldi Bobur
Husn maydonig‘a zolim kirdi
Zulm bozoriga ravnaq berdi...

Muhammad Solih Boburga yordam bergan, shaharni qattiq himoya qilgan Samarqand xalqini ham qoralaydi:

Ushbu so‘zlar bila ul nodon el,
Qaysi nodonki bo‘lak hayvon el
SHartlar ayladilar mustahkam
Qildilar qal’alarini mahkam.

Majlisiy

Majlisiy (15-asr oxiri, Xorazm -16-asr 1-yarmi, Buxoro) — shoir. Hayoti va ijodi haqida ayrim ma'lumotlar Nisoriynit «Muzakkir ul-ahbob» tazkirasida uchraydi.

Uning 4000 misralik «Qissai Sayfulmuluk» ishqiy-sarguzasht dostoni bizgacha yetib kelgan. Asar masnaviyda, hazaj bahrida, qissa ichida qissa shaklida yozilgan bo‘lib, tuzilishi, voqealar bayoni jihatidan folklor asarlariga yaqin turadi. Misr shohi Osimning yolg‘iz o‘g‘li Sayfulmulukning Fatina shohi Shohbol qizi Badeuljamolga g‘oyibona sevgisi va unga erishish yo‘lidagi sarguzashtlari, umuman insonning o‘z baxti uchun kurashi va bu jarayonda uning kamol topishi tasvirlangan. Asarda adolat, yaxshilik va ezgulik madh etilgan, podshohlar adolatga chaqirilgan, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish g‘oyalari ilgari surilgan.

O‘zbek adabiyotida dostonning folklor varianti ham yaratilgan. Asar O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan, qozoq (Said-Garay, 1904), turkman (Qurbonali Ma'rufiy), tatar, rus va boshqa tillarga tarjima qilingan. Qozonda qayta-qayta nashr etilgan (1807, 1849, 1883, 1914). Toshkentda dastlab 1916 yili chop qilingan. To‘la bo‘lmagan ikki qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi (ivn. ? 3425, 8205).

Xoja

Poshshoxoja, Poshshoxo‘ja Abdulvahobxoja o‘g‘li, Xoja (1480, Niso — 1547, Buxoro) — shoir, davlat arbobi va yirik ulamo. Otasi — Abdulvahobxoja Sulaymonxoja o‘g‘li o‘z davrining yirik tasavvuf shayxi va shoiri bo‘lgan. Poshshoxoja Niso va Marv madrasalarida tahsil olgan.

Muhammad Shayboniyxon qozoq xonlari ustiga qilingan harbiy yurishdan qaytayotganda Nisoda to‘xtab, Poshshoxojani Durun viloyatiga hokim qilib tayinlaydi (1508 yil). 1510 yili Poshshoxoja Nisoning yangi hokimi Muhammad Solih bilan birgalikda Marv jangiga yetib kelgan. Shayboniyxon o‘limidan so‘ng dastlab Samarqand, so‘ngra Buxoroga kelib yashagan. Shayboniylardan Muhammad Temur Sulton va Ko‘chkunchixon xizmatlarida bo‘lib (1511—14), Karmana hokimi Jonibek Sulton hukumatida jumlat ul-mulk, sadrlik lavozimlarida ishlagan (1515—16). Buxoro xoni Ubaydullaxon Hirotni fath etgach (1529 yil), u sadrlikdan shayxulislomlik darajasiga ko‘tarilgan. Keyinchalik Balx hokimi Kistan Qaro Sulton (1544 yili vafot etgan) huzurida sadrlik va shayxulislom vazifasida faoliyat ko‘rsatgan (1534—43). Poshshoxoja 1543 yilda o‘z vazifasidan voz kechib, Buxoroga qaytadi va badiiy ijod bilan shug‘ullanadi.

Poshshoxoja nasr va nazmda adabiy asarlar yaratgan. Muhammad «Xoja» taxallusi bilan ijod qilgan. U Shayboniyxonning o‘g‘li Temur Sultonga atab «Miftoh ul-adl» («Adolat kaliti», 1508—10), Kistan Qaro Sultonga bag‘ishlab «Gulzor» (1538) kabi asarlar yozgan. Bu asarlarda axloqiy-didaktik xususiyatga ega bo‘lgan fikrlarni sharhlash uchun mashhur podshohlar haqidagi turli hikoyat va masallar keltirilgan. Ularda davlatni boshqarish, raiyat bilan munosabat masalalari, insofli va adolatli podshoh obrazi tasvirlangan.

Poshshoxoja ruboiy, g‘azal, qita janrlarida ham ijod qilgan. Jonibek Sultonga atab «Maqsad ul-atvor» (1516—20) dostonini yozgan. O‘zbek va fors tillarida tartib bergan devoni bizgacha yetib kelmagan. Poshshoxojaning o‘g‘li Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» («Do‘stlar yodnomasi») tazkirasida yozilishicha, Poshshoxojaning turkiy gazallariga Bobur yuqori baho bergan.

Poshshoxoja Bahouddin Naqshband maqbarasi yonida dafn etilgan. Uning «Gulzor» va «Miftoh ul-adl» asarlari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti va Sankt-Peterburg Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Asarlari o‘zbek tilida nashr qilingan.

Savol va topshiriqlar:

1. Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe” asarlarini to‘liq o‘qib chiqing!

2. XVI-XIX asr 1-yarmida qanday muhim siyosiy voqealar bo‘lgan?

3. Qanday tarixiy va tazkira asarlar yaratilgan?

4. Ushbu davrda madaniy hayot qanday edi?

5. Adabiy jarayonning qanday o‘ziga xos xususiyatlari bor?

6. “Muzakkiri ahbob” asari va muallifi haqida ma’lumot bering!

7. “Badoe’ ul-vaqoe” asari va muallifi borasida so‘zlang!

8. Davr adabiyotshunosligi tarixi va taraqqiyoti haqida so‘zlang!

Adabiyotlar:

1. Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob”. – T. 1993.

2. Zayniddin Vosifiy. “Badoe’ ul-vaqoe”. – T. 1979.

3. Bobur. “Boburnoma”. – T. 1989.

4. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3–4-jild. – T. 1978.

5. B.Valixo‘jaev. o‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. – T. 1993.

6. Fitrat. Tanlangan asarlar. II jild. – T. 2000.

2-mavzu. XVII – XIX asrlardagi o‘zbek adabiyoti. Xonliklar davri adabiyoti

Reja:

1. ***Davr hayotiga oid asosiy manbalar.***
2. ***Davrning ko‘zga ko‘ringan tarixchilari.***
3. ***Tazkiranavislikning taraqqiy topishi.***
4. ***Davr hayotiga doir badiiy asarlar.***

Davr hayotini tasavvur qilishimizda tazkira va memuar asarlarning ham katta o‘rni bor. Jumladan, Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe” asari badiiy-memuar janriga mansub. U “Boburnoma”bilan bir turkumga kiradi. Ammo, undan tasvir uslubi, voqealarga munosabati badiiylikning nisbati nuqtai nazaridan farqlanadi. “Badoe’ ul- vaqoe”da muallifning munosabati yaqqolroq seziladi. “Boburnoma”da esa izchil tarixiylik tamoyili ustunlik qiladi. Vosifiy asarining qahramonlari turli soha vakillari. Unda sultonlar, musiqachilar, naqqoshlar, rassomlar, adiblar kabi ko‘plab etuk kishilar haqidagi qiziq hikoyalarni uchratishimiz mumkin. Ayniqsa, Firdavsiy, Navoiy, Jomiy, Ulug‘beklarga bag‘ishlangan qismlar e’tiborlidir. “Badoe’ ul- vaqoe” bir necha marta fors tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan. 1826 yilda Dilovarxo‘ja, Ogahiy, Naim Norqulovlar tarjima qilishgan.

Hasanxoja Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” asari tazkira janriga mansub. Unda Samarqand va Buxoroda yashab ijod qilgan 250 dan ortiq ijodkor haqida ma’lumot beriladi. Asarda Navoiyning “Majolis un-nafois”i an’analari davom ettirilgan. Nisoriyning e’tiroficha tazkirani yaratishdan maqsad “... Amir Alisherning “Majolis un-nafois”idan keyin yuzaga kelgan barcha fozillarning dongdor nomlarini bir bitik qaydiga kiritib va ularning yoqimli nafaslari isini toliblarning jon dimog‘iga etkazish” bo‘lgan.

Tazkira Maqola qismidan, 4 bob va xotimadan iborat. Maqola CHingiziy va CHig‘atoy sultonlariga bag‘ishlanadi. Birinchi bob muallif uchrashmagan va bu olamdan o‘tgan ulug‘lar borasida hikoya qiladi. Ikkinchi bob Nisoriy uchrashgan va dunyodan ketganlar haqida. Uchinchi bob tazkiranavis uchrashgan va hozirda hayot zotlar haqida. To‘rtinchi bob muallif uchrashmagan va hozir yashayotgan tabarruk kishilar haqida. Xotima qismini esa u bobosi, otasi, amakisi, aka-ukalari kabi yaqin qarindoshlari zikriga bag‘ishlaydi.

Asardan Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Bobur, Majlisiy, Husomiy, Najmiddin Kavkabiy, Xoja kabi buyuk allomalarimiz faoliyatlari borasida keng tafsilotlar olishimiz mumkin. Undagi ma’lumotlarning aniq va noyobligi tazkira qimmatini belgilaydi.

Bu davrda Nisoriydan keyin ham bir qancha tazkiralar yaratildi. Jumladan, Sultonmuhammad Mutribiyning 1604-1605 yillarda tuzilgan “Tazkiratush-shuaro” sida 320 dan ziyod ijodkor haqida ma’lumot beriladi. Keltirilgan namuna-asarlarning vaznlari aniqlanadi. Har bir bob kichik muqaddima-debocha bilan boshlanadi. U 1627 yilda “Nusxayi zeboyi Jahongir” tazkirasini ham tuzadi. Unda 300 dan ortiq muhojir Movarounnahrlik ijodkorlar zikr etilgan.

1692 yilda Maleho Samarqandiy “Muzakkiri ashob” tazkirasini yaratdi. Unda 160 alloma zikri berilgan.

1821 yilda Fazliy Namangoniy “Majmuai shoiron” tazkirasida 101, 1871 yilda Qori Rahmatulloh Vozeh “Tuhfatul-ahbob” tazkirasida esa 145 shoir borasida ma’lumot beradi.

XVI-XIX asr II yarmidagi tazkiranavislik tarixini kuzatib, shunday xulosaga kelish mumkin:

1. Bu davrda yaratilgan tazkiralar Navoiyning “Majolisun-nafois”i an’analarini davom ettirgan.

2. Adiblar tazkiranavislikni takomillashtirishgan. Unga turli yangiliklar kiritib, ularning ilmiy qimmatini yanada oshirgan. Bu borada, ayniqsa, Mutribiyning faoliyati ibratli.

3. Tazkiralardagi ma’lumotlar muhimligi, boshqa manbalarda uchramasligi, davr madaniy hayoti, adabiy muhiti haqida yaxlit tasavvur uyg‘otishi bilan ham qimmatlidir.

Bu davrga kelib madaniy markaz Hirotdan Samarqand va Buxoroga ko‘chdi. Hunarmandchilik va savdo rivojlandi. U bilan bog‘liq ravishda rabot, sardoba, karvonsaroy kabi ko‘plab o‘ziga xos binolar qurildi. Ilm maskanlari madrasalar barpo etildi. “Boburnoma”da ta’kidlanishicha, 1502 yilda Zarafshon daryosida suv taqsimlovchi moslama o‘rnatilgan.

Bu davrda Samarqand va Buxoro musiqa maktabi dovruq taratgan edi. Movarounnahr va Xurosonning barcha hududlaridan bu erlarga toliblar ilm istab kelishardi. Manbalarda Muhib Ali Qonuniy, Hasan Kavkabiy, Najmiddin Kavkabiy,Mavlono Riyoziy Samarqandiy, YUsuf Dutoriy kabi ijrochi va bastakorlar haqida ma’lumotlar mavjud.

Mir Abdulla, Mir Husayniy, Sulton Mirak Munshiy kabi mashhur xattotlar tomonidan ko‘chirilgan noyob kitoblar davr ma’naviyati, madaniyatini yuksaltirishda munosib o‘rin egallagan.

Ushbu davrda rassomlik, naqqoshlik va miniatyura san’ati o‘zining yangi bosqichiga ko‘tarildi. Ayniqsa, “Boburnoma”ga, “Tavorixi guzida- nusratnoma”ga va Muhammadmurod Samarqandiy tomonidan “SHohnoma”ga chizilgan miniatyuralar diqqatga sazovordir. Bu asarlardagi ruhiy manzaraning, tarixiylikning chuqurligi davrning tirik, teran qiyofasini tasavvur etishimizga ko‘maklashadi. Mahmud Muzahhib, Rustam naqqosh kabi rassomlarimizning yaratgan asarlari ham tariximizning nurli, yorqin sahifalarini tashkil etadi. Ular haqida shu davrda yaratilgan tazkiralarda fikrlar bildirilgan.

Bulardan tashqari, ushbu davrda amaliy san’at yodgorliklari ham yaratilgan. Jumladan, Jalol Buxoriy tomonidan bunyod etilgan antiqa sandiq-soat e’tiborlidir. Manbalarda tasvirlanishicha,Jalol Buxoriy bir sandiq yasaydi. Uning ichida chiroyli daraxt. Daraxt ustida bir maymun bir qo‘lida lagan,bir qo‘lida tayoqcha ushlagan holda o‘tiribdi. Ma’lum bir fursatda maymun harakatga kelib tayoqcha bilan laganga uradi. SHunda soat zangiga o‘xshagan tovush chiqadi. Bu harakatlar mexanik tarzda bajariladi.

O‘ylaymizki, qisqa ma’lumotlardan ham XVI-XIX asr I yarmi madaniy hayoti haqida, taraqqiyoti haqida xulosa chiqarishimiz mumkin.

XVI-XIX asr adabiy jarayoni haqida ko‘plab tarixiy, tazkira va badiiy asarlar orqali tasavvurga ega bo‘lamiz. Xususan, Nisoriyning “Muzakkiri ahbob”, Vosifiyning “Badoe’ ul vaqoe” (Nodir voqealar), Boburning “Boburnoma, Mutribiyning “Tazkiratush-shuaro” kabi asarlari qimmatlidir. Ular davr siyosiy-tarixiy hayotidan tashqari, madaniy adabiy muhit borasida yaxlit ma’lumot beradi. YAshab, ijod etgan adiblar, ularning fe’l atvori, ijodiga xos xususiyatlar, asarlari ko‘lami xususida tasavvur hosil qiladi. Ular ma’lumotlarning aniqligi, asosan, voqea ishtirokchilari tomonidan yozilganligi va dalillarning mo‘lligi bilan nodir manbalardir. Ularda Husomiy, Majlisiy, Bobur, Ubaydiy, Shayboniy, Muhammad Solih, Xoja, Husayn Boyqaro, Navoiy, Binoiy, Firdavsiy kabi mashhur ijodkorlar haqidagi takrorlanmas hikoyalar bilan tanishamiz. Uzoq yillar saroy va diniy adabiyot vakillari deb o‘rganilmay kelingan Ubaydiy, Shayboniy, Aziziy, Fazliy, Ado, Amiriy, Feruz kabi mo‘‘tabar insonlar-ijodkorlarning haqiqiy, asl qiyofalari bilan oshno bo‘lamiz. Har birlarining ijodlari chuqur tadqiq etishga munosib, ulkan adabiy merosimizga daxldor o‘ziga xos noyob namunalar ekanligini anglaymiz.

XVI-XIX asr adabiyoti Navoiy, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Jomiy, Nizomiy, Xusrav kabi daho ijodkorlar yaratgan badiiy chashmadan bahra olgan. Ular ijodiy maktabini o‘tagan adabiyotdir.SHuning uchun ham unda ustoz ijodkorlar an’analari mujassamlashgan.Mavzu,g‘oya,janrlar takomillashtirilgan.Ularning yangi qirralari kashf etilgan (Bu masalaga adiblar ijodi tadqiqi jarayonida yana qaytiladi).

XVI-XIX asr adabiyotining o‘zidan oldingi davr adabiyotidan ayrim farqli tomonlarini ta’kidlab ko‘rsatish mumkin:

1.Navoiy davri adabiyotida romantik uslub etakchilik qilgan.Biz o‘rganadigan davrda esa romantik uslub ham qo‘llangan. Ammo, realistik uslub ancha ustunlik qilgan. Bu borada Bobur, Muhammad Solih, Xoja, Turdi ijodlari diqqatga sazovor.

2. Mavjud janrlar takomillashtirildi. YAngi janrlar yuzaga keldi:

a) tarixiy memuar (Bobur. “Boburnoma”);

b) tarixiy doston (Muhammad Solih. “SHayboniynoma”);

v) kichik hikoyalar turkumi (Xoja. “Gulzor”, “Miftoh ul-adl”).

3. Ushbu davrda “Xamsa” tipidagi turkumlashgan emas, balki alohida, mustaqil masnaviy dostonlar ko‘proq yaratildi.

4. Shu sababli an’anaviy timsollardan kam foydalanildi.

5. Abulqosim Kohiy, Humoyun, Komron, Bayramxon kabi muhojir shoirlar o‘zbek eli va tili mavqeini yanada oshirishga hissa qo‘shishdi.

6. Davr adabiyotiga o‘g‘uz turkchasi, xususan, Fuzuliy tili va ta’siri kuchli bo‘lgani yaqqol ko‘zga tashlanadi.

7. O‘zbek adabiyotining jug‘rofiy hududi kengaydi. Turkiya, Hindiston, Ozarbayjon, Eron mamlakatlarida ham o‘zbek tilidagi adabiyot namunalari keng tarqaldi. U erlarda yashayotgan movarounnahrlik ijodkorlar asarlar yaratishdi.

8. Shu sababli boshqa elat ijodkorlariga Alisher Navoiyning ijodiy ta’siri kuchaydi.

9. Tarixiy va tazkira asarlar yaratishga alohida e’tibor berildi.

XVI-XIX asr adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari haqida adabiyotshunosligimizda xilma-xil mulohazalar bildirilgan. Ularning ayrimlari bahsu munozaralarga ham sabab bo‘lgan. Jumladan, ayrim olimlarimiz ushbu davrda siyosiy hayotdagi tanazzul va parokandalik adabiy jarayonga salbiy ta’sir qilgan. Adabiyotda turg‘unlik va pasayish sodir bo‘lgan deyishadi. Ammo, bu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. CHunki, shu davrda birgina Ogahiyni olsak, u hajm jihatidan ham mahorat jihatidan ham Navoiyvor maqomda ijod etgan. Bobur, Uvaysiy, Nodira kabi o‘nlab ijodkorlar merosini kuzatib, ularning har biri o‘ziga xos uslubga, ijodiy yangilikka erishgan mahoratli adiblar ekaniga amin bo‘lamiz (Ular ijodidagi yangilik va mahorat masalalariga o‘z mavridida yana qaytiladi).

Atoqli olim Abdurauf Fitrat “XVI asrdan so‘ngra O‘zbek adabiyotig‘a umumiy bir qarash” maqolasida XVI asrdan keyingi davr adabiyotiga baho berar ekan, uning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi (uning ayrim fikrlari ham munozaralidir):

“1. Bu davrning adabiyoti o‘zidan burung‘i davrg‘a qaraganda, umuman, san’atcha tuban, biroq son jihatdan ko‘pdir.

2. Bu davrning adabiyotiga 17-asrning 2-yarmilaridan boshlab o‘g‘uzchaning, ayniqsa, Fuzuliyning kuchli ta’siri bor.

3. Bu davrda tarixiy asarlarga ayricha ahamiyat berilgan.

4. She’rda Yassaviy maktabi bu davrda saroyg‘acha ko‘tariladir.[1]”

YUqorida aytilgan fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, XVI-XIX asr 1-yarmi o‘zbek adabiyoti teran tahlil va talqinni taqozo etadigan ulkan ma’naviy merosimizdir. Uni qanchalik chuqur o‘rgansak, ajdodlarimiz orzulagan ma’naviy, ruhiy kamolotga shunchalik yaqinlashamiz.Undagi umumbashariy mazmun va g‘oyalar ko‘nglimizga va hayotimizga singib boraveradi.

Savol va topshiriqlar:

1. *Davr hayotiga oid qanday tarixiy manbalar bilan tanishsiz?*
2. *Tazkira asarlar haqida ma’lumot bering.*
3. *Davr hayotini o‘rganishda tarixiy asarlarning o‘rni qanday deb o‘ylaysiz?*
4. *Davr haqida qanday badiiy va memuar asarlarni o‘qigansiz?*

Adabiyotlar:

1. *Bobur. Boburnoma. – T. 2002.*
2. *Xayriddin Sulton. Boburiynoma. – T. 1996.*
3. *O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3-jild. – T. 1978.*
4. *Nisoriy. Muzakkiri ahbob. – T. 1993.*
5. *Hasanov H. Bobur sayyoh va tabiatshunos. – T. 1983.*
6. *Erskin U. Bobur Hindistonda. – T. 1995.*

[1] Фитрат. Танланган асарлар. 2-жилд. Т.2000, 60-61 бетлар.

3-mavzu. Mashrab ijodiy merosi

Reja:

1. ***Mashrab she'riyatining g'oyaviy xususiyatlari.***
2. ***Mashrab she'riyatida ishq talqini.***
3. ***SHoir ijodida dunyoviy kechinmalar ifodasi.***
4. ***Mashrab asarlarida badiiy mahorat.***

O'zbek mumtoz adabiyotimizda o'ziga xos uslubga, ijodiy yo'lga ega bo'lgan shoirlarimizdan biri Boborahim Mashrabdir. U o'z hayotini O'rta Osiyoning ko'p shahar va qishloqlarida qalandarona yashab o'tkazdi. SHoir faoliyatiga karomatpesha bir avliyo, darvesh, qalandar sifatida xalq katta ixlos va ehtirom bilan qaragan. SHuning uchun o'z zamonasidan boshlab Mashrabning asarlari keng yoyilgan. U haqda ko'plab rivoyatlar yaratilgan. Majzub Namangoniyning "Tazkirat ul-avliyo", Ishoq Bog'istoniyning "Tazkirai qalandaron", Maleho Samarqandiyning "Muzakkiri ashob" kabi tazkiralarida Hakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorix", Mirzo Olimning "Ansabus-salotin" asarlarida ham shoir haqida ayrim ma'lumotlar, mulohazalar uchraydi. Mashrabning shaxs sifatidagi, ijodkor sifatidagi qiyofasi haqida mukammalroq tasavvur hosil qiluvchi manba bu-Pirmat Setoriy tomonidan tuzilgan "Qissai Mashrab"dir. U XX asr boshlariga qadar "Devona Mashrab", "SHoh Mashrab", "Eshon Mashrab", "Qissai Mashrab" kabi nomlar bilan juda ko'p nusxalarda kitobat qilingan.

Mashrab ijodi, faoliyati bilan XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus sharqshunos olimlari qiziqa boshladilar.

1889 yilda "Turkiston viloyatining gazetida" bir qator maqolalar e'lon qilindi.

1895 yilda N.I.Veselovskiyning "Vostochno'e zametki" asarida ham Mashrab hurfikrlilik namunasi sifatida jiddiy o'rganishga loyiq ijodkor ekanligi e'tirof etiladi.

1910 yilda N.S.Likoshin shoir haqidagi qissani rus tiliga tarjima qiladi. SHarh, izohlar bilan nashr ettiradi.

1923 yil V.L.Vyatkin shoir haqida maqola e'lon qiladi. Unda Mashrabning xalq orasida mashhurligi, asarlari keng tarqalgani ta'kidlanadi. SHu maqolada ilk bor ikki Mashrab masalasi ko'tariladi.

SHoir hayoti ijodi borasida o'zbek adabiyotshunos olimlarimizdan Izzat Sulton, V.Zohidov, I.Mo'minov, G'afur G'ulom, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, E.SHodiev, V.Abdullaev kabilar ham bir qancha maqolalar e'lon qilishgan. Ularda Mashrab shaxsi, ijodi bilan bog'liq turli masalalar yoritib berilgan.

Mashrabshunosligimizni kuzatib, uzoq yillar siyosiy mustamlaka ta'sirida shoir ijodi soxta talqinlarga duchor etilganining guvohi bo'lamiz. Mashrab ijodidagi ilohiy muhabbat dunyoviy muhabbat sifatida talqin etiladi. U dinni rad etuvchi-ateist, deya baholanadi. SHoir she'riyatidagi jo'shqin isyon ham sinflar manfaati bilan bog'lab izohlanadi.

Ammo, mustaqilligimizning benazir sharofati bilan Boborahim Mashrab ijodi o‘zining xolis bahosini ola boshladi. Olimlarimiz uning asarlariga teranroq nazar tashlamoqdalar. Jumladan, I.Haqqulning “Haqiqat yo‘l tutay desang…”[2], N.Komilovning “Kamoli nuri rahmatman”[3] maqolalarini N.Jumaxo‘janing “Milliy istiqlol mafkurasi va adabiy meros” nomli doktorlik dissertatsiyasidagi Mashrabga oid ma’lumotlarni aytish mumkin. Ular shoir dunyoqarashi, falsafasini atroflicha yoritishga harakat qilishgan.

Mashrab hayoti va ijodini o‘rganish borasida matnshunoslik yo‘nalishida ham ancha ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 1958 yil birinchi bor P.SHamsiev va A.Hayitmetovlar tomonidan Mashrabning “Tanlangan asarlar”i nashr etildi. Bu 1960 yilda qayta nashr bo‘ldi. 1963 va 1971 yillarda A.Abdug‘afurov Mashrab asarlarining to‘laroq nashrini yaratdi. 1979 yilda V.Rahmonov tomonidan yana mukammalroq nashr tayyorlandi. Unga yozilgan “So‘zboshi” ham ma’lumotlarining yangiligi, shoir asarlariga chuqurroq yondashilganligi bilan katta ilmiy qimmatga ega. Mashrab asarlarining so‘nggi nashri 1990 yil Samarqandlik adabiyot muallimi Jaloliddin YUsupov tomonidan amalga oshirildi. Kitobda keltirilgan “So‘ngso‘z”da ushbu nashrning oldingilaridan tafovutlari, afzalliklari batafsil sharhlab berilgan. Mashrab hayoti va ijodiga oid muammolarga birlamchi manbalar vositasida aniqliklar kiritilgan, Mashrabning taxalluslari, “Mabdai nur”, “Kimyo” asarlarining muallifligi, O‘rta Osiyo va boshqa SHarq mamlakatlarida Mashrab taxallusi bilan ijod etgan shoirlar borasida yangi xulosalar bayon qilingan, ravshanliklar kiritilgan.

Ko‘ringanidek, Mashrab hayoti va ijodi xususida ancha tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo, biz hali shoir shaxsini, dunyoqarashiyu falsafasini, asarlari mohiyatini to‘laligicha o‘rganganimiz yo‘q. Bu borada hali echimini kutayotgan muammolar juda ko‘p.

Boborahim Mashrab 1640 yilda Namanganda Valibobo bo‘zchi oilasida dunyoga kelgan. Otadan yosh etim qolgan. SHunga qaramay chuqur bilim olishga harakat qiladi. Dastlab o‘z qishlog‘idagi mulladan tahsil olib savod chiqaradi. Uning bolaligi, tahsil yillari haqida “Qissayi Mashrab”da ko‘p rivoyatlar keltirilgan. Ulardan biz uning yoshligidan ilohiy jazba tekkan, g‘ayri oddiy, g‘ayb asroridan voqif bir inson bo‘lganini ko‘ramiz. Jumladan, ilk tahsil kunlarining birida ustozi undan “alif” deyishini so‘raydi, “Alif” deydi. Endi “be” (arab alifbosidagi 2-harf) deng, deydilar. SHunda shoh Mashrab ustozlaridan “alif” va “be”ning ma’nosini tushuntirib berishni so‘raydilar. SHunda domla biroz achchig‘lanadi. Buni ko‘rgan Mashrab aytdilar: “Ey domla. “alif”ni ma’nosini siz aytmasangiz man aytarman”. Ustozlari aydilar: Ey o‘g‘lum, “alif”ni ma’nisi nimadur?” SHoh Mashrab aydilar: “Domla, “alif”ni ma’nisi birdur. Ul sababdin “Be” demasman. Mundin o‘tmak xatodur”. Buni eshitgan ustoz shogirdning quvvai afkoridan hayratda qoladilar. CHunki shunday yoshda olam va odamning mohiyatini bunchalik teran anglash g‘ayri odatiy hol edi. Bu rivoyat bizni Mashrab dunyoqarashining eng muhim asrori bilan oshno etadi. U butun borliqni

---

[1] И. Ҳаққул. Тасаввуф ва шеърият. Т., 1991. 173- бет.

[2] Н.Комилов. Тасаввуф. Иккинчи китоб. Т., 1999, 131-бет.

Ollohning zuhuri deb bilishini, Olloh bitta boshqa barcha mavjudot uning tajallisi deb tushunishini anglatadi.

Uning bunday o‘tkir zehnini ko‘rgan ota-onasi zamonasining eng ulug‘ shayxlaridan bo‘lgan Mulla bozor Oxund qo‘liga tahsil uchun topshiradilar. Mashrab u erda diniy va tasavvufiy falsafani o‘rganadi. Mansur Halloj, Farididdin Attor, Nasimiy, Ibrohim Adham dunyoqarashi bilan tanishadi. Hofiz, Lutfiy, Navoiy she’riyatining fayzosor navolaridan bahramand bo‘ladi. Ularning ko‘plab asarlarini yod oladi. Ulardan ilhomlanib, o‘z tuyg‘ularini, ruhiyatining rang-barang manzaralarini ifodalab o‘ziga xos asarlar yarata boshlaydi.

Mashrab Namanganda har tomonlama puxta bilim olgandan keyin, undagi g‘ayritabiiy layoqatni ko‘rgan ustozi uni Qashqarga Ofoq Xoja huzuriga bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida yuboradi.

Mashrab Ofoq Xoja dargohida 1665 yildan boshlab 7 yil xizmat qiladi. SHu yillarda u tariqat bosqichlarini, amaliyotini bosib o‘tadi. Tasavvuf ta’limoti g‘oyalarini she’riyatiga olib kiradi.

1673 yilda Mashrabning onasi vafot etadi. U shundan keyingi hayotini qalandarlik bilan o‘tkazadi. Ko‘p viloyat va shaharlarga boradi. Hamma joyda xalq uni ulug‘ avliyo, so‘fiy shoir sifatida qabul qiladi. U qaerga bormasin, zamondoshlariga olamning va hayotning mohiyatini tushun-tirishga xizmat qiladi. To‘g‘ri yo‘ldan adashgan, nafsiga mag‘lub kimsalarni hushyorlikka, uyg‘oqlikka da’vat etadi. Insoniyatni mudroqlikdan, ma’naviy so‘qirlikdan ogohlantiradi.

Qissadagi ayrim rivoyatlar insoniyat tabiatidagi uni tanazzulga etaklovchi qusurlar, xislatlardan ogohlanti-radi. Jumladan, manmanlik, takabburlik kishini nazardan qoldiradi, Ollohdan uzoqlashtiradi. Bunga Mashrabning munosabati qisqagina rivoyatda yorqin ifodalab beriladi. Mashrab Buxoroyi SHarifda bir qalandardan otini so‘raydi. “Mani otim Mashrab insoniyatni mol-dunyo, nafs, hirsu havo to‘g‘ri yo‘ldan ozdirishini juda teran anglagan. O‘zi bilgan mohiyatni zamondoshlariga uqtirishni farz deb bilgan. Quyidagi rivoyat Mashrabning dunyoga, boylikka munosabati haqida xulosa chiqarishimizga asos beradi. Buxoroda Mashrab bir g‘arib bechorani chaqirib aytdilar: “Agar belimdagi fo‘ta tushib qolsa, saning baxtingdur, agar qo‘lum birla bersam dunyo ayturki, mani Mashrab qo‘li birla tutti, ammo erga tushsa, san erdin olg‘il, minnatdor bo‘lsun er”.1[4]

Mashrab bir necha chaqirim minib yo‘l bosgan otini oyog‘ini chopishni buyuradi. Muridlari sababini so‘rashganda,-”To o‘rdadin registoni Buxorog‘a kelguncha ushbu otni minib, Ollohi taolodin g‘ofil bo‘ldum. YAna har bandayi mo‘‘min bu otni ustig‘a minib, xudoyi taolodin g‘ofil bo‘lmasun, shu sababdin o‘ldurunglar, dedim”,-deb javob beradilar. Bu bilan Mashrab qanday mansab martabada bo‘lsada, insonning “oyog‘i erdan uzilmasin”, ko‘ngli Ollohdan uzoqlashmasin degan fikrni ilgari surmoqda.

“Qissayi Mashrab”da shoirning ilohiy ishq kuychisi ekanligi, bu ishq otashining me’yoru hadisi borasida ham bir qancha rivoyatlar keltiriladi. SHulardan birida hikoya qilinishicha, Mashrab YOrkentga borganda, chilim

---

[2]1 Қиссаи Машраб. Т., 1992. 142- бет

so‘rab chekadi. Nafas tortib tutun chiqarganda, butun olam qorong‘u bo‘ldi. Ammo, chilimning sarxonasini olib erga qoqqanlarida xalq bir dona ham bang kuymaganligining guvohi bo‘ladi. Bu albatta, bir tomondan Mashrabning karomatpeshaligini ko‘rsatsa, ikkinchidan, shoir ishqi sharorasining o‘tkirligini namoyish etadi. Bir o‘rinda Mashrab namoz o‘qib, “hu” deb nafas chiqarganlarida kuygan kabobning isi kelardi, deyiladi2[5].

Ko‘rinib turibdiki, “Qissai Mashrab” rivoyat tarzida yaratilgan bo‘lsa ham, bizga shoirning dunyoqarashi, shaxsiyati, asarlarining mazmun-mohiyatini anglashimizda asosiy manba vazifasini o‘taydi. Undagi rivoyatlardan mantiqiy xulosalar chiqarishimiz mumkin. SHoir asarlari bilan qissadagi fikrlarni muqoyasa etib, ayrim muammolarga oydinlik kiritishimiz mumkin.

Mashrab 1711 yilda Balx hokimi Mahmud Qatag‘on tomonidan dorga ostiriladi.

Boborahim Mashrabning bizgacha she’rlaridan tashqari “Mabdai nur” va “Kimyo” asarlari ham etib kelgan. Adabiyotshunosligimizda bu ikki asar muallifi borasida uzoq yillar bahs -munozara olib borildi. Ayrim olimlarimiz ularni Boborahim Mashrabga nisbat berishsa, ayrimlar ular Mashrabi Soniy taxallusi bilan ijod etgan Mullo Ro‘ziboy Oxundning asaridir, deyishgan. Ammo, so‘nggi yillarda bu munozaraga biroz oydinlik kiritildi. Bu asarlar tuzilishi, mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishiga ko‘ra, tili, badiiy vositalarining ishlatilishiga ko‘ra va SHarqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan ayrim qo‘lyozmalardagi ma’lumotlarga ko‘ra Boborahim Mashrabnikidir, degan xulosaga kelindi. 1997 yilda “Mabdai nur” asari hozirgi yozuvimizda nashr ham etildi.

Boborahim Mashrabning lirikasi maxsus devon tarzida tartib berilmagan. Uning merosi bizga “Qissai Mashrab”larning ko‘plab nusxalari orqali etib kelgan. U Rindiy, Umam, Mahdiy, Zinda va Mashrab taxalluslari bilan she’rlar yozgan.

Mashrab taxallusining ma’nolari har xil izohlanib kelingan. SHulardan ikkitasi haqiqatga yaqin keladi. Ular bir-birining mazmunini to‘ldirish uchun ham xizmat qiladi.

Mashrab-maslak, maslakdosh degan ma’nolarni ifodalaydi. “Qissai Mashrab”da ham shunga yaqin izohlanadi: “Har kishi manga rafiq bo‘lsa man anga rafoqat qilurman. Har qozonga tushsam qaynaydurman, aning uchun otim Mashrab qo‘ydum” (32-b.) Demak, Kimki, manga do‘st bo‘lsa, man ham unga do‘stdirman. Bu erda ham g‘oyaviy yo‘lning birligi, maslakdoshlik haqida fikr bildirilyapti.

Taxallusni yana “Ilohiy sharobdan nasibali” degan ma’noda ham sharhlash mumkin, ilohiy ishq bilan oshno yurak, albatta, insonlarni ezgulik sari etaklaydi. Ularning to‘g‘ri yo‘l topishida rahbar-rahnamolik qiladi.

Boborahim Mashrab asarlarini ikki-o‘zbek va fors-tojik tilida yaratgan.

SHoir asarlari haqida uzoq yillar bahs-munozarali fikrlar bayon etib kelindi. Ammo, so‘nggi yillarda uning she’rlari mohiyatini siyosatdan kelib chiqib emas,

---

[1]2 Ўша асар, 59-бет.

balki ob'ektiv anglay boshlayapmiz. CHunki Mashrabning ijodkor sifatidagi asl qiyofasi she'riyatidadir.

U so'fiy shoirdir. Uning she'riyati asosida tasavvufiy g'oyalar talqini turadi.

Xo'sh, tasavvufning o'zi nima? Tasavvuf-bu inson o'zini tanish orqali Ollohni tanish va sevish ilmidir. U "Insonning ichki olami, ya'ni botinini tadqiq etuvchi ilmdir".[6] Inson umri tadriji ikki qarama-qarshi qutb-ezgulik va yovuzlikning kurashidan iborat. Tasavvuf ta'limotining mohiyati odamzodga o'z vujudida mavjud nafsoniy intilishlarni fosh etish, ularni engish yo'llarini ko'rsatish, ruhidagi ilohiy fazilatlarni uyg'otish, taraqqiy toptirishdan iboratdir. CHunki insonning yashashdan bosh maqsadi ilohiylashish, asl mohiyatga etishdir. Buning yo'li esa bitta. O'zini engish, o'zidan o'tish va o'ziga etishdir. Bu borada "Nasoyimul-muhabbat"da keltirilgan Boyazid Bistomiyning xulosasi ibratlidir: "...Boyazid dediki, Olloh taoloni tush ko'rdum, so'rdumki, bor xudoyo, yo'l sanga ne nav'dur? Dedikim, o'zungdin o'ttung, etting".2[17]

Mashrab she'riyatidagi asosiy g'oyalardan biri ham ana shu -insonni o'ziga tanitishdan iboratdir. U ko'p yurtlar kezib, kishilarning yashash tarzi, tabiatini kuzatib, barcha fojealariga, iztiroblariga sabab ularning nafsi degan xulosaga keldi. Va ibrat sifatida, o'zi anglagan dunyo mohiyati borasidagi tasavvurlaridan zamondoshlarini ogoh etish maqsadida qalandarlik yo'lini tanlaydi.

Boborahim Mashrab ham dono ijodkorlardan. Ammo, uning donoligi, dunyoni anglashi o'ziga xos. SHe'riyatidagi lirik qahramonning ruhi baland. Olam va odam mohiyati, munosabati haqida gapirganda, ishonch bilan qat'iy xulosalar chiqaradi. U ham dunyoning xatolardan, armonlardan, yolg'onlardan iboratligini biladi. Ammo, bu shoir lirik qahramonini tushkunlikka tushirmaydi. CHunki, u ana shu xatolar zaminida ishonsa va suyansa bo'ladigan birgina haqiqat borligini ham anglaydi. Bu-Olloh:

Bir xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,
Gul agar bo'lsa qo'lumda, ul tikonni na qilay?!

Demak, Xudoga ishonish, unga muhabbatda bo'lish insonni xatolardan asraydi. Hayotiga go'zal mazmun baxsh etadi. Mukammal axloqli, halol, pok bo'lishga boshlaydi.

Mudom miskin erurman chun g'uloming Mashrabingdurman,
Meni bechora bu dunyo bilan uqbog'a[8] sig'mamdur.

YUqorida ta'kidlaganimizdek, Mashrab she'riyatining asosiy maqsadi-insonlarni mudroqlikdan uyg'otish. Bir-biriga muhabbat bilan boqish, bir-birini anglash va bu orqali Ollohni anglashga yo'naltirishdir.

[1₁] Н.Комилов.Тасаввуф, 2-китоб.Т., 1999, 194-б.

[2₂] Алишер Навоий. Асарлар,15 томлик,15-том, 79-б.

[1₁] Укбо-охират .

SHoir har bir ko‘ngilni sirli bir olam deb tushunadi. Zamondoshlarini uni sevishga chaqiradi. Biror dilni og‘ritishni, unga ozor berishni yuzlab Ka’bani vayron etishga tenglashtiradi:

Tavofi olami dil qil jahonda har bashardin sen,
Agar bir dilni sen buzsang, yuzar Ka’ba buzulmazmu,

Ko‘ngilni anglash va uni poklab borish insonni Ollohga yaqinlashtiruvchi vositadir. CHunki, g‘uborlardan tozalangan qamish-naydan ruhbaxsh navo taralganidek, pokiza ko‘ngilda ham ilohiy ishq, hayotga muhabbat, go‘zallikka oshuftalik mujdalari una boshlaydi.

Mashrab she’riyatida biz ana shu ilohiy ishq talqinini kuzatamiz. Ammo, uzoq yillar ilohiy ishq mohiyatini inkishof etuvchi asarlari tor ma’noda, ya’ni majoziy ishq tasviri sifatida baholanib kelindi. SHoir ijodidagi “dinga qarshi motivlar” ham bir yoqlama talqin natijasidir.

Mashrab ijodidagi ishq talqini o‘ziga xos. U Ibrohim Adham, Mansur Halloj, Attorni o‘ziga g‘oyibona pir deb biladi. Ularning yo‘lidan boradi. Mansur Halloj kabi o‘tli ishq otashida yonib yashaydi. Bu Ollohga bo‘lgan muhabbat. U hayotning, tiriklikning mazmunini shunda ko‘radi. Uning asosiy maqsadi Ollohni sevish va u bilan birlashish. CHunki u insonni g‘uborlardan, vujudiy, nafsoniy qafaslardan faqat shu ishqqina ozod etishiga ishonadi. SHoir tasavvuricha, bunday muhabbatga oshno bo‘lmagan ko‘ngul haqiqiy go‘zallikni his qilolmaydi. Borar manzillari torayadi. Ko‘rar ko‘zlari xiralashadi. Quyidagi baytlar ham shoirning xuddi shunday nuqtai nazari natijasi sifatida maydonga kelgan deyishimiz mumkin. Uning tasavvuricha, Olloh yodisiz, ishqisiz Makkaga borish besamar, Ka’ba eski do‘kon yanglig‘ bee’tibor:

YOrsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?
Ibrohimdan qolg‘on ul eski do‘konni na qilay?!
Urayinmu boshima sakkiz bihishtu do‘zaxin,
Bo‘lmasa vasli menga, ikki jahonni na qilay?!

“Sig‘madim” radifli g‘azalida shoir ruhiy manzaralarining eng yuksak cho‘qqisi ifodalangan. U Tavhid holatining bayonidir. Olloh vasliga etgan, u bilan birlashgan lirik qaxramon bir lahzalik foniylik olamiga, o‘tkinchi olam uning ruhiy kengliklariga sig‘maydi. Bu sig‘maslikning cheksizlikning sababi “analhaqlik”dir:

Onqadar nurga to‘libman osmonga sig‘madim,
Toqi Arshu kursiyu lavhu jinonga sig‘madim.
Kimga soyam tushsa bir nuri yaqin bo‘ldi u ham
Daftari ruhi qudsdurman, zabonga sig‘madim.

Mashrab ilohiy ishq sarhadlarida zohidlar bilan kelisha olmaydi. CHunki unga zohid jannat ilinjida yurgan tamagir bo‘lib tuyuladi. SHuning uchun ham u zohidning riyo aralash namozini bir kosa may-Ishqqa almashmaydi:

Zohid, manga bir shishada may, senga namozing,

Ming taqvini bir kosai mayga sota qoldim.

Umuman, zohidlikni rad etish mumtoz adabiyotimizda an'ana. Buning mohiyatini ulug‘ Ozar shoiri Nasimiyning quyidagi bayti yanada oydinlashtiradi, deb o‘ylaymiz:

Zohidin bir barmag‘in kessen do‘nub Haqdan gachar,
Ko‘r, bu Miskin ashigi, sarpa so‘yarlar ag‘lamaz!

Mashrab tasavvuf g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi etuk mutafakkir, mutasavvuf shoir bo‘lishi bilan birga, oddiy insoniy kechinmalar kuychisi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida Vatan sog‘inchi, ona oldida qarzdorlik tuyg‘usidan iztiroblanish kabi kechinmalarning samimiy ifodasini ko‘ramiz.

Mashrab asarlari badiiyati ham o‘ziga xos. Uning g‘azallari kutilmagan xalqona ifodalar bilan sayqallanadi. Timsollar tizimining ham o‘z silsilasi mavjud.

SHoirning quyidagi baytini o‘qib, yuragingda hijronning za'far rangini his eta boshlaysan, kishi:

Sarig‘ sadbarg shirin so‘zluk yuzingni kunda bir ko‘rsam,
YUzungdin yuz o‘gurmasman agar yuz ming balo ko‘rsam.

Xalq orasida sariq gul hijron-ayriliq timsoli deyishadi. Demak, bu baytda "sariq sadbarg" - atirgul haqida gapirilishi tasodifiy emas.

Bu kabi yangicha qiyosu tashbihlarni, timsollar tizimini shoir she'riyatidan ko‘plab keltirish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Mashrab ijodi manbalari haqida ma'lumot bering.
2. SHoir she'riyatidagi timsollar haqida so‘zlang.
2. Mashrab adabiy merosiga doir qanday manbalarni bilasiz ?
3. SHoir ijodida ishq talqini xususida fikr bildiring.

Adabiyotlar:

1. Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. - T., 1991.
2. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. - T., 1999.
3. Qissai Mashrab. - T., 1992.
4. Normatova R. Mashrab she'riyati va xalq og‘zaki ijodi. Filol. fan.nom. ilm.daraj.olish uchun yozil. diss. –T. 2012.

4-mavzu. Xo`janazar Huvaydo ijodi

Reja:

1. **Shoirning tarjimai holiga oid ma`lumotlar.**
2. **Shoir ijodining o`rgalinishi haqida.**
3. **«Devoni Huvaydo».**
4. **«Rohati dil» dostonini falsafiy-tasavvufiy doston**.

XIX asrning 40-yillariga kelib ashtarxoniylarning so`nggi vakili Abulfayzxon zamonida Farg`ona ham ayrila boshladi. Ayniqsa, Buxoro hukumatiga uzoq vaqt muxolif bo`lgan ming urug`i vakillari Abulfayzxondan keyin kuchaya boshladilar. Nihoyat, «Oltin beshikxon» orqali boburiylar sulolasiga bog`lanuvchi Farg`ona davlati vujudga kelib, uning dastlabki hukumdorlaridan biri Shohruhxon 1710-16 yillarda podshohlik qilgan. Shohruh 40 yoshida vafot qilganidan so`ng uning o`rniga o`g`li Abdurahimbiy o`tirdi. U sohibqiron unvoniga erishgan podshohlardan, uning davrida Samarqand va Kattaqo`rg`on qo`lga kiritildi, biroq 1733 yilda u o`z ukasi Abdulkarimbiy tomonidan o`ldirildi va u o`n yilcha hukumdorlik qildi. Abdurahimbiy 54 yoshida vafot etgach,o`rniga Abdurahmon tahtga o`tiradi va u Erdonabiy tomonidan o`ldirilgandan so`ng
Erdonabiy hukumronligi 14 yil davom etadi. 42 yoshida vafot etgan Erdonabiy o`rniga Norbo`tabiy hukumronlik qildi, 1798-99 yilgacha uni hukumdorligi davom etadi. Bu davrda Andijon, Namangan, O`sh va boshqa hududlar Qo`qon honligi tasarrufiga o`tgan. Keyingi asrlarda Olimxon (1799-1811), Umarxon (1811-1822) Qo`qon xoni sifatida shuhrat qozonganlar. XUSh asrda mustaqillikka erishgan Farg`onada bir muncha madaniy hayot jonlana boshlagan. Adabiy muht kuchlanish davriga kirgan. Nafaqat xonlar saroyida, balki xalq orasida yashagan shoirlar ham talaygina. Bu haqda Fitrat:
«Bu davrda Farg`ona saroy adabiyotlarining xalq adabiyotiga ayricha diqqat qilg`anlari ham ko`riladir» Shu kabi fikrlarni akad. A.Qayumovning «Qo`qon adabiy muxiti» kitobida o`qiymiz. «XUSh asrda Qo`qonda xon saroyiga mutlaqo aloqasi bo`lmagan, butun qayotini xolq ichida o`tkazgan shoirlar ham bor edi. Ularning asarlarida xalq hayotining ayrim lavhalari o`z aksini topadi»

Shuningdek bu kitobda Farg`ona xududida yashagan shoirlardan Nizomiddin Xo`qandiy (vafoti 1710) va Akmal (vafoti 1810) taxallusli ijodkorlar haqida ma`lumot berilgan. Shu davr shoirlaridan Mirzo Ma`sum Kosoniy Shohruhbek vafotiga ta`rix yozadi:
Agar xohe xusuli soli favti Shohruh sulton Shovad ravshan zi naqdi
Shohruhbek bekamu nuqson. («Shohruhbek» so`zidan 1126, ya`ni 1716 sanasi chiqadi).

Tarjimasi: Agar Shohruh sultonning vafot etgan yilini topmoqchi bo`lsang, u (bekamu) nuqson Shohruhbekdan aniq bo`ladi.
Ushbu shoir Qo`qon xoni Abdulkarimbek vafotiga bag`ishlab, «Xayf az shahonshohi Abdulkarim»deb tarix ham yozgan edi. Shuningdek, shu asrda

yashagan Mirzo Sho`xiy, Nusrat kabi shoirlar saroy bilan yaqin aloqada bo`lganlari
tarixiy manbalardan ma`lum.
Huvaydo ijodi haqidagi ma`lumotlar bizgacha «Devoni Huvaydo» asarining qo`lyozmasi, «Bayozi Haziniy»da Huvaydo g`azallariga bog`langan taxmislar, «Tuhfatu-l-Obidin va unsu-l-oshiqin»bayozi orqali etib kelgan Huvaydo nafaqat Farg`onada, balki Buxoro va Xorazm adabiy muhitida ham mashhur bo`lib, Mujrim Obid (Buxoro), Ogahiy (Xorazm) kabi shoirlar uning ijodiga murojaat etib, asarlariga tatabbu va taxlis bitishgani ma`lum. Huvaydo ijodi uning avlodlari Hoji Saloxiddin va Mirza Hakim ibn Mirza Umid Marg`iloniylar tayyorlagan devonda to`la aks etgan bo`lsada, shoir asarlaridan namunalar 1961 yilda nashr qilindiva «Roxati dil» dostoni Istiqlol tufayli o`z kitobxonlariga qaytarildi
Xo`janazar G`oyibnazar o`g`li Huvaydo O`shda tug`ilgan bo`lib, uning vafoti Noseh va Mirxasan Sadoyi kabi shoirlarning tarixlarida 1195(1780) deb ko`rsatilgan. Huvaydoning otasi G`oyibnazar so`fi Qashgarda mashhur Ofiq Xo`ja eshonga muridlik qilgan, so`ngra Chimyonda xonadon qurdirib shayxlik qilgan. Huvaydo avlodlaridan Mavloviy Sirojiy, Samarbonu, Saloxiddin Soqib sohibi devon shoirlar bo`lgan. Huvaydoning she`riy asarlari «Devoni Huvaydo»da jamlangan bo`lib, uning ko`plab qo`lyozma va toshbosma nusxalari mavjud. Devonda 351 g`azal,28 ruboiy,41 to`rtlik(qit`a),3 muxammas, 3 masnaviy va bittadan musaddas, musammon va mustahzod kirgan. «Roxati dil»nomli diniy-tasavvufiy manzum dostoni ham «Devon»dan o`rin olgan. Huvaydo she`riyatining aksar qismi Ishqi ilohiy tavsifiga bag`ishlangan bo`lib, tabiiki, ularda Qur`oni karim hikmatlari, diniy mifologik qahramonlar talaygina. Xuvaydoning ayni ruxdagi asarlari keyinroq Haziniy, NizomiyHo`qondiy, Muxlis, Shovqiy Namangoniy asarlariga ko`chgan, bu shoirlar Huvaydo g`azallariga muxammaslar bitganlar. Shuningdek, Huvaydo she`rlarida o`z davrdan qolish, shikoyat motivlari ham o`rin olgan:

Kimga borib aytayin zolim folkidin dodni,
Uqmagay ahli zamona nolayu faryodni.

Yoki:

Huvaydo aytadur zolim falakning ilnidin ming dod,
Menga qolganda ul zolimni charxi najravon bo`ldi.

Huvaydo g`azallarida hikmatli iboralar, nazn kuzatishlar, go`zal san`at yaratgan misralar anchagina:

G`uncha ko`p og`zin ochkach bog`da qo`ymay uzdilar,
Og`zini ochmasligida bildi bog`bon qadrini.

Huvaydoning yengil, ohangdor va o`ynoqi misralari tabiiy ravishda boshqa shoirlar ijodiga ham singan. Masalan:

Arzimni aydim bodi saboga,
Yetkursa holim ul dilraboga.
Qilsa xudoyim ko`nglin muloyim,
Raxm aylagaymu man mubtaloga.

Baytlari Muqimiy va Hamza g`azallariga ham ko`chgan.
Huvaydoning:

Kabobi dudi bag`rimdin Xubon saxrosiga tushsa,
Ushaldi qadri mushkim deb kiyin bag`rida qon kuygay

baytlari ta`sirida Hamid Olimjonning «Kuygay» radifli g`azali yaratilgan. Shoirning

Shiddati ohim o`tidin gunbazi ahzoring kuyar,
Shamsu Kamer bila yana jumlai axtoring kuyar.
Chiqsa tanimni uchquni, tushsa jaxonni mulkina,
Vaxshu tuyuru devu jin, mo``minu kofiring kuyar.

kabi shiddati baytlari uning yurak alangasidan otilgan ishq o`tining parchalaridir. Huvaydo lirikasi an`anaviy sharq she`riyatining vazn va janr talablari asosida
yaratilsa-da, bu she`riyat shoir iste`dodi tufayli yaratilgan go`zal g`azal va ruboiylar evaziga boyidi, timsollar olami kengaydi,ruhiy axvoli chuqurlashdi. «Rohati dil» dostonini falsafiy-tasavvufiy ruhdagi asar bo`lishi bilan birga unda shoir tarjimayi holiga dahldor o`rinlar ham bor. Kitobning yozilish sabablari ham doston muqaddimasidan anglashiladi

Kitobimning otidur «Rohati dil»,
Erur har bir so`zi tanbehi gofil..
Duodin o`zga sizlarga so`zum yo`q
Bu dunyoda so`zum qolgay o`zum yo`q.
Kaminaning oti Xo`janazardur,
Otasining oti Goyibnazardur.
Nasabda Ravshaniy, mavludiy Chimyon,
Garibi xokisori dil parishon.
Ko`ngil shaxri yagona azm qildim,
Kitobim asar edi, man nazm qildim.
Bu Chimyon shahrining liyru javoni,
Tamomiysi erurlar turkiyxoni.
Alar garchi so`zega behunerroq
Dedim bo`lsa kitobim turkiy behroq.

«Roxati dil» dostonining asosiy g`oyasi komil inson shaxsini kamol topishda e`tiqod sofligi, iymon mustaxkamligini shakllantirishdur. Insonda iymon-e`tiqod yetakchi o`rin olishida shoir islom dining asosiy rukunlariga amal qilishlik lozim deb biladi. An`anaviy dostonlar kabi asar «Hallo-ul jaxonga hamd», «Na`ti Rasulilloh (SAV)», bilan boshlanib, so`ngra «Hikoyati tobuti Jabroyil alayxissalom»keladi. Hikoyatda aytilishicha, Jabroyil alayxissalom Muhammad Mustavoga bir tobut keltirib, bu o`lim belgisi ekanini aytadi. Shunda Payg`ambar o`lim xaqligiga iymon keltirish bilan birga men bu dunyodagi barcha g`aribqurobolar bilan birgaman.Ularni razolatga tashlab, o`zim arshi-a`loga keta olmayman, men ularga shafoat etishim, bu imtihon-dunyodin o`tishda xaq yo`lga yo`llashim kerak» mazmunida javob beradi: Dedi: - Yo Jibriyil, siz menga sirdosh

Bu tobutni olib borgil, ayo yor,
Xudoyim va`da qildi manga bisyor...
G`arib ko`ngli sinuq bechoralarni...
Bu isyon dashtida ovoralarni...
Nechun tashlab man alarni man ketayin.

Ushba hikoyat bayonidan so`ng , Abubakr Siddiq, Umar Foriq, Usmon Nuran, Hazrat Ali va uning o`g`illari Imom Hasan, Imom Husayn haqida qisqa bayonnomalar keltirib, ular hayotining barcha mo``minlarga ibratli bo`lganini eslatadi. So`ngra yuqorida zikr qilingan «Dar bayoni kitob» bobidan so`ng Qiyomat kuni barcha o`z gunohlari uchun mas`ul mazmunida ikki bob bayon qilinadi, so`ngra safarda uch qardosh «nafsi shaytoniy»ga bo`lib xalok bo`lganlari haqida maxsus hikoya aytiladi.
Doston shu kabi diniy rivoyat va hikoyatlar majmuasidangina iborat emas, balki unda soflik, halollik va insoniylikni tarannum etgan qismlar talaygina.
Dostonning ta`limiy ahamiyati shundaki, u poklikka rahna soluvchi, insonni to`g`ri yo`ldan ozdiruvchi barcha harom-zararli jihatlarni birma-bir sanaydi. Bunda «chog`ir ichmakning zarari», g`iybatchi, yolg`onchi, zinogar kimsalarning qilmishi qattiq qoralanadi. Dostondagi ayni boblarda ezgu sifatlar qabih holatlarga qarshi qo`yilib «Hikoyati mardi foniy», «Hikoyati ilmi tolib» kabi boblar keltirilgan. Doston tarkibida ancha mufassal bayon qilingan hikoyatlardan biri «Qissayi Ibrohim binni Adham»dir. Huvaydo bayonida bu qissa an`anaviy «Qissayi Ibrohim Adham»dan biroz farq qiladi. Asosiy syujet Ibrohim binni Adham voqealarini hikoya qilsa-da, Huvaydo Adham ismli cho`pon, uningqabrda tirilgan shohqizini ozod qilib, unga uylanishi, keyin esa Adhamning sulton bo`lishi, nihoyat, mashhur voqea - tevachining o`z tuyasini shohga qarashli tomlardan izlashi va u shohlikni tashlab ketishi voqealari bayon qilinadi. Adhamning o`g`li Ibrohim otasining daragini izlab ketishi, uni Makkada topib, o`shal on vafot etgani va Adham umrini g`ariblikda kechirgani bayon qilingan. Shoir Adham qismati asarda shunday xulosalanadi:

Muhammad ummatisiz bandayi xos,
Manim so`zimga emdi aylang ixlos.
Manim yig`lag`anim o`g`limga ermas,
Kishi g`am chekmaguncha g`amni bilmas.
G`ariblik uchun ko`nglim to`ladir,
Aning holiga rahmim ko`p keladir.
Dedi har kim g`aribliq birla bo`lsa,
G`ariblarga kishi ko`z yoshi qilsa,
Payg`ambarning g`aribligin qilib yod,
Xudo qilg`ay ani do`zahdin ozod...
Umid uzdimki shohlikdin ilohim,
Zanu farzand etim qildim ilohim.
Agar ming pora qilsalar bu yo`lda,
Qachon sandin ko`nglum uzgum ilohim.
Qobis tog`ing borib ul zamonda,

Necha yillar ibodat qildi onda.
Ki bir kun bordi shohi oliyhimmat,
Bu doriy bebinodin qildi rihlat.

Dostondagi boshqa hikoyatlardan farqli ravishda ushbu qissa ichida Huvaydo nomidan olti g`azal keltirilgan. Ularning dastlabki to`rttasi qahramon holini bayon qiluvchi, yoki uni boshqalarga aytgan so`zlarini ifoda qiluvchi baytlardir. So`nggi ikki g`azal ham shoirning qissadan chiqarilgan hissasi bo`lgani uchun g`azal maqta`ida shoir tahallusi keltirilgan:

G`ofil ersang qil ibodat berma dunyoga ko`ngil,
Berdi dunyoga ko`ngilni ahlikim ko`tohlar.
Dunyo hasratxona erur, ey Huvaydo dunyodin,
Hasrat ila o`tdilar ming - minglabo xamroxlar.

«Roxati dil» dostoni «Munojot ba jonibi qoziyu-l-xojat» (birga xojatlarning qozisi Alloxga iltijo) bilan yakunlangan:

Xoliqo, jabr ayladim o`z jonima,
Qo’ymadim toat ta`omin xonima...
Na balo kelsa o`zingdan roziman,
Munda g`amgin ondja beg`am aylagil.
Bu Huvaydoyi g`aribning xolini,
Qilmag`il san nafsi bodga mubtalo.

«Roxati dil» asarining asosiy yo`nalishi islom dinining tarixiga murojaat etish orqali o`quvchining ma`naviyatini boyitishga qaratilgan. Dostonda garchi insonning falsafiy dunyoqarashi, yaratuvchiga bo`lgan muhabbat kuylangan bo`lsa-da, sho`rolar davrida nashr qilinmay keldi. Xo`janazar Huvaydoning nafaqat bu dostoniga, balki uning ijodini tadqiq qilishga rag`bat ham asosan Istiqlol davrida amalga oshirildi. Zero, dostonning nashrlaridan biri prof. Saidbek Xaan yozadi: «Huvaydo har bir hikoyatning mazmuni va bosh qahramoni qiyofasini badiiy ifodada ochib berishgan ekan, o`ziga xos uslub, yuksak badiiylik, tilning ravonligi, she`rning o`ynoqligini rang - barang bo`yoqlar orqali ochib beradi.

Dostondagi har bir misra o`quvchini to`lqinlantiradi. Undagi chuqur mazmunni idrok etishga chorlaydi»

Xo`janazar Xuvaydo o`zining betakror ijod yo`li bilan inson ma`naviyatini boyitishga, qalbning rangini olamlari tasviri orqali badiyatga o`quvchini hurmat ruxida tarbiyalashga xizmat qiladi.

5, 6 - mavzular. Qo‘qon adabiy muhiti. Amiriy hayoti va ijodi

Reja:

1. XVI –XIX asrlar Qo‘qon xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli.
2. XVI –XIX asrlar Qo‘qon xonligidagi adabiy va madaniy hayot.
3. Amiriy va Qo‘qon adabiy muhiti.
4. Qo‘qon xonligida san’at va hunarmanchilik haqida.

XVI –XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo xonliklarining xalq talimi, fan va ma’daniyati haqida gap borganda shuni alohida takidlash kerakki, ijtimoiy siyosiy hayotning hamma sohalarida birinchi navbatda madaniyat va mafkurada islom dini g‘oyasi markaziy o‘rinni egallar edi. O‘z boshlang‘ich nuqtasini X-XII asrlardan e’tiboran olgan sofiylik tariqati naqshbandlik g‘oyasi bilan uyg‘unlik negizida XV asrga kelib eng yuksak cho‘qqiga ko‘tariladi, to XX asrdagi siyosiy to‘lqin va lahzalar davriga qadar jamiyat taraqqiyotining borishida jiddiy rol o‘ynaydi.[9]

XVI –XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyodagi har uchala amirlik va xonliklarning madaniy taraqqiyotiga xos bo‘lgan umumiy o‘xshashliklar diqqatga loyiqdir. Bu o‘xshashliklarning sabablari ham bir-biriga juda o‘xshashdirlar.

Birinchidan, O‘rta Osiyo hududi davlatlari XV asrlarda madaniy taraqqiyotda dunyoda eng etakchi o‘rinlarda turgan bo‘lsa, XVI-XVII asrlardan boshlab bu hududda tushkunlik boshlanadi. Ikkinchidan, har uchala davlat birliklari o‘zlari alohida mustaqil faoliyat ko‘rsatsalarda davlat idora ishlari o‘zbek va fors tilida olib borilardi. Buxoroda fors, Qo‘qonda fors-o‘zbek, Xivada o‘zbek tili rasman davlat tili hisoblanardi.

Uchinchidan, an’anaga ko‘ra fanda, adabiyot va maktabda arab va fors tilining obro‘si saqlanib qolgandi.

Buxoro amirligi Qo‘qon va Xiva xonliklarida xalq ta’limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo‘lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qo‘riqxonalar mavjud edi.

Madrasalar musulmonlar uchun oliy o‘quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda tashkil etilgan. Xonlar o‘rtasida esa Xonzoda va zodagonlarniong bolalarini o‘qitish uchun maxsus maktab bor edi.

Odatda maktablarda asosan o‘qish va yozish arifmetika va adabiyot o‘qitilar edi. Qo‘riqxonalarda esa asosan ko‘zi ojizlar o‘qib, hunar, doston va she’rlaru g‘azallar yodlash edilar.

Maktablar qizlar uchun alohida, o‘g‘il bolalar uchun alohida bo‘lgan. Masalan, mashhur shoira Dilshoda Qo‘qonda maktab ochgan. U o‘zining maktabdorlik faoliyati haqida bunday deb yozgan edi: “Mening suhbatdoshlarim va dugonalarim aqlli qizlar va iste’dodli shoiralar edi. Ellik bir yil davomida men maktabdorlik qildim va yilda o‘rtacha 20 tadan 30tagacha o‘quvchilarim bo‘lib, sakkiz yuz to‘qsonta qizlarning savodini chiqardim, bulardan deyarli chorak

[9] R.Shamsuddinov, va boshq. Vatan tarixi -T., Sharq. 2010. 119-bet.

qismi, she'riyatga qobiliyatli bo'lib, shoira va o'z davrining aqilli va dono odamlari edi.

Qo'qon shahrida boshqa shaharlarga nisbatan ko'proq maktablar bo'lgan. SHuning uchun savodlilar ko'p bo'lib, o'qish va yozishga usta bo'lganlar. 1841-yilgi ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qon shahridagi xonning asosiy madrasasida 1000 ta mulla o'qigan. Bu madrasani ikkita bosh muzarrix boshqargan: Eshon Mavloniy va Maxzumi Buxoriy.bu hurmatli insonlar bo'lib katta ilmga ega edilar.

Har bir maktabdor domlaning ham o'zicha o'qitish usullar bo'lgan. Ularning bazilari bolalarning yosh xususiyatlariga alohida e'tibor bergan holda kichik yoshdagi o'quvchilarga husnixat va og'zaki hisobni o'rgatsa, katta yoshdagi o'quvchilarga esa Quronning oyat va suralaridan tashqari fors, arab, turkiy tillarda yozilgan o'nlab hayotiy kitoblarni ham o'qishni o'rgatar edi.

O'zbekiston hududidagi xonliklar va amirliklar davrida fan, adabiyot, san'at birmuncha rivojlangan. Ko'proq xon saroylari doirasida ham diniy, ham dunyoviy adabiy asarlar yozilgan.[10] Tarixshunoslik ham ancha rivojlangan. Garchi bu davrdagi tarixchi olimlar yozgan tarix kitoblar ko'pincha o'sha xonlik va amirliklardagi siyosiy voqealar salnomasiga aylanib qolgan bo'lsa ham biz uchun bugungu kunda o'sha davrni yoritishda muhim ahamiyatga molikdir.

Adabiyot sohasida juda ko'plab shoir va shoiralar ijod etadilar. Qo'qon xoni Umarxonning o'zi "Amiriy" taxallusi bilan o'zbek tilida go'zal g'azallar yozgan.

O'tgan sulolalar kabi mang'itlar, qo'ng'irotlar minglardan chiqqan namoyondalar ham o'z davri va doiralarining o'qimishli shaxslari bo'lganlar. Masalann Qo'qon xoni Umarning "Amiriy", Malika Mohlaroyning "Nodira" , "Komila", "Maknuna", Xiva xoni Muxammad Raximxon II "Feruz", uning akasi Otajon To'ra Murod "Murodiy" taxallusida she'r bitganlarini, Abdulg'oziy Bahodirxonning "SHajarai Turk", "SHajarai Tarokima" kabi o'zbek tilida yozgan asarlarini shu o'rinda eslash joiz.

Fazliy, Mushrif, G'oziy, Afsus, Sodiq, Hijolat, Hoziq, Xotif, Maxmur, Gulxaniy kabi etuk qalam sohiblari Farg'ona vodiysida yashab ijod qilganlar.

SHuningdek, "Afzal at-Tavorix", "Tarixi Umarxon", "Risolai Askariya", "Muntaxab at-tavorix", "Tarixi SHohruhiy", "Tarixi Jahonamoy", "Xulosat al axbor", " Tasnifi g'arib", "Tarixi jadidai Tashkand" kabi boshqa ko'plab tarixiy asarlar ham huddi shu davrda Qo'qon xonligi doirasida yozilgan.

Bu davrda ijod etgan Fazliy Namanganiy Mushrif, Mushfiqiy kabi shoirlar o'z zamonasining zabardast siymolari edilar. Masalan: Mushfiqiy Buxoro amiri Abdulloxon saroyida " Malik ush-shuaro" unvoniga ega bo'lgan bo'lsa Fazliy Namanganiy Qo'qon shoirlariga boshchilik qilgan. Umarxonning topshirig'i bilan Fazliy va Mushrif tomonidan " Majmuat-ush shuaro" to'plami tuzildi.

XIX asrdagi o'zbek va tojik adabiyoti tarixida salmoqli o'ringa ega bo'lgan, ammo ijodi etarli darajada o'rganilmagan shoir va tabib Hoziqdir. O'zbekiston sharqshunoslik institutida Muhammad Husayn bilg'oriy tomonidan tuzilgan "Marsad ut-tasonif" nomli (to'plamlarni o'rganish joyi) antalogiyada

[10] Sh.Karimov. O`zbekiston tarixi va madaniyati T. "O`qituvchi" 1992, 119-bet.

O‘rta Osiyo va Eron shoirlaridan katta bir guruhining shu jumladan Hoziqning ham o‘zbek va tojik tillarida yozilgan 354 misra she’ri bor.[11] Bundan tashqari Hoziqning bir necha g‘azal va qasidalari 1820- 21 yillarda Namanganlik shoir Fazliy tomonidan Qo‘qonda tuzilgan “ Majmuat ush – shuaro” (shoirlar anjumani) qo‘lyozma asarida ham uchraydi. Uning o‘zbek va tojik tillarida yozilgan shiorlaridan tuzilgan to‘plam Rossiya FAning Sankt Peturburgdagi sharqshunoslik institutining bo‘limida № 470- sonli hujjatda saqlanadi. [12]

O‘zbek milliy madaniyati markazlaridan biri shubhasiz bu Qo‘qon shahri edi. Bu erda XVIII-XIX asrning birinchi yarmida ilm marifat olamida nomi dunyoga mashhur bo‘lgan ulug‘ va mutafakir shoirlar etishib chiqadi. Xususan, XIX asrda Qo‘qon xoni Umarxon (1810-1822) va uning umr yo’ldoshi shoira Nodiraning say harakati tufayli Qo‘qon shahri ilm marifat adabiy muhiti paydo bo‘ladi.

Umarxon, Amir Umarxon, Amiriy (1787— Qo‘qon — 1822) — Qo‘qon xoni (1810—1822), zullisonayn shoir. Norbo‘tabiyning o‘g‘li. O‘zbeklarning ming urug‘idan. Boshlang‘ich savodini oilada chikarib, keyin madrasada tahsil olgan. Yoshligidan saroy xizmatiga jalb qilingan: akasi — Qo‘qon xoni Olimxonnnng davlatni boshqarish ishlarida faol ishtirok etgan. Olimxon 1807—08 yillarda unga Farg‘ona hokimligini topshirgan. Shu yillarda u Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim (Nodira)ga uylangan.

Hokim tabaqalar Olimxonning Toshkentda ko‘tarilgan g‘alayonni bostirish uchun qo‘shin tortganligidan foydalanib, fitna uyushtiradilar va 1810 yil Umarxonni xon qilib ko‘taradilar, Olimxon esa o‘ldiriladi. Umarxon Qo‘qon xonligi hududini kengaytirish, hokimiyatni mustahkamlash siyosatini olib boradi. Buxoro amiriga qarashli Turkiston shahri (1815), O‘ratepani (1817) bosib olgan. Sirdaryo bo‘yidagi yerlarda Yangiqo‘rg‘on, Julek, Qamishqo‘rg‘on, Oqmachit, Qo‘shqo‘rg‘on nomli harbiy istehkomlar qurdirgan. Ular O‘rta Osiyoni Rossiya bilan bog‘laydigan muhim savdo yo‘lida joylashgan edi. U Rossiya bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatishga harakat qilgan.

Umarxon davrida Qo‘qon, Toshkent, Turkiston, Chimkent, Sayram, Avliyootada masjid va madrasalar qurilib, qabristonlar tartibga keltirilgan. Shahrixon shaharchasi barpo etilgan, yangi qishloqlar vujudga kelgan. Xon amaldorlarining talonchilik siyosatiga qarshi Chimkent va Sayramda ko‘tarilgan qo‘zg‘olon bostirilgan. 19-asrning 1-yarmida Qo‘qonda o‘ziga xos ilmiy-madaniy muhit vujudga kelgan — uning boshida turgan ma’rifatparvar hukmdor Umarxon ilm, madaniyat, san’at, adabiyot, turli kasb-hunarlarning rivojiga katta e’tibor bergan, madrasalarda o‘qisho‘qitish ishlarini yaxshilagan, turli hunar maktablari ochilishini qo‘llab-quvvatlagan. O‘zi ham Amiriy taxallusi bilan she’rlar yozgan. Uning atrofida 70 dan ortiq shoir yig‘ilgan. 1821 yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriga binoan, 63 shoirning she’rini o‘z ichiga olgan «Majmuai shoiron» to‘plamini tuzgan. Uni ulug‘lab qasidalar yozish, g‘azallariga tatabbu’lar bog‘lash bu shoirlar ijodida yetakchi o‘rin tutgan.

---

[11] Sh.Karimov O`. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T. Sharq 2010 132-b.
[12] R.Shamsiddinov, Sh Karimov O` Ubaydullayev Vatan tarixi T. Sharq 2010. 132-b.

Umarxon Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bedilni o‘ziga ustoz sanab, ulardan ijod sirlarini o‘rgangan, ularga ergashib ijod qilgan, g‘azallariga muxammaslar bog‘lagan. Aruzning turkiy adabiyotda mashhur, xalq ijodida ham keng tarqalgan yengil va o‘ynoqi vaznlaridagina yozilgan bu she’rlarning barchasi ishqu muhabbat mavzuida. Ularda an’anaviy motivlar va tasavvufiy ruh ustun. O‘zbek va fors-tojik tilidagi she’rlarini to‘plab, devon tartib bergan. Devon g‘azal, muxammas, musaddas, tuyuq janrlaridagi 10 ming misradan ortiq she’rni o‘z ichiga olgan.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyining matnshunoslik va yozma yodgorliklarni nashr etish bo‘limining ilmiy xodimlari tomonidan Umarxonning turli davrlarda ko‘chirilgan 26 ta qo‘lyozma devoni hisobga olinib, ularning ilmiy tavsifi berilgan. Bu qo‘lyozmalar Sankt-Peterburg, Toshkent, Samarqand va Buxoro kutubxonalarida saqlanadi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida Umarxonning 17 ta qo‘lyozma devoni mavjud. Bundan tashqari, litografik usulda chop etilgan devonlari va shoir she’rlaridan namunalar berilgan bayozlar bor.

San’at

O‘rta Osiyodagi xonliklarda XVIII-XIX asrlarda xo‘jalik tushkunlikka yuz tutib borayotgan va aholi turmushi tobora tubanlashayotgan bo‘lsada san’at va me’morchilik taraqqiyotida bir qator ibratli ishlarning amalga oshirilganligiga guvoh bo‘lamiz.

YUqorida biz alohida ta’kidlagan mashhur shoira Nodira haqida uning zamondoshi, saroy shoiri Hojar shunday deydi: “Umarxon vafotidan so‘ng bu iffat sadafining injusi Farg‘ona, Toshkent, Xo‘jand, Andijon va boshqa shaharlarda fozillar, olimlar, hattotlar, naqqoshlarni o‘z hizmatiga chaqirtirib keldi”.

Bu davrda qurilgan ulkan va go‘zal me’morchilik yodgorliklari hozirgi kunda ham har qanday kishining diqqat e’tiborini o‘ziga tortadi.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonligida ham xalq me’morchiligi rivojlanadi. Xonlikning markazi Qo‘qon shahrida, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Toshkent shaharlarida masjid, madrasalar, kutubxonalar quriladi. Binolarni bezatish uchun ham gul namunalari keng qo‘llanilib naqshlar chizish, naqshlarni ganchga o‘yib solish odat bo‘ladi. O‘sha davrda ham uchala xonlikda ham yuqoridagidek inshoat qurilishi va hunarmandchilik san’atining turli yo’nalishlari rivoj topadi. Bulardan tashqari yog‘och va misga o‘yib nozik naqshlar solish, sopol va chinni yarog‘-aslahalar yasash va har xil uy-ro‘zg‘or buyumlari matolar to‘qish keng tarqaladi. [13]

Qo‘qon shahri o‘ziga xos yodgorliklari bilan ham mashhurdir. Bu borada Qo‘qon shu kunga qadar saqlanib qolgan tarixiy me’morchilik yodgorliklari bilan Samarqand, Xiva, Buxorodan keyin to‘rtinchi o‘rinda turadi.

Bu borada xususan Xudoyorxon o‘rdasi Norbo‘tabiy madrasasi, Kamol madrasasi qozi kabi boshqa o‘nlab tarixiy obidalar diqqatga loyiqdir.

[13] R.Shamsiddinov, Sh Karimov, O`. Ubaydullayev. Vatan tarixi. T. Sharq. 2003, 143-144-b.

Ko‘plab tarixiy me’moriy yodgorliklar urush ob-havo va er qimirlashlari-zilzilalar tufayli buzilib vayronaga aylanadi, yoki yo’q bo‘lib ketadi. Jumladan, 1815-yilda Qo‘qon shaxrida yuz bergan zilzila oqibatida juda ko‘plab odamlar uylar tagida qolib, halok bo‘ldilar. Ayrim joylarda erlar yorilib ketadi.

Bir necha kishilar unga tushib halok bo‘ladi. Erdan tutun chiqib suv favvora bo‘lib otilgan. Er olti oy davomida silkinib turgan.

Teatr san’atida masqarabozlik, qiziqchilik, dorbozlik, qo‘g‘irchoqbozlik kabi tomosha ko‘rinishlari keng tarqaldi. Masalan, Buxoro amirligining turli shaharlarida XVIII-XIX asrlarida Sayfulla Masxara, Zokir Masxara, Ergash Masxara kabi artistlar “Rais”, “Sudxo‘rning o‘limi”, “Ko‘histonlik domla”, “Murobboshi” singari asarlarini sahnalarda mohirlik bilan ijro etganlar.

XIX asrda qo‘g‘irchoq teatrining SHosalix, G‘ofur, Halfarang (Qo‘qon), Orifjon qo‘g‘irchoqboz, Azimburin, Doniyor (Toshkent), SHomuxuddin SHoazimov, Tursinboy Abduljabborov, (Marg‘ilon), Siddiqkalon, Jo‘raqaynoq qo‘g‘irchaqboz (Samarqand) Zarikmisgar, SHarif sayyoh, Qori Xoji, (Buxoro), Qilich (SHahrisabz) va boshqa shular singari ustalar bo‘lgan. Xonliklar hududida raqs san’atining Farg‘ona, Buxoro, Xorazm va tog‘li usullari mavjud bo‘lib, o‘z navbatida ularning har biri o‘ziga xos jang xususiyati va turlariga ega edi. Masalan: Farg‘ona o‘yin san’ati “Katta o‘yin”, “Kema o‘yin”, “Xonaki o‘yin”, “YAlla”, Xorazm o‘yin san’ati “Maqom oyin”, “Xonaki o‘yin”, “Lazgi”, “YAlla”, “Zangbozi” larni o‘z ichiga olgan va hokazo. “107-o‘yin” ko‘proq O‘zbekiston hududidagi janub xalqlari madaniyatiga xos bo‘lib “Beshqarsak”, “Uchqarsak”, “Dastbozi” kabi usullardan iborat edi.

Me’morchilik va hunarmanchilikning ravnaqi. Xalq amaliy san’ati

Qo‘qon xonligi me’morchiligining o‘ziga xos tomonlarini ko‘rib chiqqan ekanmiz, bu mintaqaning qadim zamonlardan boshlab taraqqiy etgan madaniy maskanlardan biri bo‘lganligini va teran me’morchilik hamda shahasrsozlik tarixiga ega ekanligini ta’kidlab o‘tmoq lozimdir. Qo‘qon xonligining shaharsozlik madaniyati mil.avv. II-I ming yilliklarga borib taqaladi. Jumladan, Elaton, Buzilmas, Olis Iskandariya (Aleksandriya, Esxata) Oqtepa Qultepa Munchoqtepa Mug‘ qal’a, Ershi singari 2-3 ming yillik tarixni o‘zida mujassamlashtirgan shahar xarobalarining qazib o‘rganilganligi bundan dalolat berib turibdi.[14] SHuningdek, Hoson, Quva, O‘zgan, Axsi shaharlari o‘rta asr tarixiy manbalarida ko‘p o‘rinlarda tilga olinadi.

Ilk o‘rta asrlar Farg‘onaning yuksak madaniyati haqida Xitoy tarixiy manbalarida ma’lumotlar saqlangan. Temuriylar davriga kelib esa Umar SHayx hamda Bobur Mirzo tomonidan barpo etilgan shaharlar tafsiloti shoh asar ‘Boburnoma” da keng yaratilgan.

Demak, Qo‘qon xonligi me’morchiligi butun O‘rta Osiyo me’morchilik an’analarini o‘ziga sindirish bilan birga qadimiy Farg‘ona vodiysiga xos mahaliy madaniyat asosida yuzaga kelgan, shu sababli XVIII asr Qo‘qon xonligi

[14] M.G. Ahmedov. O`rta Osiyo me`morchiligi tarixi. T. “O`zbekiston” 1995, 84-b

shaharlari asosan o‘rta asrlarga oid feodal shaharlarga xos ko‘rinishni ifoda etgan. SHaharlar ark va SHahristondan iborat bo‘lgan. SHahriston markazlarida, ko‘chalar kesishgan joy chorsuda odatdagicha bozor joylashgan. Bu ikki asosiy ko‘chaning kesishishi natijasida shahar to‘rt dahaga bo‘lningan. Dahalar esa o‘z navbatida bir necha mahalla va go‘zarlardan shakillangan.

Xalq amaliy san’ati

Hunarmanchilik – o‘zbek xonliklaridahunarmandchiliksanoati o‘z davriga yarasha ancha taraqqiy etgan edi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotida to‘qimachilik (ipak) muhim ahamiyatga ega edi. Bu hunar egalari paxta, ipak, jundan turli narsalar to‘qishgan. Ipak egirishdan oldin paxtani chig‘iriqdan o‘tkazilgan. YA’ni chigiti ajratib olingan. CHigiti ajratib olingan paxta tolasi charxdan egirilib kalava qilingan va tayyor ipni to‘qish do‘konlariga jo‘natilar edi. Bo‘z to‘qish keng avj olgan. SHahrisabz, Buxoro bo‘zlari muhim o‘rinni ishg‘ol qilardi. Namangan, Andijon to‘qimachilari to‘qigan olacha, qalami, bo‘z, chit, dokalari yaxshi sifati va bo‘yoqlari bilan ajralib turar edi. Buxoroda sifati baland ikki xil chit, ya’ni chiti sari gaz va chiti chatti to‘qilgan. Bu chitlar nafaqat ichki bozorlarda hatto qo‘shni mamlakatlarda, Rossiyaga ham chiqarilar edi. Ipak mollar tayorlashga ham katta e’tibor berilgan. Xo‘jand Andijon, Namangan va boshqa joylarda ipak kiyimlar to‘qish ishlari avj olgan. XIX asr o‘rtalarida o‘lkada atlas, shoyi doroyi, oq shoyi, adras, beqasam, banoras gul bosilgan choyshablar va shunga o‘xshash ko‘p narsalar to‘qilar edi.

Savol va topshiriqlar:

1. Adabiy muhitlar haqida fikr bildiring.
2. XVI-XIX asr boshlarida Qo‘qon xonligidagi qanday sohalar rivoj topdi?
3. XVI-XIX asr boshlarida Qo‘qon xonligidagi kimlar ijod qildi?
4. XVI-XIX asr boshlarida Qo‘qon xonligida qanday asarlar yozilgan?

Adabiyotlar:

1. Ahmedov M.G. O`rta Osiyo me`morchiligi tarixi. T. “O`zbekiston” 1995.
0. *Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O’quv qo’llanma. – T.: O‘zYU Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.*
1. *Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2006. j*

7-mavzu. Gulxaniyning ijodiy merosi

Reja:

1. **Gulxaniy hayoti va ijodiy faoliyati**
2. **Shoir lirikasi**
3. **«Zarbulmasal» asari**
4. **«Zarbulmasal»da timsollar.**

Gulxaniy XVIII asr oxiri va asrning birinchi yarmidagi o`zbek adabiyotining demokratik yo`nalishiga mansub vakillaridan biri bo`lib, u o`z ijodiy faoliyatida hajv va masal janrini yangi bosqichga ko`targan shoir va masalnavisdir.

Gulxaniyning bizgacha yetib kelgan adabiy merosidan ma`lum bo`lishicha, u o`zbek, fors-tojik klassiklari asarlarini qunt bilan o`rgangan; ozorbayjon adabiyotiga ishtiyoq qo`ygan, hind adabiyotining o`lmas durdonalaridan hisoblangan «Kamila va Dimna»ni mutolaa qilgan.

Biografiyasiga Gulxaniy hayotining tafsiloti doir ba`zi keyingi vaqtlarga qadar ravshan emas ma`lumotlar edi. Lekin adabiyotshunoslarimiz tamonidan olib borilgan tadqiqotlar bu sohani ancha oydinlashtirmoqda. Fozliy Namangoniyning «Majmuai shoiron», Qori Rahmatullo Vozeh Buxoriyning «Tuhfat ul ahbob fi tazkirot-ul ashob» antologiyalarida Gulxaniy haqida ba`zi ma`lumotlar berilgan bo`lib, ulardan shoir hayotining ba`zi bir tamonlarini, uning ijodi feodal-klerikal saroy adabiyoti vakillari bilan kurashda o`sganini, uning so`z san`atida jiddiy imtihondan o`tganini ko`rsatadi. Gulxaniyning tug`ilgan yili noma`lumdir. Fazliy Namangoniyning Gulxaniy haqidagi ma`lumoti, shoirning tojikcha g`azallarining til va xususiyatlari, uning g`armlik bo`lganligidan dalolat beradi. Fazliy o`z tazkirasida uning «Kuhiston mulkidan» ekanligini ta`kidlab, quyidagilarni yozadi:

Buvad Gulxani shoiri ko`hsor,
Asosi suhanxon o` bemador.
G`azalho navshta latifu ravon,
Ba dasturi alfozi ko`histon.

(Gulxaniy tog`lik shoirlardandur, uning so`zlarining asosi bo`shdir. Latif va ravon g`azallar bitgan, bu g`azallar tog`liklar tili uslubidadir).

Ammo boshqa tazkiralarning mualliflari uni goh Namangandan, goh Qo`qondan chiqqan deb talqin qiladilar. Qori Rahmatullo Vozeh o`z tazkirasida Gulxaniyning ismi Mullo Muhammad Sharif bo`lib, asli namanganlik ekanini,Umarjonning saroy shoirlaridan bo`lganini o`qtiradi. Shuningdek, tazkira muallifi uning dastlab hammomdorlik ishlariga munosabati bo`lgani uchun Gulxaniy taxallusini qabul qilganligini eslatadi va uning shoirlik iste`dodiga baho berib, «she`rlari vazn jihatidan ravon va o`z tengdosh-zamondoshlari tomonidan yug`ori baholangan» deb qayd etadi.

Muhammad Sharif Gulxoniy XVIII asrning 70-yillarida dunyoga kelgan, deb taxmin qilinadi. Fazliyning xabar berishicha, uning ota-bobalari tog` aholisining e`tiborli kishilaridan bo`lgan. Muhammad Sharif o`z ilmini

oshirish niyatida Qo`qon xonligiga qarashli Namangan shahriga kelib, kishilar yumushini bajarib yuradi. Muhammad Sharifning og`ir turmush sharoiti uning Farg`onaga kelishini ham taqozo qildi desak, xato qilmasmiz. Chunki tog`lik tojik aholisining hunarmandchiligi va savdo sotiq ishlari birmuncha rivojlangan shaharlarga kelishi, shu asosda g`ariblik ko`rinishidagi ko`pgina ruboiylar, to`rtliklarning paydo bo`lishi ham buni yaqqol isbotlaydi.

Bungacha yetib kelgan ma`lumotlarda Olimxon saltanati davrida navkar olish e`lon qilingan bir paytlarda Gulxaniyning o`z istagi bilan sipohiylikka kirgani aytiladi. Jumladan, Fazliy bir o`rinda Gulxaniyning xon navkorlaridan ekaniga ochiq ishora qilib, uni sipohiy sifatida tasvirlaydi va o`z ishiga mohirligini o`qtiradi. Ammo Muhammad Sharif usullarda faol qatnashib, botirlik namunasini ko`rsatgan bo`lsa ham, u qoshiqlikda kun kechirdi, qorni nonga to`ymadi. Urush ma`rakalarida ko`rsatgan qahramonliklari xon tomonidan taqdirlanmadi. Umarxon davridagi Qo`qon muhiti qatnashchilarining ma`lum ma`nodagi tarjimai holi Fazliyning yuqoridagi so`zlariga shubhalanmasa ham bo`ladi. Shuni aytish kerakki, Fazliy bu so`zlarinitasdiqlash, uning real zaminga asoslanganini ko`rsatish maqsadida shoir ijodiga murojaat qiladi va «g`araz soxt dar surati holi xesh, chunin guft dar arzi ahvoli xesh» deya Gulxaniyning navkarlik davridagi ayanchli ahvolini ko`rsatuvchi avtobiografik xarakateridagi «bideh» (bergil-ber menga) radifli g`azalini keltiradi:

Hazratim ochlikdan o`ldim, egani non ber menga,
Kofir o`lg`ayman agar desamki, bahmon ber menga.
Moshu bug`doyu guruch berkim, shular menga kerak,
Hech aytmaslik aqiqu la`lu marjon ber menga.
Engima yopiq berib, qornimni to`yg`iz, non bilan,
Senga billohkim demasman dinu imon ber menga.
Navkoring ochlikdan o`lsa, nega hayfing kelmagay,
Ey tabibi hoziqim, doruyu darmon ber menga.
Nonu to`n ber benaolik dardidin qutqor meni,
Men qachon aytdimki, Qorun ganjidek kon ber menga.
Gulxaniyni er yigitlar to`pidan kamsitmagil,
Fo`ta ber, ot ber, qilich ber, to`nu chakmon ber menga.

(Muinzoda tarjimasi)

Bu she`r Gulxaniyning bizgacha kelgan g`azallarining kattasi bo`lib, 9 baytdan iboratdir. Shoir ana shu g`azalda sipohiylik vaqtlaridagi kayfiyatlarini, og`ir turmush sharoitini ifodalaydi. G`azal matlai och qolgan kishining o`z xo`jayinidan non so`rashi bilan boshlanib, lirik qahramon-navkarning qalb alamlari so`nggi betlarda izchil ichila boradi. Lirik qahramon ochlik qoshshohlik hukm surgan davrda qimmatbaho toshlarning, dur va oltinlarning ahamiyati yo`q, och kishi uchun mosh, bug`doy va guruch hamma narsada keraklidir, demoqchi. Bu g`azalga chuqurroq nazar tishlansa, unda faqat yakka, ochlikdan tinkasi qurigan ayrim shaxs haqida gapirilmay, balki katta ijtimoiy muammo haqida amir Olimxonning navkarlik rejimi haqida fikr yuritilayotgani ma`lum bo`ladi. G`azalda qahramonning timsoli umulashma timsol darajasigacha ko`tarilgan, chunki Olimjon navkarlaridan faqat Gulxoniy

xon iltifotiga sazovor bo`lolmadi, deganqarorga kelish yanglishdir. Demak dirik qahramon navkar o`z boshidan kechirganlarini bayon qilish asosida Olimjonning navkarlariga muruvvatsizligini va qo`lindagi tartibsizlikni fosh qiladi. O`z haquqini yoqlash bilan boshqa navkarlarni ham ana shunday ish ko`rishga da`vat etadi. G`azalning maqtai (oxirgi bayti) ham xarakterlidir.Unda lirik qahramonning o`z hazratida uni «er yigitlar qatoridan kamsitmaslik» haqidagi istagi ifodalanadi.

She`rni ma`lum ma`noda sipohiy saqlash borasida xonga berilgan qo`llanma desa ham bo`ladi. Chunki shoir, hokim o`z navkarlariga qaramog`i, ularning ochlikdan o`lishiga yo`l qo`ymasligi, ularning xizmatlarini vaqt-vaqti bilan taqdirlab turishi kerak, degan fikrni ilgari surishga harakat qiladi. G`azal markazida o`z davridan norozi bo`lib, xonning navkardorlik tizimini fosh etuvchi shoir obrazi turadi. Ana shu obrazning maqsadi g`azal matlaida bayon etiladi, obraz xarakterining boshqa tomonlari esa qolgan baytlarda birin-ketin ochila boradi. G`azal goh zorlanish, goh talab, goh kesatish, goh umid ohanglari bilan almashinib chorasiz qolgan kishining ruhiy holatini ichki olamini ravshan ko`rsatadi.

Umuman, Gulxaniyning navkarlik yillari uning hayotidagi eng og`ir onlardan edi. Lekin, shunga qaramay shoir o`sha yillarda ham o`z bilimini oshirish, takomillashtirish uchun g`ayrat qiladi. Bashqacha qilib aytganda, Gulxaniyning sipohiylik yillari ham ijodiy ish ham o`z bilimini tinmay oshirish, o`zbek va fors-tojik adabiyoti namunalarini mutalaa qilish davri hisoblanadi. Olimxon vafotidan so`ng taxtga chiqqan Umarxon o`z iste`dodini navkarlik davridayoq ko`rsata olgan Gulxaniyni saroy adabiyotiga jalb qilmoqchi bo`ldi. U o`z hokimiyatini mustahkamlash, siyosiy maqsadlarini amalga oshirish niyatda saroy atrofiga bir qator qalam ahllarini tortdi. Movarounnahrning turli joylaridagi qalam ahllarini, shuningdek, Xurosonning ba`zi bir shoirlarini o`z atrofiga to`pladi.

Masalan, Fazliy e`tirofiga ko`ra , balxlik shoir Faniy «shaxriyor», ya`ni Umarxonning shuhrati yoyilganda o`z vatanini tark etib Qo`qonga kelgan. Shu shoirlar qatoriga Gulxaniy ham bor edi. Unga saroydan joy berilgan edi. Biroq shoirning saroy adabiy muhitiga tortilishi uning shaxsiy hayotida jiddiy yasay olmadi, boshqalar qatori «ba ta`bi shoh», «ba ramuzi shoh», «bamayli shoh» kabi she`r aytish printsipiga rioya qilib, g`azallar bitdi. Jumladan shoir «Omad burun» radifli g`azalida Umarxonni she`r fanda «Fikridi ro`zgor», ya`ni o`z davrining yagona so`z ustasi sifatida ta`riflab, xon iste`dodi (davrida) oldida o`zining tislim bo`lishidan boshqa iloji yo`qligini ta`kidlaydi:

Xomaamro Gulxani g`ayr az xamo`shi chora nest,
Dar fani she`r on faridi ro`zgor omad burun...

Umarxonga ana shunday she`rlar, uning iste`dodini maqtovchi g`azallar ma`qul tushar edi. Saroyning maddoh shoirlari ham buni istar edilar. Shuning uchun ham Fazliy Gulxaniyning Umarxonni maqtab yozgan «omad burun» radifli

g`azalini: «Bu rangin g`azal Gulxaniydin erur, ko`ngil gulshaniga taravat berur» deb ta`riflagan edi.

Shuni esda tutish kerakki, Olimxon davrida ancha iltifotsizlik, xorlik ko`rgan Gulxaniy dastlabki vaqtlarda Umarxonni adolatli va tadbirkor podshoh deb o`ylab, unga bir qancha g`azal va qasidalar bag`ishladi. Qasidalarida Umarxonni ko`klargako`tarib maqtadi, xonga unda bo`lmagan yaxshi xislatlarni taqdi, uni fuqaroparvar, adolatparvar, zulm va haqsizlikka xotima beruvchi kishi qilib tasvirladi va bu bilan xonni ana shunday ijobiy xislatlar egasi bo`lishga da`vat etdi. Ammo Umarxon saroyidagi fisq-fujurlar, munofiqliklar, xon va unio`rab olgan arkoni davlat-davlat tayanchlari tomonidan xalq boshiga keltirilgan qora kunlar Gulxaniydek hassos shoirning saroy ahliga bo`lgan munosabatini o`zgartirib yubordi: endi u ba`zan ixtiyoriy ravishda va ba`zan payravlik qilib shohni ta`riflashdan chekinadigan bo`ldi, o`z e`tirozlarini bildira boshladi.

Gulxaniy hayotining oxirgi davrlariga doir turlicha ma`lumotlar bor. Agar ba`zi bir manbalarda Gulxaniyning Umarxon vafotidanso`ng o`z vataniga qaytib ketganligi taxmin qilinsa, boshqa manbalarda uning Muhammadalixon (1822-1842) tomonidan aldab o`ldirilganligi aytiladi. Chunonchi, mazkur xon hokimiyatga kelgan, otasi davridagi e`tiborli kishilarni ta`qib ostiga oladi. Jumladan, Gulxaniyni Yangiqo`rg`onga hokim qilish bahonasi bilan Namangan hokimi bilan kelishib shoirni junqopga solib, Sirdaryoga tashlab yuboradi. Gulxaniyning bunday fojiali o`ldirilishini O`zFA muxbir a`zosi shoir Boxiy (Abdulla Nasriddinov) qo`lidagi qo`l yozma hamda Avaz Muhammad Attorning «Tarixi jahonnamo» va muallifi noma`lum «Tarixi Qo`qand» qo`l yozma asarlari tasdiqlaydi. Xullas, Gulxaniydek iste`dodli shoirning xon va uning amaldorlari tomonidan halok qilingan bo`lishi mumkin.

Gulxaniy lirikasi. Agar Gulxaniyni XVIII asrning 70-yillarida tug`ilgan deb taxmin qilsak, o`z-o`zidan ravshanki, uning adabiy faoliyatining boshlanishi Namangan madrasalarida o`qib yurgan vaqtlariga to`g`ri keladi. Adabiyot maydoniga endigina qadam qo`yayotgan Gulxaniyning dastlabki she`rlari taqlidiy xarakterdagi xamoni she`rlar bo`lishi tabiiy edi. Lekn u asta-sekin kamol topa borib, mustaqil ijod qila boshlaydi. Albatta Muhammad Sharifning dastlabki she`rlari madrasadagi she`r ixlosmandlari, shaharda yashab ijod etgan shoirlar tahriridan o`tgan bo`lishi mumkin. Ehtimol, Gulxaniyning ustozi ham bo`lgandir. Lekin shoir hayotining lavhalari qarong`uligicha qola berganligi sababli haqda aniq bir narsa deyish hozircha amri maholdir.

Gulxaniy ham o`zbek, ham tojik tillarida bemalol qalam tebratgan. Fazliy ta`biri bilan aytganda, u «takallum qilur turkiyu erur she`r maydonining forisi» (ot chopari)dir. Muhammad Sharif avallari o`z taxallusini Gulxaniy deb atab kelgan, keyinchalik esa, ma`lum sabablarga ko`ra, uni Jur`at so`zi bilan almashtirgan:

Bu Jur`at ki avval edi Gulxaniy,
Erur barcha haz`en fani.

Muxammad Sharifning o`ziga Gulxaniy taxallusini olim sababini shoir Fazliy o`z tazkirasida quyidagina izohlagan edi:

Xusho Gulxani shoiri pulfan ast,
Chi gulxan, ki zebotdar az gulshan ast.
Zi devonaxo`iyu otashfani,
Taxallus nihoda ba xud gulxani.

(Gulxaniy hamma narsani biluvchi shoirdir. U faqat gulxan emas, (Gulxaniy hamma narsani biluvchi shoirdir. U faqat gulxan emas, balki gulshandan ham chiroyliroqdir. Devonafe`lligi, olovtabiatligi, iste`dodliligi, o`tkir fikrliligi tufayli o`ziga Gulxaniy taxallusini qo`ygan).

Qori Rahmatullo Vozeh Gulxaniyning she`r va qasidalar devoni borligini xabar qilgan bo`lsa ham, ammo u hanuzgacha topilgani yo`q. Bizgacha shoirning 12 g`azali va bir qasidasi Fazliy tazkirasi orqali yetib kelgan, xolos. Bular «Angushtali», «Az chashmi man», «Omad burun», «Ey to`ti», «Angusht» radifli hamda «Lola ko`ksidek bag`rim tahbatoh, qaro qonlar», «Terlamish may tobidin gulbargi ruxsorin ko`rung» satrlari bilan boshlangan g`azallari va boshqalardir. Ulardan ayrimlari Umarxon she`rlariga nazira tariqasida yozilgan. Gulxaniy lirikasiga nazar tashlar ekanmiz, shoirning adabiy an`anaga, g`azalchilik an`anasiga rioya qilganini darhol sezamiz. Unda lirik qahramonoshiqning qalb alamlari, ruhiy kechinmalari, ichki tug`yonlari, mashuqaning o`jarligi, vafosizligi, yoriga bergan ozorlari tasvirlanadi. Oshiq hamisha yor visoliga intiladi, murod hosil qilolmaydi, g`amiga botadi. Shoir lirik qahramonining zabun holini ko`rsatish asnosida ba`zi-ba`zida bahorning go`zal manzarasini ham chizib o`tadi:

Dar bahoron bahri taz`in novaro`soni chaman,
Mekashand dar go`shho durri xushob az chashmi man.

(Bahor chamanining kelinchaklari o`zlariga zeb-ziynat berish uchun quloqlariga mening ko`z yoshlarimdan xalqa taqib oladilar).

Agar Gulxaniy g`azallariga diqqat qilinsa, ularda real turmushdan olingan obrazlar, hayotiy lavhalar tasviri ko`zga tashlanadi. Ma`lum adabiy an`ana bilan bog`langan g`azalchilikda bunday holning bo`lishi she`rga hayotiylik baxsh etadi, uning ta`sirchanligini oshiradi. Chunonchi, shoirning «etmoz» radifli g`azalida shahar tabibi, qaroqchi, zohid timsollarini uchratish mumkin. Gulxaniy g`azallarida o`xshatish, sifatlash, mubolag`a, talmeh kabi badiiy vositalarning qo`llanganini ko`rish mumkin. Uning ayrim g`azallari yorni sifatlaydigan, «Ey buti shirin labi simini toni rangin qabo» singari, misra bilan boshlansa ba`zi birlarida oshiq-lirik qahramonning ichki kechinmalarini ochishga yordam beradigan mubolag`ani (Didai men bar lobi la`li mayolude, ki bud, Metarovod nash`ai sad xum sharob az chashmi man») uchratamiz. Shoir lirikasida xalq hikmatini eslatuvchi satrlar ham bor:

O`z makonini tilar hargiz qafasdan qochsa qush,
Eyki istarsiz ko`ngilni, zulfi har torin ko`ring.

Gulxaniy g`azallarining tili ham umuman sodda va tushunarlidir. Uning she`rlarida ozorbayjon tili va qadimgi tojik tili elementlari ham mavjud, bu hol g`azal muallifining ozarboyjon adabiyotidan xabardor

ekanligini, fors-tojik klassiklari asarlari ustida ishtiyoq bilan ish olibborganini ko`rsatadi. Biroq Gulxaniyning «Majmuan shoiron»da keltirilgan tojik tilidagi qasidaning o`ziyoq shoirning qasidachilikda yutuqqaerisha olmaganini ko`rsatadi. Qasida 52 misradan iborat bo`lib, u Umarxonga bag`ishlanadi. Qasida:

Sahargoh bulbuli sho`rida nolas sarkard,

Zi xuni dida guli surx domane tar kard- matlai bilan boshlanib, tashbib (muqaddimi) qismida bahor ayyomining jozibali manzarasi tasvirlanadi. Shundan so`ng shoir asl maqsadga-Umarxon saltanatini maqtashga kirishadi. Fors tojik va o`zbek klassik adabiyotidagi eskirgan shablon iboralarni, tasviriy vositalarni qo`llab, xon hokimiyatini tasvirlashga kirishadi, uning o`zini esa er yuzida eng odil, eng farosatli hokim qilib ko`rsatishga intiladi. Qasidada Umarxon hokimiyati tepasiga kelishi bilan butun Farg`ona xonligi er yuzining jannatiga aylandi deb tasvirlanadi, Umarxon quyoshdan yuqori qo`yiladi. Shoir qasidani qo`yidagi bayt bilan tugatadi:

Tu Gulxaniy ba xudo tak`ya mekunu meku,

Har on chi Anvariy dar ro`zg`ori Sanjar kard

(Sen Gulxaniy shoir Anvariy Sanjar saroyida xudoga sig`inganidek, hamisha xudoga sig`ingan).

Qasidaning mazkur baytida Gulxaniy mashhur madhiyachi qasida janrining tanilgan ustozlaridan biri, ayni vaqtda umrining oxirlarida shohlarni maqtashdan pushaymon bo`lgan shoir Anvariy hayotiga ishora qilib, o`zining Umarxonga bo`lgan munosabatini ravshan ko`rsatadi. Umuman esabu qasida shoir ijodi uchun xarakterli emasdir. Gulxaniy lirikasida nazira tarzida yozgan g`azalida o`z turmush sharoitini aks ettirish poeziyani real turmush bilan bog`lashga urunish hollari seziladi.

«Zarbulmasal»

Gulxaniy o`z turmush tajribasida, ijodiy faoliyatida g`azalning hodisavoqealarni atroflicha tasvirlashga qulay emasliginiuning ma`lum adabiy an`analar bilan belgilanishini, g`azalning bosh mavzusi shiq va oshiqlik ekanligini yaxshi tushindi. Shuning uchun ham shoiro`zining muhim ijtimoiy qarashlarini, el-ulus taqdiriga bo`lgan munosabatini adabiyotning boshqa janrida yaxshiroq ifoda eta olishi mumkinligini nazarda tutib «Zarbumasal» asarini yozdi.

Gulxaniy saroy ruhoniylari bilan kelisha olmadi. Mehnat ahlining og`ir mashaqqatli hayoti uning ko`zini ochdi. Gulxoniy saroy bazmlari va keti uzilmas mayparastliklarning xalqni talash va qiynash hisobiga unashtirilganini payqaydi. Bu hol, o`z navbatida uning saroy a`yonlariga, zodagonlarga amaldorlar va katta yer egalariga nafratini tobora oshirdi. Lekin shoir hukmron doiralardan noroziligini ochiqdan-ochiq ifodalay olmas edi. Shuning uchun u majoziy asar yozishga jazm qildi zotan feodal munosabatlari va islam dini hukmron bo`lgan, oddiy kishilarning haq-huquqini, manfaatini yoqlab chiqishga qaratilgan har bir urinish shubha ostiga olingan bir davrda taraqqiyparvar kuchlarning o`z progressiv qarashlarini, xalqchilik g`oyalarini targ`ib qilish uchun eng qulay bo`lgan badiiy shakllardan biri allegoriya edi. Majozda shoirning hayotga, o`zini o`rab olgan muhitga, hokim tabaqalarga

munosabati to`g`ridan-to`g`ri, bevosita emas, balki jonivorlar, qushlar va shunga o`xshash majoziy timsollarning tasviri orqali tasvirlanadi.
Gulxaniy «Zarbumasal» asarini yozish uchun ancha vaqt tayyorgarlik ko`rib yurdi; masal janrining xususiyatlarini yaxshi o`zlashtirdi. Bir necha vaqt davomidajamiyatning turli tabaqa kishilari bilan muomala-munosabatda bo`lib, xalq maqollarini, hikmatli so`zlarni to`pladi. Ana shu jihatdan Gulxaniy xalq og`zaki ijodining eng yaxshi ixcham namunalaridan biri sanalgan zarbumasal va maqollar to`plamii yoki, boshqacha qilib aytganda, adib-fol`klorist deyish mumkin.
«Zarbumasal» shunchaki oddiy bir majoziy asar bo`lib qolmay, qushlarning xarakteriga, asardagi mavqeiga mos ravishda ustalikbilan ishlatilgan maqollar va hikmatli so`zlari boy bo`lgan asardir. Asarning ham shakl, ham mazmun, ham badiiy tasviriy vositalarning qo`llanishi jihatidan xalq og`zaki ijodiga, hayotiy-maishiy ertaklarga o`xshab ketishi uning ko`zga darhol tashlanuvchi asosiy xususiyatidir. Asar halq ertaklari singari, ma`lum bilan boshlanib, «murodlariga etdilar» iborasi bilan tugallanadi. Asarning ana shu va shunga o`xshash boshqa o`rinlari o`uning xalqchilligini, kitobxonlar tomonidan sevib o`qilishini ta`minlagan. Chunki, V.G.Belinskiy aytganidek, agar adabiyot mustahkam va abadiy bo`lishni istasa, u albatta, xalqchil bo`lishi kerak».
Asarning asosiy maqsadi faqat Mavaraunnahrning emas, balki Qo`qon xonligining ham vayronaga aylanganini, xorabazorga yuz o`girganini, hukmron ijtimoiy guruhlarning zulmini yaramasligini, saroydagi fisq-fujur va qabohatlarni, xalq ommasining chidab bo`lmas og`ir turmush sharoitini va shunga o`xshash bir talay masalalarni ko`rsatishdan iboratdir. Bu masalalarning hammasi qushlarning quda-qudag`ay bo`lishi majoralari orqali, qizning mahriga ming chordivor so`rash orqali bayon qilinadi.
Shuni aytish kerakki, Gulxaniy qushlarning bir-birlariga quda bo`lishi mojarolarini tasvirlash jarayonida o`sha zamondagi ijtimoiy munosabatlarni, milliy
odatlarni, jumladan,qizga sovchilik qilish, mahr so`rash, xutba o`qitish kabi rasm-rusumlarni ko`rsatishga muvofiq bo`lgan. Asardagi Boyo`g`li, Yapaloqqush, Gunashbonu, Kulonkirsulton, Ko`rhush shunchaki oddiy parrandalar bo`lmay, balki o`sha zamonda yashagan turli kishilarning ma`lum xulq atvorini o`zida mutassamlashtirgan majoziy timsollardir.
Ma`lumki, musulmon olamida qizni erga berayotgan paytda ota-onasi uning roziligi bilan hisoblashib o`tirmas edi. Gulxaniy asarda, qizning taqdiri hal bo`ladigan vaqtda ota-ona o`z farzandidan uning fikrini so`rashi, uning arz-dodiga quloq solishi kerak: degan g`oyani ilgari suradi va bu bilan asarning hajviy-tanqidiy kuchini oshiradi.
«Zarbumasal»da latifaga o`xshash kichik-kichik hikoyalar, jamiyatning turli ijtimoiy guruh ishlarining kirdikorlari, hatti-harakatlarini fosh qiluvchi hajviy parchalardan tashqari personajlar tilidan hikoya qilingan «Maymun bilan Najjor», «Tuya bilan Bo`taloq» va «Toshbaqa bilan Chayon» masallari ham bor. Bu masallar asarning ta`sirchnligini oshirish uchun keltirilgan bo`lib, qandaydir bir chekinish tarzida hikoya qilingandadir.

«Maymun bilan Najjor» boy peyzaji, sermeva joylari, xo`shbo`y gullari, kishi hordig`ini chiqaruvchi, unga rohat bixsh etuvchi shirin suvlarining quyidagi realistik tasviri bilanboshlanadi:

«Bor edi Kashmir navhisida tog`,
Bog`i eram rashkidan ko`ksida dog`,
Anda imoratg`a yarog`lik yag`och,
etti quloch, bo`yi o`n ikki quloch
Bor edi ko`p ne`matu alvonlari,
Xurramu ma`mur edi hayvonlari
Zulf kabi sunbuli xushbo`ylari,
Rohatijon erdi oqar suvlari.

Shundan so`ng Gulxaniy ana o`sha go`zal tabiat qo`ynida, bir gulbuta ichida Maymunning istiqomat qilishini uqtirib masalning ikkinchi bosh qahramoni bilan tanishtiradi. Bu bosh qahramon o`z ishiga mohir, dono bir duradgor bo`lib, ish masayahi yo`qligidan ancha o`zini o`ng`aysiz sezadi. Shoir o`z qahramonining ruhiyatini, shaharning dimiqtiruvchi havasidan qutilib, duradnorlik asboblarini olib toqqa jo`naganini, tog`da peshasini bir erda esidan chiqarib qoldirganini va so`ngra teshani olib kelgali ketganini tasvirlaydi.Ana shunday qulay bir fursatda o`zini «oqilu-dano» hisoblagan maymunning ko`zi fona qoqilgan yog`onga tushadi:

«Aydi: ulus ichra bu bir kasbdur,
Kasbini boshina kiysang nasbdur.
Kisai purzor emaish elga hunar,
Behunar elni dedilar rishxor.
Men daxi najjorligi o`rganay,
Bolalarim barchasig`a o`rgatay.
Jahd qilib turdi ravon barg`ali,
Ya`ni yag`och qalmishini yorg`ali...
Mindi yag`och ustiga najjordek,
Kosibi purkardagi pujardek.
Ketdi hunar shavqi bila g`ussasi,
Tushdi yag`och ayrisig`a dumchasi.
Bilki nedin bo`ldi tutdim oqlig`t,
Mumkin emas o`ldi qutulmoqlig`i.

«Maymun bilan Najjor» masalida shoir bir qator muhim fikrlarni olg`a suradi; hunar va hunar ahlini ulug`laydi; qo`lingdan kelmaydigan ishga aslo urunma, degan fikrni majoziy timsollar xatti-harakati orqali ifodalaydi. Masalda Najjor timsoli muhim o`rin tutadi. O` hammadan oldin o`z suv qilib ichgan hunar ahllaridandir. Najjor uchun ijtimoiy foydali mehnat bilan shug`ullanish har narsadan muhimdir. Maymun esa hunarning katta ahamiyatga ega ekanligini fahmlab, uni o`rganmoqchi va so`ngra bolalariga o`rgatmoqchi bo`ladi. Ammo, kaltafahmligi, farosatsizligi tufayli dumi yog`och orasiga qisilib qoladi va dumidan ayriladi. Shoir masal oxiridagi:

Odami jansida yo`q qissasi
Qoldi aning dumchasining hissasi-

bayti bilan hikoyat juda yaxshi yakun yasab, qo`lidan kelmaydigan ishiga tutinganlarning ahvoli ana shunday bo`ladi, demoqchi bo`ladi.

«Tuya bilan Bo`taloq». Bu masalda hikoya qilinishicha, Farg`ona bir sarbon tuyachi bo`lib, uning bola-chaqalari anchagina ekanTuyaning bisotida boryo`g`i bir tuya bo`lib, u ana shu tuyasi bilan yuk tashib o`z ro`zg`orini zo`rg`a tebratar ekan. Kunlarning birida sarbon, odatdagidek, tuyaga ancha yukni ortib, yo`lga tushadi. Tuyaning orqasidan emadigan bo`talog`i ham ergashadi. Bo`taloq onasini emalmoy, orqasidan zorlanib ketaveradi. Bo`taloq ko`p namganidan so`ng:

Aydi onosi bolasig`a boqib,
Ko`zlaring yoshlari suvdek oqib
Ko`rki burunduq kishining qo`lida,
Bu kishining ko`zlari o`z yo`lida
Menda agar zarra kabi ixtiyor
Bo`lsa edi bo`lmas edim zeri bor.

Masal tuyaning ana shu so`zlari bilan tugaydi. Avvalo shum aytish kerakki, hajmi katta bo`lmagan bu masalda mehnatkash xalqning og`ir turmush sharoiti, huquqsizligi, ilojsizligi juda yaxshi tanlab alingan timsollar orqali ko`rsatiladi. Voqeaning tipik sharoit fonida tasvirlanishi Gulxaniy olg`a surmoqchi bo`lgan fikrning kitobxon tomonidan tezlik bilan anglab olinishiga imkon beradi. Biz masalni o`qir ekanmiz, tuyaning ilojsizligini, og`ir mehnat ostida qolganligini tushunamiz va ma`lum ma`noda unga xayrixohlik bildiramiz. Bo`taloq timsoli tuya timsolini ancha to`ldiradi. Tuyaning naroziligi ana shu Bo`taloq yordamida ifodalanadi. Nihoyat «qizim senga aytaman, kelinim sen eshit» maqoli yuzasidan ish ko`rib, sarbon hayoti tasviri orqali tuyaning og`ir turmush sharoitini, mehnatkash ommaning erksizligi ko`rsatishga erishgan.

Bu masal, «Maymun bilan Najjor» singari, aruzning sare` bahrida yozilib, uning ta`sirchanligi, og`ir sukut bilan o`qilishi ta`minlangan. Chunonchi, bo`taloqning onasiga aytgan:

Bo`zg`lanib aydi halo berahm onam,
Quydiyu yondi-yu tutoshti tonam.
Asta-asta yursang, bo`lg`ay ne g`am?
Siyna sutingdan emayin dam-badam-

So`zlari juda hazin, mungli o`qilib, chorasiz bo`taloqning qalb alamlarini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.Shuni aytish kerakki, masalda mehnatkash xalqning ekspluatatorlarga qarshi noroziligi juda passiv shikoyat tarzida ifodalangan.

«Tashbaqa bilan Chayon» masali ichida dramatizmning kuchliligi bilan ajralib turadi. Bu masal safar man faatlarini isbotlash maqsadida Kordan tilidan Turumtoyga Bozonda va Navozanda naili ikki kabutarning sarguzashtini hikoya qilib berish orqali bayon qilinadi. Bozandaning safarga jo`nash uchun oshiqqanini bilgan Navozanda unga qarib «Safarga ko`p harsh bo`lmaki, anda bir nuqta ziyoda bo`lsa, saqarbo`lur. Safarda rafiq kerak...

Yaxshi rafiq birla safar qiling, saodat toparsan vayomon rafiq birla shaqovat», deb o`z so`zini tasdiqlash maqsadida Tashbaqa (Sangpusht) bilan Chayon sarguzashtini ishora qiladi. Shunda Bozanda Navozandadan bu mojaroni aytib

berishini talab qiladi. Toshbaqa bilan Chayon haqidagi masal xalq og`zaki ijodining mahsuli bo`lib, ana shu masal orqali qalam ahllari o`zlarining progressiv qarashlarini, axloqiy-didaktik fikrlarini olg`a surganlar. Jumladan, bu masal Jamiyning«Bahoriston» asarida ham bordik. Unda hikoya qilinishicha, Chayon safarga jo`nab, bir suvga duch keladi. Suvda o`talmay, hayron bo`lib qoladi. Shunda Toshbaqaning unga rahmi kelib, o`z orqasiga mindirib q, qirg`oqdan o`tkazib qo`ymoqchi bo`ladi. Shu paytda Tashbaqaning qulog`iga bir tovush chalinadi. Toshbaqa undan bu nima deb so`raganida, Chayon «Mening peshimning tovushidir», garchi sening yaxshiligingga bunday (yomonlik) qilish insof yuzasidan bo`lmasa ham, lekin bu odatimni tashlab olmayman. Chunonchi debdurlar: (fard)

Neshi aqrab na az pai kin ast,
Muqtazoi tabiatash inast.

(«Chayonning nish urushi adovatdan bo`lmay, balki uning tabiati shuni taqozo qiladi»). Toshbaqa o`zicha, yaxshisi, bunday xulqi yaramasni yomonlik kislatidan xalos qilsam va yaxshilarni uning zararidan qutqazsam, deb suvga sho`ng`iydi. Suv Chayonni olib ketadi. Gulxoniyning Jomiy talqin etgan versiyadan foydalangan shubhasidir. Lekin «Zarbumasal» muallifi Jomiy versiyasini asosan saqlagani holda, unga yangi detallar qo`shib, masalning ta`sirchanligini ancha oshiradi. Gulxaniy talqinida avvalo Toshbaqaning safar marshruti Iroqdan Hijozgacha deb konkret ko`rsatiladi va u Chayon bilan ehtiyoj yuzasidan yo`ldosh bo`ladi. Ikkavlari yo`lda bir katta daryoga yo`liqadilar. Vaholanki Jomiyning, «Bahoriston»ida talqin etishicha, ular suv bo`yida tanishadilar. Shuningdek, Jomiy asarida, Chayonning Tashbaqadan uzr so`rashi, Tashbaqaning o`zicha himmat boyida aytgan so`zlari ham yo`q. Nihoyat, Gulxaniy Chayonning Tashbaqa ustiga minishi epizodini ancha kuchaytirib, ular o`rtasidagi dialogni kuchli dramatizm aylantiradi. Maqol orqali Chayondagi salbiy xususiyatlarni bo`rttirib ko`rsatadi. Ana shu detallar masalga yangicha ruh bag`ishlaydi. Gulxaniyning bu masalni talqin qilishidagi navotarligi ham xuddi shundadir.Toshbaqa farosatli safarlarda ko`p yurib, ancha tajriba hosil qilgan inson timsolidir. U Chayondan yomonlik sodir bo`lishini bilsa ham, lekin uni yana bir marta durust yo`lga salmoqchi va buning uchun o`z hatti harakati bilan unga ibrat ko`rsatmoqchi bo`ladi. Lekin yaxshilikka yomonlik ko`rgach, suv tubiga sho`ng`ib, Chayonni halok qiladi. Chayon umr bo`yi birovga yomonlik qilgan, zarar-ziyon etkazgan insonning majoziy tarzda talqin qilingan timsoldir. U birovga zahar solish odatini o`zining yomon xulqidan deb bilmaydi, balki tabiati shu narsani taqoza qilajagini ochiq e`tirof etadi: «Bilganing yo`qmukim, aqrobning muddaosi kesh urmoqdur, xoh do`st ko`ksinadur, xoh dushman orqasina» «Zarbumasal» ning boshqa majoziy asarlaridan ajralib turadigan xususiyatlaridan biri shuki unda mayda-mayda hikoyalar berilib, ular shoir yashab turgan davrning u yoki bu konkret shaxsiga qaratiladi. Bunday hikoyalarda shunday shaxslar: din vakillari, bozor dalalari, xato ko`chiruvchi kotiblar va boshqalar qattiq tanqid qilingan. Chunonchi

Muhammad Qosim dallash rangiru-rushning qiyofasi ko`rsatuvchi hikoya bilan tanishaylik:

«Qo`rqush aydi: So`zingning omadi Muhammad Qosim dallash rangfurushga o`xsharkim, bir kun devor urg`ali mardikar salibdur. Namozi digar vaqtida mardikorga qarab turib, tahorat qilib, do`ppisini tez suvga oqizibdur Necha jahd-u jadal birla ololmay, mardikorga tag`in zahrini solibdur. Mardikor ishdan forig` bo`lib, haqqi muzdirlikni talab qiladi. Mazkur Muhammad Qosim dallal o`rnidan turib, bechora mardikorning boshidan do`ppisini zo`r birla tortib olib, o`zining boshiga kiyib aydikim, «Mening do`ppimning bahosi uch tanga edi, sening do`ppingni bazur bir tanga oladi. Bir tanga ishlaganing birla ikki tanga bo`lur. Mening bir tangam hoqim sening gardaningga boqidur. Men senga qarab turib, do`ppimni suvga oqizib olalmadim. Endi buning tavonini sen berursan. Yana bir kun kelib ishlab bergil» debdur. Vaholanki, Muhammad Qosim dallolning do`ppisi mardikor do`ppisidan ham xarob uch miriga ham olmasekan...»

Bu hikoyada ikki personaj qatnashadi. Ularning birio`ta xasis, o`z manfaati yo`lida hech narsadan tap tortmaydigan dallos obrazidir. Muallif ana shu xasis odamning xarakterini to`la ochish uchun uning do`ppisini ataylab tez oqar suvga oqizadi. So`ngra dalasning mardikorga qilgan muamasini tasvirlab, o`z mehnati bilan kun ko`ruvchi kishining-mardikorning haq-huquqini yoqlaydi.

«Zarbumasalda»gi hikoyalarning bosh xususiyati shundan iboratki, ularda muallif bir-ikki shtrix bilan o`z qahramonining kimligi, nima ish bilan shug`ullanishi ma`naviy hiyofasi haqida o`quvchida aniq bir tasavvur hosil qildiradi.

Boyo`g`li tilidan naql ettirilgan Iuhammad Aminxo`ja mufti haqidagi hajviy hikoya ham juda xarakterlidir. Hikoya nasr va nazm yo`li bilan yozilgan. Unda hikoya qilinishicha «Muhammad Aminxo`ja mufti ... mudam har ishda o`zidan bemaza va befahm va beidrok roq odamg`a maslahat qilur erdi. Xoh forsiya, xoh arabiy har kitob bitsa sahv va g`alatdin xoli emas erdi, bo vujudi bu hamma noqisligi birla o`zini hammadin mullo va donishmandi ro`zgor ko`rar erdi. «Shundan keyin muallif bu shaxsning ochko`zligi, kasisligi, manmanligi va kekkoyishini ko`rsatib, hikoyani tugatadi.

Hikoyada Muhammad Aminxo`ja xato ko`chiruvchi kotiblarning umumlashma obrazi darajasigacha ko`tarilib «Zarbumasal»ning muallifi o`z asarining ham xatosiz ko`chirilishiga doir fikrini ora sira qistirib o`tadi. Chunki badiiy asar shoir va yozuvchining ko`p mehnat sarflashi natijasida vujudga eladi.

Navoiy ta`biri bilan aytganda, «kotib shuaro so`zining varaqnigoridur va so`z maxzanining xazinadori. Xozin hunari amonat bo`lur va tasarrufi xiyonat bo`lur».

Modamiki kotiblarning ishi so`z xazinasini qo`riqlash, undagi qimmatbaho durlarga xiyonat qilmaslik ekan, ular, dastavval ahllari mumkini ko`z qorachig`iday soqlashlari lozim. Binobarin, Gulxaniy xato ko`chiruvchi kotib haqida gapirganda, avvalo, ana shularni ko`zda tutadi.

Muhammad Sharif Gulxaniy «Zarbumasal»ning kompozitsiyasi, tili va tasviriy vositalari ustida ancha mehnat qilgan. Asar Sharq xalq ijodida keng tarqalgan shuningdek, Navoiy singari so`z ustalari tamonidan qo`llanilgan hikoya ichida hikoya, xalq aksiyachiligi usulida yaratilgan. Gulxaniy asarni yozishga kirishar ekan avvalo, xalq askiyalarida ko`p ishlatiladigan maqollarni turlarga ajratadi, mavzularga bo`ladi, so`ngra ularni personajlarning xarakteri va dunyoqarashiga mos ravishda ishlatadi.

«Zarbumasal»ning tili sodda va xalq jonli tiliga yaqindir. Unda ayrim forscha va arabcha so`zlar ham qo`llaniladi. Umuman, Gulxaniy masali yaratilgunga qadar va o`sha davrdagi nama va yorliqlarning dabdobali uslubda yozilgani hisobga olinsa, «Zarbumasal»ning keng xalq ommasi tushunadigan tilda yozilganligi yanada oydinlashadi. Gulxaniy «Zarbumasal»da qudalik mojarolari fonida mavjud ijtimoiy tuzumga, o`z atrafidagi muhitga, saroy ruxoniylarning dabdabali hayotiga bo`lgan munosabatini juda katta ustalik va ehtiyotkorlik bilan bildiradi. U o`zining ana shunday qarashlarini ko`pincha hajviy tarzda ifodalaydi.

Yozuvchi tasviriga ko`ra, Boyo`g`li mutakkabbir, mol-mulkka hars qo`ygan, o`z manfaatini har narsadan ustun ko`rovchi jamiyatning yuqori tabaqasiga mansub shaxsdir. U qizini moldek sotishga jon-dil bilan tirishadi, sovchilar bilan savdolashadi. Gunashbonu boyning to`q badavlat oilada o`sgan yakkayu-yagona va erkatoy qizidir. Muallifning tasviriga, u bo`yiga etganda onasining to`g`ri so`zlaganiga egri so`zlay boshlaydi. Asar qahramonlaridan biri Malikshohindir.

U tadbirkor, ishning ko`zini biladigan shaxs obrazidir. Kordon esa saroy xizmatkorlarining tipik vakili, Malikshohning xalqabago`shlaridandur. U Malikshahindan bo`yruq olgan, uni tezlik bilan bijarishiga kirishadi, qalin taraddudida bo`lib ortiqcha xarajatlarni ravo ko`rmaydi. Kordonning tabiatiga xos narsa xarji isrofga, ya`ni bekorchi xarajatlarga yo`l quymaslikdir. Yapaloqqush bilan o`g`li Kulankirsulton jamiyatda Boyo`g`liga nisbatan birmuncha pastroq mavqeda bo`lsa ham, lekin a`yon-ashroflar guruhiga mansubdir. Bu holni Kulonkirsulton dargohining hashomati ham tasdiqlaydi. Gulxaniy adolatli shoh tarafdoridir. Uning fikricha, o`lkani odil, insofli, fuqaroparvar shoh idora etsa va bu shoh o`z atrofiga halol, tajribali kishilarni to`plab ish ko`rsa, davlatning ahvoli yaxshilanishi mumkin. Uning bu haqdagi qaralari Ko`rqo`sh masalida ochiq bayon qilindi.

«Zarbumasal»ning o`zbek adabiyoti tarixida tutgan o`rni yana shu bilan izohlanadiki, unda muallif mehnatkash xalqning og`ir turmush sharoitini, majoziy timsollar orqali ko`rsatdi. Ammo Gulxaniy Boyo`g`li talab qilgan ming chordevorning Farg`ona iqlimida emas, balki Buxoroda mavjudligini ta`kidlaydi. Bu ta`kidlash hammadan oldin kinoya tarzida aytilgan bir haqiat bo`lib, aslida Buxoroda ham, Farg`ona iqlimining o`zida ham juda ko`p vayronagarchiliklar, xarobazorlar mavjud edi. Bu holni Maxmur Hapalak qishlog`i misolida, Ma`dan esa Pong`oz va Shaydon xarobasi misolida ochiq ko`rsatgan edilar. Shunday qilib, Muhammad Sharif Gulxaniy o`zi yashab ijod etgan zamonning ayrim yaramas tomonlarini, uning munofiq kishilarini

ustalik bilan tanqid qildi, hatti-harakatlarini fosh qildi. Ammo,shunga qaramay, u o`z davridagi ijtimoiy tengsizlikning she`riy mohiyatini tushuna olmadi**.**

Ilmiy adabiyot:

0. *O'zbek adabiyoti tarixi. 4-jild. -T.: 1978;*
1. *F.Ishoqov. Gulxaniy va uning "Zarbulmasal" asari. -T.: Fan, 1972;*
2. *F.Ishoqov. Maktabda Gulxaniy ijodini o'rganish. – T.: 1986;*
3. *M.Qo'shjonov. "Zarbulmasal" asarining badiiy xususiyatlari. Kitobda: Mohiyat va badiiyat. – T.: 1974;*
4. *M.Qo'shmoqov. Mulla Gulxaniy. "Sharq yulduzi" jurn. 1991, №1*.

8-mavzu.Uvaysiyning ijodiy merosi

REJA:

1. ***Shoira hayoti haqida ma`lumot.***
2. ***Uvaysiyning adabiy merosi.***
3. ***Uvaysiyning lirik mao`orati.***
4. ***O`zbek mumtoz she`riyati tarixida shoiraning tutgan o`rni.***

Har bir shoir taxallusining o ‘z ma’nosi bor. Mumtoz adabiyotimizda shoirlar asosan muqaddas Islom dini ta’limotiga, payg‘ambar Muhammad alayhissalom o‘gitlari hamda o‘tmishdagi ulug‘ ajdodlarga ergashiib yoki tug‘ilgan yeriga nisbat berib o‘ziga taxallus tanlaganlar. Taxallus bu shunchaki bir so‘z yoki ismgina emas, balki adibning ijoddan ko‘zlagan maqsadini, yo‘lini belgilovchi timsol, ajdodlari, Vatani oldidagi mas’uliyatga ishora qiluvclii hikmatli so‘zdir. Masalan, Navoiy — haq va haqiqat, adolat yo‘lida navo qiluvclii, Buyuk Alisher Navoiyning ikkinchi taxallusi Foniy — o‘tkinchi, ya’ni o‘zi- ning bu dunyoda vaqtinchalik mehmon ekanligini anglab, faqat ezgu ishlami ko‘zlovchi, Maxmur — ilohiy ishqdan mast bo‘lgan darvesh va hokazo. Xo‘sh, unda Uvaysiy taxallusining ma’nosi nima?

O ‘tmishda Uvays Qaraniy ismli valiy zot o‘tgan. Uning Muhammad alayhissalomga bo‘lgan muhabbati shu kungacha insonlar orasida tillarda doston b o ‘lib kelmoqda. U payg‘ambarimiz bilan bir zamonda, bir-birlaridan unchalik uzoq bo‘lmagan joyda yashagan bo‘lsalar-da, ularga ko‘rishish nasib etmagan. Bu zot Muhammad alayhissalomga hali payg‘ambarlik berilmay turib, uning qachon va qayerdan chiqishini bilmagan holda Rasulullohning kelishini intizorlik, ko‘zda yosh bilan kutgan. o‘zi hali ko‘rmagan, daragini faqat ilohiy kitoblardan eshitgan payg‘ambarga g‘oyibona muhabbat qo‘yadi. Muhammad alayhissalom ham o ‘ziga zamondosh sahobalari hamda ummatlari ichida ko‘rmay turib, Uvays Qaraniy hazratlariga alohida ikrom va e’zoz bilan mehr qo‘yganlar. Shundan Islom olamida payg‘ambarimizning (garclii u zot o‘tib ketgan bo‘lsalar-da) g‘oyibona nazari — nigohiga sazovor bo‘lish ilinjida «uvaysiylik» yo‘li paydo bo‘lgan. Ehtimol, shoira Uvaysiy ham o‘z taxallusini qaysidir bir buyuk zotga bo‘lgan g‘oyibona uvayslik munosabati tufayli tanlagandir.

Mana, shoira Jahon Otin taxallusining ma’nosini ham deyarli bilib oldik. Endi uning hayot yo‘li to ‘g‘risida bir-ikki og‘iz so‘z.Shoira Marg‘ilon shahrida ziyoli oilada dunyoga keldi. Otasi o‘zbek va tojik tillarida she’rlar yozgan ijodkor, onasi ham fozila ayol bo‘lgan. Hofiz unvoni bilan el ichida tanilgan akasi Oxunjon ashula aytar, musiqadan yaxshigina xabardor edi. Badiiy did yuqori bo‘lgan ma’rifatli oilada voyaga yetgan Jahon Otin yoshligidan she’r mashq qildi va tez orada «Uvaysiy» taxallusi bilan shuhrat topdi.Shoiraning turmush o‘rtog‘i Hojixon erta vafot etib, qizi Quyoshxon, o‘g‘li Muhammadxonni tarbiyalab voyaga yetkazish yakka o‘zining zimmasida qoladi. U maktabdorlik qiladi, ijod bilan shug‘ullanadi. Farzandlari ham she’rlar yozgan.Uvaysiy hayoti va ijodiy faoliyatining bir

qismi malika va shoira Nodirabegim hurmati va iltifoti tufayli xon saroyida kechadi. Bu yerdagi qizg‘in ijod uchun kerakli adabiy muhit, farzandlarining yashashi va tarbiyasi uchun qulay sharoit shoiraning bir necha yillar osoyishta hayotini ta’minladi. 1822- yilda Amir Umarxon vafot etgach, Uvaysiy uchun ham tashvishli va qayg‘uli kunlar boshlanadi. Otasining o‘miga taxtga o‘tirgan Muhammad Alixon unga yaxshi munosabatda bo‘lmadi. Boz ustiga o‘g‘li Muhammadxon ham sarbozlikka olinib, Qashqar uchun olib borilayotgan urushga jo ‘natildi. Oilaviy turmushi baxtsiz kechgan qizi Quyoslixon kasallanib, o‘ttiz yoshida vafot etadi. Undan Bibi Xadicha ismli qizcha qoladi. Jahon otinning o`g`li Majnun, qizi esa Xokiy taxallusi bilan she`rlar yozganlar. Ammo ular o`z davrlarida murakkab hayot yo`lini bosib o`tganlar, turmush qiyinchiliklarini boshdan kechirganlar Buxoro amiri Nasrullo 1842-yilda Qo‘qonni bosib olib, Nodirabegimni, uning o‘g‘li va nabiralarigacha qatl ettiradi.Shundan so‘ng Uvaysiy ona shaliri Marg‘ilonga qaytadi va taxminan 1850-yilda vafot etadi.

Shoira ijodi uning kattagina bir devoniga jamlangan.U mumtoz adabiyotning g‘azal, muxammas, musaddas, murabba’, chiston hamda doston kabi janrlarida qalam tebratganini kuzatish mumkin. Shoira she’rlari asosan ishqiy mavzuda. Ularda o‘zining Yaratuvchisiga intiqlik bilan intilayotgan solik banda, Olloh yaratiqlarining eng afzali Payg‘ambar alayhissalomga oshiq ummat, Haq yo‘lida sobit ustozlarga muhabbatli shogird sifatida tuyg‘ularini izhor etadi. Shuningdek, insonning insonga sevgisini tarannum etuvchi g‘azallari ham talaygina.

Uvaysiyning she’rlari ichida hasbi hoi tarzida yozilganlari ham bor. Shoiraning «Uvaysiyman», «Dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi», «Sog‘indim» kabi g‘azallarini misol tariqasida keltirish mumkin. Ularda shoira hayotining ayrim lavhalari, taqdiri uchun muliim bo‘lgan hayotiy holatlar bayon etilgan. Masalan, «Sog‘indim» radifli g‘azal o‘g‘li Muhammadxonning sarbozlikka yuborilishi munosabati bilan farzandidan judo onaning iztiroblari, sog‘inchini aks ettiradi.

Uvaysiy cliistonnavis sifatida ham o‘z mahoratini namoyon etgan. Ayniqsa, «Anor» cliistoni yaratilgandan buyon she’riyat ixlosmandlari e’tiborini qozonib kelmoqda.

UVAYSIYMAN

Mehnat-u alamlarga mubtalo Uvaysiyman,
Qayda dard eli bo‘lsa, oshno Uvaysiyman.
Istadim bu olamni, topmadim vafo ahlin,
Barchadin yumib ko‘zni muddao Uvaysiyman.
Uz diling taalluqdin, band qil Xudo sori,
To degil kecha-kunduz: «Mosivo Uvaysiyman!»
Kechalar fig‘onimdin tinmadi kavokiblar,
Arz to samo uzra mojaro Uvaysiyman.
To кo‘rib xarobotin ta’na etma, ey zoliid,

Bir nafas emas xoli iqtido Uvaysiyman.
Faqr borgoliiga qo‘ysa gar qadam har kim,
Bosh agar kerak bo‘lsa, jon fido Uvaysiyman.
Vaysiy beriyozat deb sahl tutma, ey orif,
Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiyman.

Jahon otin she`riyatini ko`ngillarga oshno etgan xususiyatlardan biri shuki, u “mehnat, alam, g`am-g`ussalarga giriftor”larning kuychisi sifatida maydonga chiqqan. Shoira tuxmatchi va g`arazgo`y raqiblardan ozor chekib, nola qildi. Samimiy ishq va pokizalikka asoslangan oilaviy hayt yo`liga to`g`anoq bo`luvchilarga nafratini bayon etdi. Riyokor shayx va zoxidlarni hajv ostiga oldi. Bularning barchasi shoira lirikasining etakchi pafosini tashkil etdi.

Shoira mahoratining yana bir belgisi u jonli xalq tiliga yaqin ijod qildi. Maqollar, hikmatli so`zlar, topishmoqlarni o`z she`riyatiga olib kirdi:

Buki derlar bordurur devor keynida quloq,
Ul makon davrida ko`z etguncha devor o`lmag`ay.

So`z o`yinlari, muammo janri ham shoira ijodida yangicha ko`rinishlarga ega bo`ldi. Masalan, quyidagi baytdan “Jahon” so`zikelib chiqadi.

Jimu, xoyu, alifkim, men kimu dardim yuki birla
Dilida nuqtasi bag`rimda dog`im loyixi xun men.

Uvaysiy devonida 209 g`azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba` va “ Dostoni Hasan va Husayn”, “Voqeoti Muhammad Alixon” nomli asarlar o`rin olgan.

Shoira Uvaysiy “Shaxzoda Hasan”, “Shaxzoda Husayn” manzumalarida sharq adabiyotida masho`ur bo`lgan syujetlarga murojat qiladi. Har ikki doston birgalikda “Karbolonoma”, “Kitobiy Uvaysiy” nomlari bilan yuritilgan. Bu dostonlarda Muhammad Alayo`issalomning qizi Fotimaning o`g`illari Hasan va Husayn voqealari bayon etiladi. Muhimi shundaki, Uvaysiy ana shu voqealar zamirida o`z zamonasining ijtimoiy voqealariga ishoralarni joylaydi, o`z zamondoshlariga ibrat bo`ladigan fikr-mulohazalarni bayon etadi.

Shoiraning mazkur dostonlari o`sha davr dostonchiligi nuqtai nazaridan muhim siljish bo`lsa-da, lekin ular shoira “Devo”idagi lirik she`rlarga nisbatan badiiy jihatdan ancha bo`shdir.

“Voqeoti Muhammad Alixon” asari Muhammad Alining tug`ilishi, uning taxtga o`tirish, qashqarga xarbiy yurish qilishi voqealari tasviriga bag`ishlangan. Asar asosan, masnaviy shaklida yozilib, o`rni-o`rnibilan g`azallar ham o`rin olgan. Bu manzuma tugallanmay qolgan. Dostonda rivoyat va afsonalarga keng o`rin berilsa-da, ayrim voqealar, shaxslar tasvir va talqinida realistik tamoyillar ham sezilib turadi. Ayniqsa, bu asar Nodira haqidagi ma`lumotlari bilan qimmatlidir.

Shoira uslubi va she`riyattining o`ziga xos jihati shundaki, uning ijodida ayollik latofati va nazokati barq urib turadi. Samimiy tuyg`ularini nafis ifodalay oladi. quyidagi namunada shoiraning o`zi ham buni e`tiroq etadi:

Dilrabo, yuzung uzra kokulung parishon qil,
O`usnunga niqob o`lsun, maqsadimni pinxon qil.

Uvaysiy ijodida munis va mushfiq ona obrazi ham yaqqol ko`zga tashlanib turadi. O`g`li Muhammadning firoqida:

Bukun, ey do`stlar, farzandi jonimni sog`indim,
Gado bo`lsam na ayb, ul shoo`i davronimni sog`indim.

Deya o`tli satrlar bitsa, bevaqt xazon bo`lgan qiziquyoshxon g`amida:

Seningdek shaxga mendek bir g`aribi bevatan yig`lar,
Sabab uldur ko`rib ao`volimni baytulxazan yig`lar

deya fig`on chekadi.

Uvaysiy o`ziga xos ijodiy maktab yarata olgan mumtoz san`atkordir.

Nazorat savollari

1. *Shoira haqida ma`lumot bering.*
2. *qanday asarlar yaratgan?*
3. *She`riyatidagi etakchi lirik obrazlarni sanang.*
4. *Shoira ijodining o`ziga xosligi nimada?*
5. *Uvaysiy qanday masnaviy –dostonlarni yaratgan?*
6. *"Voqeoti Muhammad Alixonning qanday g`oyalar olg`a surilgan?*
7. *"Dostoni shao`zoda Hasan"da qanday g`oyalar qanday olg`a surilgan?*
8. *Epik tasvir usuli deganda nimani tushunasiz?*
9. *Shoira ijodi kimlar tomonidan o`rganilgan?*
10. *Uvaysiy adabiy merosining ahamiyatini asoslang.*

Adabiyotlar

1. Abdullaev V. O`zbek adabiyoti tarixi. T., 1980.
2. Jalolov T. Go`zallik olamida. T., 1970.
3. Ibrohimova E. Uvaysiy. T., 1963.
4. O`tkir Rashid. Uch shoira. T., 1958.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Uvaysiy. Devon. T., 1963.
2. Qayumov A. Qo`qon adabiy muo`iti. T., 1961.
3. Qodirova Munis. XIX asr O`zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri.T., 1977.

9-mavzu. Mohlaroyim Nodira ijodiy merosi

Reja:

1. ***Shoira hayoti va ijodi haqida ma`lumot***
2. ***Shoira lirikasi***
3. ***Nodira lirikasida timsollar***

Hayoti va adabiy faoliyati. Sharq adabiyotida Robia, Ismatu va Oysha (XI asr), Munisga Xo`jandiy, Sittixonim Mutriba (XII asr), Jahon xotun (XIV asr), Munajjima va Mehri (XV asr), Gulbadanbegim, Gul`chehrabegim (XVI asr), Nurjahonbegim va Zebniso (XVI-XVII asrlar), Mahzuna, Navon va Uvaysiy (XVIII-XIX asrlar), Muazzamxon, Nazmixonim (XIX-XX asrlar), shoira Anbar va boshqa o`nlab shoiralar singari shuhrat topgan Mohlaroyim Nodira XIX asr o`zbek adabiyotida quvonch va g`azabni, visol xursandliklari va hijron alamlarini, tinch hamda osoyishta yashash umidlari va bu umidlar qarshisidagi fojiali hollarni o`z ijodida aks ettirganligi bilan mashhurdir. Mavlono Nodir tomonidan xilma-xil, sharofat»lari, «karam bobida yuz erdin ziyoda» fazilatlari, aql va idroki ta`riflangan Nodira ruhaniy oilaga mansubligi bilan, o`z zamondoshlari bo`lgan kosib qizi Uvaysiy va tog`lik bechora Mahzunadan farq qilardi. Nodiraning otasi Rahmon qulbiy Qo`qon xoni Norbo`tabiyning hukmronligi vaqtida Andijon hokimi edi. Norbo`tabiy o`limidan so`ng hokimiyat uning katta o`g`li Olimxonga o`tganda ham Rahmonqulbiy shu mansabda qoldi. Bu vaqtlarda Marg`ilonda hokimlik qilib turgan Olimxonning ukasi Umarxon qo`nu qo`shnilar, qarindosh-urug`lar va saroy ahli o`rtasida ta`riflana boshlagan Nodiraxonga ishq qo`ydi va 1808 yilda uni o`ziga nikoh qilib oldi. Olimxon o`ldirilgandan keyin 1810 yilda Umarxon hokimiyat tepasiga o`tirdi va Nodirani Qo`qonga ko`chirib olib keldi. Nodira hali Andijondaligidayoq faqat husnlatofati, zeboligi bilangina emas, balki aql-idroki, donoligi, ilm-fanga mayli, adabiyotga ishtiyoqi bilan ham ko`zga chalina boshlagan edi. Uning xatsavod chiqarib, eski maktablarda o`qilishi rasm bo`lib qolgan Sa`diy, Hofiz, Navoiy, Jamiy, Fuzuliy, Bedil asarlarini mutolaa qilishi Qo`qonda yana ham kuchaydi. Nodira xon kutubxonasidan istagancha foydalanar va she`r yozishini mashq qilishida avvalo Umarxon (Amiriy) va so`ngra uning saroyidagi shoirlardan maslahat olar, ularning adabiy munozaralaridan manfaatlanar edi. Nihoyat, u shoira sifatida kamolga etib, hammaga ma`qul va manzur asarlar yaratdiki, haqiqatan ham uning go`zal va sermazmun so`zlarini o`qiganda, «ahli davron marhabo» demay qo`ymas edi:

Nodira har so`zki, insho ayladim,
Aydi anga ahli davron marhabo!

Lirikasi. Nodira ishq-muhabbat, ilm-ma`rifat, el-yurt, do`stlik, osoyishtalik, obodonlik va maishiy farovonlik haqida asarlar yaratgan edi. Albatta, uning bevosita mamlakat va xalq hayoti bilan aloqador bo`lgan she`r va g`azallari aholining turli qatlamlari, jumladan mehnatkash tabaqalar «marhabo»siga musharraf bo`lgan; uning «Shoh uldurki, raiyatga tarohhum qilsa» degan so`zlari,

«Shod qilgan bandalarning ko`nglini ehson etib» degan iboralari xalqqa ma`qul tushgan va Nodiraning shoira sifatidagi muborak ovozini xalq ovozi, xalq istak-orzusi bilan ma`lum darajada hamohang qilgan. Masalan, u xonni adolatparvarlikka chaqirib, bundaydegan edi:

Bo`yla kim mumtoz erursen barcha sultonlar aro,
Shod qilg`il bandalarning ko`nglini ehson etib...
Fuqaro holig`a gar boqmasa har shoh, anga
Hashmatu saltanatu raf`atu shon barcha abas.
Shoh uldurki raiyatga tarahhum qilsa,
Yo`q esa qoidai amnu omon barcha abas...

Nodira davlat boshlig`ining shunday bo`lishini orzu qilar edi. U ba`zan adolatsiz shohdan (mavhum holda bo`lsada) shikoyat qilardiki, shubhasiz, bu shikoyat ma`lum darajada uning o`z atrofidagi muhitidan shikoyati edi:

Doda keldim, ey salatin sarvari, dodim eshit,
Sen shohu men benavo, lutf ayla faryodim eshit...

kabi misralari Nodiraning bevosita shaxsiy arz-dodi, o`z his-to`yg`ulari ifodasiday ko`rinsada, bunday «shohdan lutfu marhamat tilab, arz qilgan kishining «dod-faryodlari» ham o`z ifodasini topgan. Chunki shoira, bir tamonda saroy saltanati va hoshamatini, ikkinchi tomonda qashshoqva xor-zor, g`arib va benavo kishilarni ko`rdi. Mana shu qashshoq va g`arib kishilarga achindi, ularning farovon va osoyishta yashashini istadi. U saltanat egalari, avvalo podsho xalqqa rahm-shafqat qilsa, «fuqaro holi»dan xabar olsa, el-yurt osoyishta va farovon bo`lishi mumkin deb o`ylar edi.

Nodira ruhoniy tabaqaga mansub bo`lishiga qaramay, kishilarga shafoqatli, xayrixoh va mehribon edi. Binobarin, u kishilarni ko`plagan muhitidan, shafqatsiz va bevafo kishilardan, qisman bo`lsa ham shikoyat qiladi. Masalan, u odamlarda «vafo» yo`qligidan va o`z tevaragidagi dunyodorlarning makkorligi, aldamchiligidan shikoyat qilib bunday degan edi:

Olam elida vafo topilmas,
Bu gavhar erur jahonda noyob...

Shoira she`rlarida Umarxonni madh etadi, uni mubolag`a bilan maqtab ta`riflaydi. Unga bo`lgan muhabbat to`g`risida yozgan baytlaridan «Lazzati she`ri Umar sohibqiron» anqib turajagini aytadi:

Nodira qilg`ach muhabbat nash`asidin gufti-go`,
Lazzati she`ri Umar sohibqirondan berdi yod...

Bu bayt, bir tomondan, Nodiraning sevgisini ifodalasa, ikkinchi tomondan, uning she`riyatda Umarxondan ta`lim olganini anglatadi. Shunday bo`lishiga qaramay, nega Nodiraning she`riyati mafkuraning ba`zi tomonlari e`tibori bilan Umarxonning dunyoqarashi va adabiy estetik didiga ma`lum darajada zid keladi?

Xo`sh, shoiraning o`zi hukmron doiralarga mansub bo`la turib hayotdan va zamonidan nima uchun shikoyat qiladi? Buning asosiy sababi, bir sharoitda turib, hayot voqea-hodisalarini turli xil mushohada qilish, turlicha anglash va ularga turli xil munosabatda bo`lishdadir.

Umarxonning hukmronligi jabr-zulmga asoslangan edi. U minglab begunoh kishilarni qonga beladi, qurbon qildi. Umarxon o`z she`rlarida bularning hammasidan ko`z yumadi, ular haqida hech narsa demaydi. Nodira esa bunday qilmaydi. Chunki u janglarda va boshqa paytlarda qurbon bo`lgan hamda qilich va xanjarlar zarbidan jarahatlangan son-sanoqsiz kishilarga duch keladi: xon ov va harbiy safarda yurganida Nodira ko`pincha xonning farmonlari Qo`qonda, saroyda va zindonda qanday ijro etilishini ko`radi, begunoh kishilarni o`limga sudrovchi jallodlarning vahsiyona harakatlariga shohid bo`ladi; dunyoga aql-idrok ko`zi bilan qaragan har bir hodisa va voqeaning mohiyatini anglashga intilgan Nodira bu dahshatli manzaralardan ta`sirlanmay qolmaydi, indamay o`tib ketavermaydi. O`ylaydi, hayron qoladi, o`ziga-o`zi savollar beradi, javob axtaradi, qiynaladi va o`z o`ylarini she`riy misralar ichiga shodalab:

Hisob etmoqqa chark anjumanlarin bor ehtimol anda,

Mening dog`i dilimni lek bo`lmaydi hisob aylab...-deb yozadi va, tab`i noshodi»ni bayon etish uchun ba`zan tangdan oqshomgacha g`am-g`ussa bilan to`lib toshgan g`azallar yozadi, xonni adolatga, saroy ahlini aql-donish bilan rahmdil bo`lib ish ko`rishga chaqiradi. Nodira bir tomondan, badavlat hayot kechirayotganligi uchun o`zini baxtiyor deb biladi va ikkinchi tomondan, qashshoq, yalang`och va azob-u uqubatda parcha nonga zor va xor bo`lib yashayotgan kishilarni ko`rib, ularning baxtsizligiga achinadi.

Nodiraning ko`pchilik g`azallari muhabbat mavzusida yozilgan bo`lib, u ijtimoiy-axloqiy fikrlarini, zulm-zo`rlikdan norozilik to`yg`ularini mazkur g`azallarga singdirib yuboradi. Shoira muhabbat haqidagi qarashlarini ifodalaganida o`z zamonasidagi voqea va hodisalarga, ko`zga yaqqol chalinib turgan faktlarga ham ishora qilib o`tadi.

Nodira muhabbatni odam uchun eng aziz va eng muborak, pok va samimiy tuyg`ular mujassami, oshiqning ma`shuqaga oshiqqa nisbatan iliq sevgisi, ikki dil va ikki tilning xohish va irodada, hurmat va samimiyatda birligi, hamjihatligi deb biladi. Shoira muhabbatsiz kishilarni odam qatorigaham qo`shmaydi:

Muhabbatsiz kishi odam emasdur,
Gar odamsan, muhabbat ixtiyor et...

Zohid va shayxlar, umuman ruxoniylar «Yor manzili, diydor manzili»ni jannatga o`xshatish va tenglashtirishni «xudo»ga shak keltirish islom aqidalarini buzishni kufr ish deb biladilar. Ular odamlarni «narigi dunyo»ga da`vat qiliyu, bu dunyoda orzu-havas qilish gunoh bo`ladi, deb uqtirar edilar. Nodira ularning ana shunday tashviqotlarini yoqtirmas, bu tashviqotlarni muhabbat ravnaqiga to`siq va sevishganlarning eng olijanob fazilatini so`ndirish deb bilar edi. Shu sababdan Nodira ular bilan murosa qilolmay, ularga qarshi tubandagilarni yozadi:

Tarki ishq et, dedi menga zohid,
Demadi hech telba muncha qabih. Yoki:
Bale, bir-biriga oshiq birla zohid
Mukashfdur nechukkim o`t bila yax.

Yoki

Topilsa, Nodira, bir shayxi orifi kashi,

Boshim havosin etay nazri ostonai shayx...

Nodira shayx va zohidlar ibodatining muhabbat ravnaqi uchun aloqa yo`qligini anglab, ularning jig`iga tegish uchun «jomi muhabbatni mabalab ichibon, ilq namozini ado» etmoqchi bo`ladi:

Nodira jami muhabbatni labalab ichibon,
Mastlik birla qilay ishq namozini ado...

Shoira paranji-chachvonni ham, qizlarning husn-jamoli, latofatini to`suvchi yuz yoping`ichlarning ham yoqtirmaydi. Bir vaqtlar Atoiy:

Kel, beniqob chiqqil uyungdin tom ustina,
Ahli zamona xo`blarini bir uyoldur-degan bo`lsa, Nodira:
Ko`zlarim mushtoqdur diydor uchun ruxsora och,
Pardani yuzdin ko`zim qilg`uncha bir nazzora och.
Pakdai nozu xayo xomush la`lindin ko`tar,
Ikki gul bargini bir-birdin guhar guftori och...-deb yozdi:

Nodira 30 yoshlarda ekanligida, 1822 yilda Umarxon vafot etdi. Erning vafoti, judalik va yolg`izlik Nodira she`riyatida hijron azobi motivlarini yanada kuchaytirdi. U umrining so`nggi yillarigacha yozgan she`rlarida qayta-qayta ayriliqning yomon oqibotlari haqida so`zlaydi:

Nodira gar vasli davronin g`animat bilmadi,
O`rtanur erdi xayoli shohi davron aylagach...

Yoki

Har kishining bir munosib yori bor,
Men o`shal ovoradurman yorsiz...

Nodiraning bundan keyingi hijron qo`shiqlari keng mazmun kasb etib boradi. Shoira Muhammad Ali va Sulton Mahmud nomi o`g`illari bilan beva qoldi. Uning taqdiri Umarxon bilan bog`langani uchun qaytadan turmushga chiqolmas, o`zi ham yangidan kimgadir erga tegishni istamasdi.Shu sababdan ham «pirohan» (odatdagi ko`ylak) o`rniga qora «qabo» (qora kamzul) kiyib olib, metall libosida judalik alamini ko`ylardi:

Domani yor ilikdan ketdi,
Nodira pirohanim bo`ldi qabo.

Shunday qilib, Nodiraning hijron mavzusida yozgan ko`pgina, olamli va hasratli g`azallari vujudga keldi.

Umarxonning vorislari yosh edi. Xonlikning idora ishlarini Nodira o`zi boshqara boshladi. Bu aqli, tadbirli ayolning faoliyati amaldorlarga, ayniqsa, din-shariat peshvolariga ma`qul tushmadi. Ular hokimiyatdagi Muhammad Alixon va ukasi Sulton Mahmudn bir-biriga qarama-qarshi qilib, Nodira hukmronligiga shikoyat yetkazishni istar edilar. Ularning qo`li ustun kelayotganidan Nodiraning «gardundin muruvvat» kutishi mumkin emas edi.

Shu sababdan ham ayriliq kuylari shoira «dardi dili»dan sado berar edi:

Yordin ayiruv meni bedilni zor etti falak,
Yoshurun dardi dilimni oshkor etdi falak.
Nodira, ko`z to`tma gardundin muruvvat kim base,
E`tibori dahrni be`tibor etdi falak.

Nodira uchun endi faqat bir yo`l qolgan edi; u xonlikni qattiq turib idora

qilishga, olimu fozil, shoir va shoiralarni, ko`proq to`plashga, iloji boricha, madrasa, karvonsaroy va yo`llar qurdirishga qaror berdi. Nodira ana shunday maqsad bilan «Mohlaroyim» nomida madrasa qurdirdi, binolar tikladi, she`riyat va adabiyot ishiga rivoj berishga kirishdi. Nodiraninghukmronligi zamonida yozilgan «Yetti gulshan» kitobining muallifi Nodir bu haqda quyidagilarni yozgan edi:

Aningdek kelmagay dahr ichra oyim,
Aning ko`ngli saxovat birla doim.
Surubon keltirib ahli fazoyil
Yig`ildi dargohida har qaboyil.
Barisi she`r ichra erdi mohir,
G`azal demoqqa barcha erdi shoir...

Nodira donishmand ayollarni ko`proq to`pladi, ular bilan kengashdi, maslahatlashdi. Nodiraning «Maknuna» taxallusi bilan yozgan she`rlarini to`plab ko`chirgan kotib-shoira «devon muqaddimasida keltirgan she`riyta`riflardan birida Mavlono Nodirning fikrlarini tasdiqlab, mana bunday deb yozgan edi:

Iqbol yoft fahmi maoni zi fitratash,
Ravnaq girift she`r ba davru zamon o`...

Bu davrda Shoira Uvaysiy ham o`z ijodiy ishini davom ettirib, bir necha dostonlar, jumladan «Voqeoti Muhammad Alixon» manzumasini yoza boshladi. Yetmish yashar keksa shoir Malono Nodir esa o`nlab she`r va «Haft gumian» asarini bunyod etib, yuqorida aytib o`tkanimizdek adolatli shoh, soxiy hukmdor, donishmand olim, haqiqiy oshiq va ma`shuqlar timsolini yaratdi. Nodiraga tuhora qilingan bu asar o`sha davr o`zbek adabiyotida muhim voqea edi. Bu davrda Nodiraning o`zi ham she`r yozishnini to`xtatmadi. O`zbekcha Nodira va Kamila, tojikcha Majnuna taxalluslari bilan g`azallar bitdiva devonlar tuzdi.

Fors tojik tilidagi she`rlari qisman tahlil qilingan she`rlari uning o`zbekcha va tojikcha devonlarida keltirilgan. Tojikcha devon muqaddimasida noma`lum kotib shoiraning Mohlaroyim fazilatlari va xizmatlari haqida «Kamal dengizininggavhari, izzu iqbol sadafining durri noyobi, ul xotinlar toji» degan so`zlari; shuningdek, Nodiraning o`zbekcha va tojikcha «yoqimli va shirin-shirin she`rlar» yozgonligi haqidagi qoydlar muhim ahamiyatiga egadir. Chunki shu «Majmua» (devon)da keltirilgan she`rlar muqaddimada qayd etilgan fikrlarni to`la tasdiqlaydi.

5000 misradan ko`proq bo`lgan 333 she`rni o`z ichiga olishi bu «Devon»dagi g`azallarning birida Nodira: «Men gavharlikda Jayhun daryoga etsam ham, bir qatra suvman, qadru martabada osmonga etsam ham, bir zarra to`proqman» deb quyidagilarni yozadi:

Qatram obam gor az gavhar ba Jayhun merasam,
Zarram xokam gar az riv`at ba gardun merosam.

Bu yurak so`zlari Maknunaning olijanoblik, kamtarlik fozilatlaridan darak beradi. Katta falsafiy fikrlar bilan to`la bo`lgan bu «Devon»dagi she`rlarning birida shoira:

To buvad pai jahdi Maknuna

Az sari justujo` nagardam boz

(Maknunaning oyoqlari harakatda ekan, izlashdan qolmaydi),-desa, boshqa bir she`rida:

Umid hast ki, subhi umedi birasad,
Nihoyati shabi zindoni balo birasad.

(Umidimiz borki, iqbol quyoshi chiqajak, zindon qorong`uliklariga ham nihoya etajak»,-deb yaxshi kunlarni orzu qiladi.

Mohlaroyimning yaqinda Namangandan topilgan yangi devoni hijriy (milodiy 1824) yilda tuzilgan bo`lib, unda shoirning Nodira Kamila, Maknuna taxalluslari ilan bitilgan o`zbekcha va tojikcha 120 she`ri keltirilgan. Devonda Xotir, Xoziq, Gulxaniy, Miskin, Dabir, Mushrif, Fazliy she`rlari bilan birga, xozirgacha adabiyotshunosligimizda noma`lum bo`lgan shoir Nodirning 111 g`azali ham bor. Muhimi shundaki, bu devonga Navoiyning «Ko`ngil jon birla bo`ldi hamrohing, men dard ila turdum», Mullo Abduqodir Bedilning «Ilohi pora tamkin deh dami vahshi nigohonro» kabi g`azallariga shoira tomonidan bog`langan muxammaslar ilova qilingan.

Devondagi 103 banddan iborat muxammaslar, 11 bandlik ikki musaddas, 5 bandlik bir musamman, 8 bandlik tarkbband va 10 bandlik muashshar (har bandi 10 misradan iborat) shoirning faqat g`azal jonrida emas, balki boshqa xilma-xil janrlarda ham mahorat bilan qalam tebratganini ochiq ko`rsatib turadi. Misol uchun shoiraning firoqnama tarzidagi muashsharidan bir bandini ko`zdan kechiraylik:

Ohkim behad menga javru jafo aylar falak,
Furqat ichra qismatim dardu-balo aylar falak.
Yordin ayru mango ko`p mojaro aylar falak,
G`am bila guldek yuzumni kahrabo aylar falak.
Bevafodir oqibat, kimga vafo aylar falak,
Hasratu dordu alamga mubtalo aylar falak,
Yorning albatta yoridin judo aylar falak,
Gul bila bulbulni bebargu navo aylar falak.
Hech kim yorab jahonda yoridin ayrilmasun,
Jondin ortuq mehribon dildoridin ayrilmasun.

Bu misralardan ayonki, she`riyatning har qanday formasida ham o`z fikrlarini ravon ifodalay olgan shoira, boshiga qanchalik kulfatlar tushmasin, umid tonglariga etmoqchi, qorong`u zindon oqshomlaridan yorug`likka chiqmoqchi bo`lgan. Shoira qandaydir ilm, ma`rifat va madaniyat rivojiga yo`l beruvchi sharoitlarga intilgan.

Albatta, Nodira o`z sinfiy pozitsiyalaridan tamomila voz kechmagan edi. Uning amaliy faoliyati shubhasiz o`zi mansub bo`lgan feodal sinfining hokimiyatini mustahkamlashga qaratilgan edi. Lekin u har doim adolat, sulxparvarlik va xalqparvarlik nuqtai nazaridan ish ko`rar edi. Ammo uning bu jur`atlari ruhoniylarning g`azabini qo`zg`amay qolmas edi. Ular o`zlarining eng yaqin tayanchlari bo`lgan Buxoro amiri Nasrulloxonga takror-takror murojaat etib, Nodirani o`rtadan olib tashlashni so`raydilar.

Nodiraning Tarix kitoblarida keltirilgan fojiasi dalillaridan ma`lumki, amir

Nasrullo, dastlab, Muhammad Alixonga teskari borgan ukasi Sulton Mahmudga Shahrisabzdan «tak`yagoh» beradi. So`ngra uni Xo`jandga hokim qiladi.Nodira anchadan keyin aka-ukani yarashtirib, Toshkent taraflarini Sulton Mahmudga, paytaxt Qo`qonni, Xo`jandni, umuman Farg`ona vodiysini Muhammad Alixonga beradi. Bu haqda Muhammad Fozilbek Muhammad Otabek o`g`li «Tavorixi mukammoli Farg`ona» nomli kitobida quyidagilarni yozadi:
«Amir (amir Nasrullo-V.A) ketgandan so`ng Muhammad Alixon onasi Xujand kelib, kichik, kichik o`g`li Sulton Mahmudxonni akasi Muhammad Alixon birla yarashtirib Sulton Mahmudxonni Tashkentga hokim aylab, o`zi Xo`jandg`a ketdi».
Bundan g`azablangan amir Nasrullo 1842 yilda katta qo`lin tortib Qo`qonga bostirib keladi va Muhammad ham, Sulton Mahmudni ham, shoiraning 12 yoshli nabirasi Muhammad Aminni ham so`ydiradi. Nodira begunoh nabirasining jasadi ustida dod-faryod ko`tarib, amir Nasrulloga la`natlar yog`diradi. Shundan keyin amir Nasrullo Nodirani ham uning eng yaqin mahramlari (Xushholbibi, Norbibi kabilar) bilan birgalikda. O`ldirtiradi.
Nodiraning fojiasi haqidagi ma`lumotlar shoir Mutribning «Shohnomai devona Mutrib» dostonida, Muhammad domlo Attorning «Tuhfat-ut-tavorix» kitobida, Mirzo Olimning «Ansab-ussalotini va tavorixi xavoqin» kitobida, samarqandlik Mir Abdul hayxojaning bir kitobida hambayon qilingan.

Umri ana shunday mudhish fojia bilan tugagan Mohlaroyim-Nodiraning she`rlari o`zbek va tojik she`riyatining muhim durdonalaridandir. Shoira Nodira so`z san`atining mohir ustasi sifatida misralarni badiylashtirishga, ma`nomazmunning ifodasiga mos usullar qo`llashga, talmeh, tazmin, mukarrar, husni ta`lil va tazod san`atini to`g`ri ishlata bilishga qobil edi. Shoira faxriya usuli bilan yozgan quyidagi misralarida:

Bo`lubtur Nodira mumtozi ma`ni,
Kalomi ravshanu ash`ori farrux...

Deyishga haqli edi. U she`riy ifodada «mumtoz»liklar ko`rsatib, «ravshan kalam»lar ishlatib, ijodiy mehnat qilib, she`riyatda tarix sahifasidan o`chmaydigan «neknom» qoldirdi:

Xusho oqilki, aylab yaxshilik bunyodini mahkam,
O`tar bu dayri foniydin o`zini neknam aylab...

10-mavzu. Xorazm adabiy muhiti

Reja:

1. ***O'sha davr muhiti***
2. Xorazm tazkiranavischiligi
3. A.Bahodirxon ijodi

Xiva adabiy muhiti Xiva xonligi saroyida shaklllandi, taraqqiy topdi. Uning gullab yashnagan davri XIX asrga to‘g‘ri keladi. Bu asrda Xorazmda madaniyatning turli yo‘nalishlari rivojlana boshlaydi. Musiqa va musiqashunoslik takomili, teatr san'atining ko‘rinishlari bazm, sayl, masxarabozlik, marosim shakllarida ko‘zga tashlanadi.

Kitobat va xattotlik san'atining o‘ziga xos maktabi vujudga keladi. Ko‘p qo‘lyozmalar ko‘chiriladi. Kotiblar bu ishda ularning janr xususiyatlariga ham e'tibor berganlar. "Bayozi g‘azaliyot", "Bayozi muxammasot" kabi alohida janrlardan iborat qo‘lyozmalar ham ko‘chirilgan. Devonlar jamlangan. Eng muhimi xattotlik san'atining nazariy-ilmiy qoidalariga bag‘ishlangan maxsus risolalar ham yaratilgan (Munis. "Savodi ta'lim" risolasi).

Tarjima ishlariga katta e'tibor qaratildi. Jahon adabiyotining ko‘plab nodir namunalari arab,fors,usmonli turk tillaridan o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girildi. XIX asrda 170 dan ortiq noyob asarlar tarjima qilingan. Birgina Ogahiyning 20 ga yaqin badiiy,tarixiy,ilmiy-axloqiy asarlarni tarjima qilishiyoq, bu davr tarjimachilik miqyosini ko‘rsatib bera oladi. Ogahiy Xorazmda erkin tarjima maktabini shakllantirdi. Tarjimachilikni takomillashtirdi.

Tarjima bilan bog‘liq ravishda adabiy aloqalar ham rivojlandi. Jomiy, Bedil, Fuzuliy, Sa'diy kabi qardosh xalq shoirlarining asarlari ham muxlislarni o‘ziga rom eta oldi.

Tarixnavislik yangi bosqichga ko‘tarildi. Ularni yaratish Munis, Ogahiy, Bayoniy misolida silsilaviy tus oldi. Abulg‘ozi an'analari munosib davom ettirildi. Daho shoirlarimiz mahorati tufayli tarixiy asarlar o‘zbek nasrining ham noyob namunalariga aylandi.

Litografiya, kino san'ati kirib keldi.

Tazkiranavislikka e'tibor berildi. Ahmad Tabibiy tomonidan yaratilgan «Majmuat ush-shuaro» tazkirasi, Bayoniy tuzgan "Haft shahzoda" nomli majmualar bu davr adabiy muhiti va adabiyot ko‘lamini yoritishda muhim ilmiy qimmatga ega. Laffasiy tomonidan yaratilgan tazkira ham davr adabiy jarayonini tasavvur etishimizda asosiy manbalardan. SHu bilan bir qatorda, ushbu tazkira, majmualar adabiyotshunoslik tarixi, unga oid asarlarning yaratilish sabablari va jarayonlari haqida ham ma'lumot beradi. Jumladan, Laffasiy o‘z tazkirasida Muhammad Rahimxon II ning nevarasi Saidnosir To‘ra Sultoniy hayoti va ijodi haqida yoza turib shunday xabar beradi:"Feruzshohiy dog‘i ko‘b she'rlarini muvofiqi tab' ko‘rub Muhammad Yusufbek Bayoniyg‘a farmon qilib, tamomi "Haft shahzoda" ismida bir majmua – devon chof qildiradur".

Xiva adabiy muhitida Navoiyga ehtirom, uning an'analarini davom ettirishga intilish kuchli edi. Navoiy asarlariga ko‘plab tatabbular, taxmislar yaratildi. Dostonchilik taraqqiyotida ham Navoiy dostonlariga ergashish ko‘zga tashlanadi. SHoir dostonlarining nasriy bayonlari (Umar Boqiy "Nasri xamsayi benazir") maydonga keldi. Xalq kitoblari yo‘nalishidagi "Sanobar", "Oshiq G‘arib va SHohsanam", "Yusufbek va Ahmadbek" kabi dostonlar ham yaratildi.

Mashhur adib, tarixchi olim va davlat arbobi, turkiy xalqlar shajarasining yaratuvchilaridan **Abulg‘ozi Bahodirxon** Xiva xoni Arabmuhammad oilasida (1603) tug‘ildi. Abulg‘oziyning otasi Arab Muhammadxon, onasi Mehribonu xonim bo‘lib, Jong‘ozi sultonning qizi bo‘lgan.U 6 yoshiga kirganda onasi vafot etadi. Abulg‘oziy 16 yoshigacha Urganchda otasi qo‘lida tarbiyalangan. Berilgan ma'lumotlarga ko‘ra Arab Muhammadxon, Abulg‘oziyxon, Asfandiyor va SHarif Muhammadlar bilan Habash va Elbars o‘rtasida nizo kuchayib ikki orada urush voqe' bo‘ladi. Ushbu urushda engilgan Arab Muhammadxon qo‘lga tushadi va ko‘zi ko‘r qilingan. Mashaqqatlar bilan suvdan kechib o‘tgan Abulg‘oziy avval Katga, so‘ngra Buxoro-ga, Imomqulixon huzuriga qochib borgan. Xonning boshqa o‘g‘illari esa Isfandiyor sulton, SHarif Muhammad sulton va Xorazmshoh sulton Xazaraspga borganlar va uning mustahkam qal'asiga yashiringanlar. Habash bilan Elbars qirq kunlik qamaldan keyin og‘asi Isfandiyor, inilari Muhammad sultonga Katni in'om qilgan. Xorazm-shoh sulton bilan Afg‘on sultonni Xivaga jo‘natgan. Biroq Isfandiyor sulton Makkaga bormadi, u to‘g‘ri Isfaxonga, shoh Abbos 1 huzuriga boradi va uning yordami bilan 1623 yilda Xiva taxtini egallagan. Abulg‘oziy bundan xabar topib, shu yiliyoq Xorazmga qaytib bordi. Isfandiyorxon unga Urganchni beradi. Oradan to‘rt yil o‘tib, 1627 yili xon bilan oralari buzilib, Abulg‘oziy Turkistonga Eshimxon huzuriga qochib borgan. Ko‘p o‘tmay uni Tursunxon Toshkentga olib keladi.O‘n uch yoshligidan (1616) boshlab, toj-taxt uchun kurashlarda ishtirok etgan. Abulg‘ozi 1644 yilda Xorazm taxtini egallaydi, 20 yil hukmronlik qiladi, 1644 yil aprelda vafot etadi.

U SHarafiddin Ali YAzdiyning "Zafar-noma", eronlik mashhur tarixchi Rashididdinning "Jome'-ul-tavarix" ("Tarixlar majmuasi"), Binoiynin "SHayboniynoma", Mirxondning "Ravzotus-safo", Boburning "Boburnoma", Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdulla-noma", Gulbadanbegimning "Humoyunnoma", Muhammad Solihning "SHayboniynoma" asarlari, Xondamir, Zayniddin Vosifiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Juvayniy, Ibn Arabshoh kabi muarrixlarning kitoblarini o‘qib chiqish baxtiga muyassar bo‘lgan.Abulg‘oziy o‘z davriga qadar Xorazmga oid durust-roq bir tarix kitobi bo‘lmaganligi uchun XVI – XVII asrlar voqealariga bag‘ishlangan tarixiy kitobga ehtiyoj sezadi. Ana shunday niyatda u katta ishtiyoq bilan "SHajarayi tarokima" ("Turkmanlar tarixi" yoki "Turkmanlar shajarasi" 1661 y.) va "SHajarayi turk" ("Turk sulolasi tarixi" yoki "Turklar shajarasi" 1664 y.)kabi nodir asarlar yozdi va Xorazm tarixnavislik maktabiga asos soldi. Muallif "SHajarayi tarokima" ("Turkmanlar shajarasi") asarida turkiy qabilalarning, xususan, turk-man xalqining kelib chiqishi haqida qimmatli ma'lumot-lar beradi. Asarda barcha turkiy xalqlarning afsonaviy podshosi O‘g‘uzxon va uning avlodi, tarixi, shuningdek, turkman urug‘lari (solur, boyandur, taka, yovmut, tevachi, hizr eli, sariq, Ali eli, yozir, ersori va

boshqalarning) kelib chiqishi qisqa tarzda bayon etilgan. Ushbu asarda turkman xalqi yaratgan ko‘pgina rivoyat va hikoyatlar, afsonaviy o‘g‘uz-turkman, Dada Qo‘rqut haqidagi ertak va afsonalar, she’rlar o‘rin olgan.SHuningdek, asarda tarixiy etnogenezini ko‘rsatib o‘tilgan va o‘zbek hamda turkman xalqlari o‘rtasida inoq-lik o‘rnatilishi ta’kidlangan.Ushbu asar XVI – XVII asrlar tarixini tekshirish vao‘rganishda muhim tarixiy manba sifatida hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Abulg‘ozining “SHajarayi tarokima” va “SHajarayi turk” nomli tarixiy asari hamda “Manofe’ul-inson” nomli tibbiyotga oid risolasi etib kelgan. “Manofe’ul-inson”da 120 dan ortiq xastalik, uni davolash haqida ma’lumot berilgan.

“SHajarayi tarokima” (1661) turkman xalqi ajdodlari, “SHajarayi turk” (1663-64) o‘zbek urug‘lari haqida. “SHajarai turk” to‘qqiz bobdan iborat. Tarixiy voqealar badiiy bo‘yoqlar, hayotiy lavhalar orqali tasvirlangan.

Asar sharq, rus va g‘arb olimlarining ham e’tiborini tortgan. Qozonda bir necha marta nashr etilgan (Rumyantsev nashri, 1825; Sablukov nashri, 1854.; Demezon nashri, 1871) T.N.Demezon asarni fransuz tiliga tarjima (1871) qilgan. Asar fransuz, ingliz xalqlari orasida keng tarqalgan.

“SHajarayi turk” va “SHajarayi tarokima” asarlari turkman, tojik, o‘zbek, mo‘g‘ul xalqlari tarixini yoritishda tayanch manbalardandir. B.Ahmedov, Q.Munirov, K.Yusupov, Y.G‘ulomov, M.Yo’ldoshev kabi olimlar Abulg‘ozi ma’lumotlaridan keng foydalanishgan. A.N.Kononov, A.M.Sherbak, S.I.Ivanov kabi tilshunos olimlar Abulg‘ozi asarlariga suyanishgan. O.Sharafiddinov, M.Yunusov, V.Abdullaevlar adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishgan. Abulg‘ozi Bahodirxon asarlarining O‘zbekiston FA SHarqshunoslik instituti fondida bir qancha qo‘lyozma nusxalari mavjud (inv. № 7668, 1223, 4017).

Savol va topshiriqlar:

1.Muallif “SHajarayi tarokima” asarida qanday ma’lumotni aks ettirgan?
2. “SHajarayi tarokima” asarini kim tarjima qilgan?
3.Muallifning qaysi asarida O‘g‘uzxonning yigirma to‘rt nevaralari ismlarining ma’nolari zikr etilgan?

Adabiyotlar:

1. SHajarayi turk: O‘rta va katta maktab yoshidagi bolalar uchun /Mas’ul muharrir va so‘z boshi muallifi B.A.Ahmedov; Nashrga tayyorlovchilar: Q.Munirov, Q.Mahmudov.-T.: CHo‘lpon, 1992.
2. V. Abdullaev. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1975.
3. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 3-jild. Toshkent, 1978.

11-mavzu. Nishotiy hayoti va ijodi

Reja:

1. ***"Husnu Dil" dostonining yozilish tarixi va an'analari.***
2. ***Dostonning mazmun va tuzilishi.***
3. ***Asarning g'oyaviy xususiyatlari.***
4. ***Timsollar tizimi.***
5. ***Dostonda badiiiy mahorat qirralari.***

Muhammadniyoz Nishotiy XVIII asr o'zbek adabiyotining Xorazmdagi ko'zga ko'ringan, iste'dodli vakillaridan biridir. Uning eng yirik asari "Husnu Dil" dostonidir. U 1778 yilda Buxoroda yozilgan. Asarning yozilish tarixiga oid ba'zi fikrlar dostonning kirish va xotimasida berilgan. Unda e'tirof etilishicha, bir do'stining maslahati bilan besh oyda yozilgan ekan.

Baytki taxminan erur etti yuz,
Etti mingu to'qson iki bo'ldi tuz.
Kisvati nasr ila bo'lub ziynati,
YOna arab lafzi edi xil'ati.
Rum eli ham nasr ila onga nigor,
O'z tilidin etkon ekon ixtiyor.
Dedi mungo nazm duri birla zeb,
Bergil, ulusdin olib avval shikeb.
Bo'yla degoch fotiha qildim talab,
Tutgum o'zimga neki erdi taab.
Qildim oni nazm qilurg'a qiyom,
O'tti mashaqqat bila besh oy tamom.

Yuqorida shoirning o'zi ta'kidlaganidek, Husn va Dil sarguzashtining syujeti SHarq adabiyotida mashhur bo'lib, fors-tojik, arab, turk tillarida bir qancha nasriy asarlar yozilgan.

XV asr fors-tojik adabiyotining yirik vakili Fattohiy Nishopuriy "Hikoyati Husnu Dil" asarini yozgan.

XVI asr oxirida Mushfiqiy shu syujet asosida "Gulzori Eram" asarini yaratdi. Bundan tashqari, Ali Ohiy, SHayx g'oliblar ham shu mavzuda asarlar yaratishgan. Bularning har biri o'zicha yangi, mazmun-g'oya jihatidan ham, badiiylik jihatidan ham mustaqil asarlardir.

"Husnu Dil" mazmun va tuzilish jihatdan ancha murakkab. SHoirning o'zi e'tirof etganidek, doston 15584 misradan, 62 bobdan iborat. Dastlabki boblar kirishni o'z ichiga oladi. 6- bobda shoir o'zining musofirchilikdagi g'arib hayotini aks ettiradi. 7-bobda dostonning yozilish sabablari haqida so'zlaydi. 8-bobda so'z qudrati borasida fikrlarini bildiradi. 9-bobda esa, "besh xazina" - "Xamsa" yaratgan ustoz shoirlar Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy va Navoiylarning so'z mulkidagi ulug' xizmatlari e'tirof etiladi.

SHoirning dostonda keltirilgan ayrim fikrlaridan "Xamsa"navis ustozlarga ehtiromini his etamiz. Nishotiy ham "Xamsa" yaratishni niyat qilgan. Besh

dostondan iborat "Xamsa" mualliflar soni ham beshta bo‘lishini orzulagan. "Husnu Dil" asarini dastlabki doston sifatida yaratgan.

10-bobda shoirning qalamga murojaati beriladi. 11- bobdan boshlab dostonning asosiy qismi boshlanadi. Har bir bobda avval qisqa nasriy mundarija berilib, keyin she’riy mazmun bayon etiladi. Doston syujetini, shoir g‘oyalarini mukammallashtirish maqsadida asar tarkibiga: 1. "SHahboz va Bulbul"; 2. "Gul va Daf"; 3. "Nay va Naxl"; 4. "Kosai CHin va Nargis"; "Binafsha va CHang" nomli beshta munozara va lirik chekinishlar ham kiritilgan.

SHoirning butun maqsad va g‘oyalari Husn va Dilning ishqiy sarguzashtlari dramasi zaminiga singdirilgan.

SHoir voqealar bayonida sof muhabbatni, yaxshi insoniy fazilatlarni kuylaydi. Sevishganlar dahshatli voqealarni boshdan kechiradilar. Maqsad yo‘lidagi to‘siqlarni sabr-bardosh va kurash bilan engib tinchlik, birdamlik, mehr-oqibat, muhabbat, baxt tantanasiga erishadilar. Bu doston uzoq yillar insoniy muhabbatni kuylovchi, markazlashgan davlatni quvvatlovchi asar deb baholanib kelindi. Bu fikr to‘g‘ri. Ammo, faqat shu bilan cheklansak, shoir nuqtai nazarini to‘liq anglamagan bo‘lamiz. Dostonning mohiyatiga chuqurroq yondashadigan bo‘lsak, uning mafkuraviy miqyosi kengroq ekanligini tushunamiz.

"Husnu Dil"da shoir ham majoziy, ham haqiqiy ishq tilsimlarini so‘zlashga erishadi. Asardan Xos va Avom barobar manfaat topadi. Tasavvuf ta’limotining bosh g‘oyasi – Olloh diydoriga etish. Asarda bu yo‘l badiiy obrazlar vositasida bayon etiladi. Bu esa o‘z navbatida murakkab nazariy ma’lumotlarni tushunishni osonlashtiradi. Buni Nishotiyning o‘zi ham e’tirof etadi.

Demak, shoir o‘zi ta’kidlaganidek, doston tasavvuf ta’limoti g‘oyalarini ham targ‘ib etuvchi asardir. Donishmandlarimiz tasavvuf o‘zidan o‘lib, o‘zi birla tirilish yo‘lidir, deyishgan. Bu inson o‘zligini anglashi, o‘zligini topishi uchun nafsoniy intilishlarni, vujudiy qafaslarni sindirib borishi kerak, demakdir. Inson ana shundagina g‘olib keladi. Kamolotga erishadi. Barkamollik esa kishini mo‘‘tabar martabaga ko‘taradi. U olamning va odamning mazmun-mohiyatini anglash sharafiga muyassar bo‘ladi:

O‘zlukidin qolmasa oning asar,
Bilgusidir parda ichidin xabar.

Barkamollik - nafsoniy havaslarni engish yo‘li. Bu esa engil ish emas. Uning uchun kishida ulkan jasorat, qanoat, iroda, sabr, intilish va intihosiz ishq mavjud bo‘lishi kerak. SHundagina mashaqqatli yo‘lni engib o‘tib, oliy maqsadga etish mumkin. Nishotiy ana shu kamolotga erishish bosqichlarini voqealar rivoji orqali ifodalashga harakat qilgan. Bosh obraz Fuodning Husn diydoriga etishguncha boshidan kechirgan mashaqqatli sarguzashtlari dostonning asosiy g‘oyasiga xizmat ettirilgan. Hatto, «Husnu Dil» timsollarining nomlanishi ham chuqur mazmunga ega. Ular majmuini yaxlit bir jism deb qarashimiz mumkin. Masalan, Fuod (arabcha-ko‘ngil)- ko‘ngilning "Qal’ai jism"da yashashi, Husnning "Qal’ai diydor"da yashashi. Ko‘ngilga tushgan ishq-muhabbatning husnga, diydorga erishguncha orada turgan to‘siqlar, iztiroblar – bularning hammasi ramziy ma’nolarni anglatishi o‘z-o‘zidan ayon ko‘rinib turibdi. Aql, Husn, Ishq, Dil, Nazar, Himmat, Sabr, Vafo, Xayol, g‘amza, Raqib, Nomus va

boshqa obrazlar nomlanishida ham buni sezish mumkin. Dostondagi "Obi hayot" obrazi ham ramziy ma’no kasb etadi. Abadiy hayot baxsh etuvchi suv "SHahri diydor"da. Qachonki, zahmatlarni engib Diydorga erishgandagina abadiylikka muyassar bo‘lish mumkin:

Ya’ni qaro qayg‘ug‘a qilg‘on sabot.
Topg‘usidur istasa obi hayot...

Nishotiyning mahorati faqat doston syujetidagi ko‘pma’nolilikda, teranlikda emas, balki asarning badiiy barkamolligida ham ko‘zga tashlanadi. Ko‘plab she’riy san’atlardan mohirona foydalanadi. Xalqona, hikmatomuz iboralarni, maqollarni o‘rinli ishlatadi. Tabiatdan takrorlanmas, yangi o‘xshatishlar topadi. Tazod, husni ta’lil, tashbex, mubolag‘a san’atlarining nodir namunalarini yaratadi.

Savol va topshiriqlar:

1. "Husnu Dil" dostonini mutoala eting!
2. Dostonning syujet va tuzilishi haqida so‘zlang!
3. Asarda qanday g‘oyaviy yo‘nalishlar bor?
4. Dostonning timsollar tizimi haqida so‘zlang!
5. Asar tarkibidagi munozaralar va ularning ahamiyatini qanday tushunasiz?
6. Dostonning badiiy xususiyatlari haqida so‘zlang!

Adabiyotlar:

1. Muhammadniyoz Nishotiy.Husnu Dil. Lirika. Toshkent, 1967.
2. V. Abdullaev. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1975.
3. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 3-jild. Toshkent, 1978.
4. Qosimova M. Muhammadniyoz Nishotiy. Toshkent, 1975.
5. Ayyomiy. O‘t chaqnagan satrlar. Toshkent, 1975.
6. Valixo‘jaev B. O‘zbek epik poeziyasi tarixidan. Toshkent, 1978.
7. Abduvohidova M. Nishotiyning "SHahboz va bulbul" munozarasi. "Adabiy meros", 1976 yil, 3- son.

12-mavzu. Munis Xorazmiy ijodiy merosi

Reja:

1. SHermuhammad Munisning hayoti va ijodi.
2. Xorazm adabiy muhiti va Munis ijodi.
3. Munis lirikasi.
4. Munis – tarixnavis.

Munis Xorazmiy (taxallusi; asl ism-sharifi SHermuhammad Amir Avazbiy o‘g‘li) (1778 – Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘i – 1829) – shoir, tarixnavis, tarjimon, xattot va ma’rifatparvar. Dastlabki ma’lumotni tug‘ilgan qishlog‘ida olgan, keyinchalik Xiva madrasalarida o‘qigan. 1800 yilda otasi vafot etgach, Avaz Muhammad Inoq Munisni saroyning farmonnavis kotibi qilib tayinlagan. Munis zamonasining mashhur olim, shoir va san’atkorlari bilan yaqin aloqada bo‘lib, bilimi, salohiyati va kuch-quvvatini she’riyatga, ilm-fan va ma’rifatga bag‘ishlagan.

Munis 1804 yilda birinchi she’rlar devoni – «Devoni Munis»ni yaratgan. 1806 yilda Eltuzarxon Munisga Xiva xonligi haqida kitob yozishni topshirgan. Munis o‘z asarini SHerg‘ozixon davrigacha yozib etkazganda, Eltuzarxon fojiali halok bo‘ladi. Munis kitobini davom ettiradi va 1819 yilda Mirxondning «Ravzat us-safo» («Soflik bog‘i») tarixiy asarini turkiy tilga tarjima qilishni boshlaydi. Munis bu asarning 1-jildini tarjima qilishga ulguradi. U bu ikki asarni ham tugata olmay vafot etadi. Uning «Firdavs ul-iqbol» («Baxtlar bog‘i») asarini va «Ravzat us-safo» tarjimasini shogirdi Ogahiy nihoyasiga etkazadi.

Munisning «Firdavs ul-iqbol» asari uzoq davrni qamrab olgan bo‘lib, Markaziy Osiyo, ayniqsa, Xiva xonligi tarixini o‘rganishda qimmatli manbadir.

Asarda Xorazmning qadimiy davri bilan bir qatorda, Xiva xonligining 1825 yilgacha bo‘lgan siyosiy tarixi bayon etilgan, toj-taxt, boylik uchun olib borilgan kurashlar va, shuningdek, Xiva xonlarining qo‘shni turkman va qoraqalpoq xalqlari bilan bo‘lgan munosabatlari haqida ham ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Asar muqaddima, 5 bob va xotimadan iborat.

1-bobda Odam Atodan to Nuh payg‘ambar avlodigacha bo‘lgan qodisalar yoritilgan.

2-bobda Yofasdan Qo‘ng‘irot sho‘basigacha bo‘lgan mo‘g‘ul hukmdorlari davri xususida fikr yuritilgan.

3-bobda Kurlos avlodiga mansub podshohlar davrida sodir bo‘lgan voqealar to‘g‘risida yozilgan.

4-bobda Eltuzarxonning ota-bobolari xayoti tasvirlangan.

5-bobda Eltuzarxonning tug‘ilishidan bu asarning yozilib tamom bo‘lishiga qadar bo‘lgan voqealar xususida qalam tebratilgan. Xotima esa olimlar, avliyo, amir, bek, shoir, hunarmandlar haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Munis o‘z davridagi sug‘orish inshootlari va er-suv munosabatlariga doir «Arnalar» (arna-anhor, kanal) nomli risola ham yozgan. Bu risola 18-asr oxiri va 19-asr boshlaridagi dehqonchilik bilan bog‘liq, ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishda ahamiyatli.

Munisning asosiy adabiy merosi – 1815–20- yillarda tuzilgan «Munis ul-ushshoq» («Oshiqlar do‘sti») devoni g‘azal, muxammas, kasida, ruboiy, qit’a va boshqa janrlardan iborat bo‘lib, 20000 dan ziyod misrani o‘z ichiga olgan. U xattotlar tomonidan qayta-qayta ko‘chirilib, 1880 yilda Xiva toshbosmasida nashr etilgan.

Munis Navoiyning «Mezon ul-avzon», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» asarlarini kitobat qilgan (1794, 1797). Ayniqsa, «Mezon ul-avzon»ni oldingi ayrim xattotlar yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatib, savodli ko‘chirgan. Bu uning aruz ilmining xos bilimdoni ekanligidan ham dalolat beradi.

Munisning savod chiqarishni engillatish va xusnixat san’atini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan «Savodi ta’lim» (1804) she’riy risolasi ham bor. Devonlarining bir necha qo‘lyozma nusxalari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi SHarqshunoslik instituti SHarq qo‘lyozma asarlari fondida saqlanadi.

Adabiyotshunosligimizda Munis hayoti va ijodiga doir ko`plab ishlar qilindi.

Chunonchi, shoirning ijodiy merosiga aloqador bo`lgan qo`lyozma va litografik asarlar Xiva, Urganch, Samarqand, Buxoro va Dushanbe kutubxonalarida, ayniqsa Toshkentda ko`proq to`plandi. Munisning adabiy faoliyatiga doir bir necha maqola va tadqiqotlar bunyodga keldi. Dissertatsiyalar yozildi. Munis asarlari majmua va darsliklarga antologiya va to`rt tomlik “O`zbek adabiyoti”ga kiritildi. Shoiring o`n ming misragacha she`ri aloo`ida “Devon” qilib nashretildi.

Bulardan ko`rinadiki, Shermuhammad Munisning ijodi keng o`rganilmoqda.

Hozirda Munis ijodining namunalaridan keng kitobxonlar ommasiga yetkazishda katta yutuqlar qo`lga kiritildi.

Munis asosan lirik shoirdir. Devonining nomidan ko`rinib turibdiki, she`rlarining asosiy qismi muhabbat taronalaridir. Shoir ijodida ijtimoiy-siyosiy va falsafa mavzusidagi asarlar g`oyat siyrakdir. Munis talqinicha, she`r jahon xalqlari dillarini oson zabt eta oladigan eng qudratli quroldir. U bitmas tuganmas buloq, qulash nimaligini bilmaydigan buyuk koshona, bag`ishlov she`rlar kishilarni abadiylashtiruvchi mislsiz vositadir. Shoir haqli ravishda she`r va uning manbaini adabiyotga dao`ldor xodisalar sifatida belgilaydi. Munis aksariyat g`azallari nio`oyasida she`riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy ruo`ida ko`mak va tarbiya kutadi. Munis ijodida ko`plab talmeh sa`atiga murojaat qiladi. U she`rlarida, g`azallarida tarixiy shaxslardan Navoiy, Sulton Xusayn, Mao`mud g`aznaviy, Firdavsiylarni keltiradi.

Munisning ko`p she`rlari musiqaga solinib, xofizlar tomonidan aytilmoqda.

Munis devoni asosan iloo`iy va insoniy muhabbat kechinmalari talqinidan iborat bo`lsada, san`at sankor moo`iyati ijtimoiy hayotning dolzarb masalalari aks etgan g`azallari ham uchrab turadi. Munis “So`z”, ”Shuaro” she`larida she`r va ijodkor qadr qimmati haqida qalam tebratadi:

She`r ul tig`i dudamdurkim, jahonni fatx etar,
Chekmayin lashkar gar olsa ilgiga har podshoo`.
She`r ul nemat erurkim, har necha bazm etsalar,
Lazzati ortar, dog`i qadrig`a topmas nuqs roq.

Munis qasida janrida ham barakali ijod qiladi. U qasidalarini asosan Avazbek inoqqa bag`ishlab unga maqtovlar yog`diradi. Munis ijodida jamiyat o`zgarishlari ham o`z aksini topadi. Muhammad Raximxon vafotidan so`ng hukmronlik uning katta o`g`li Olloquliga o`tadi. Munis hayotining keyingi to`rt yili Olloquli o`ukmronligi davrida o`tadi. Munis o`zining bu davrida yaratgan baytlarida Olloqulini mamlakat obodonligi, elementlar osoyishtaligi uchun harakat qilishga da`vat etish payida bo`ldi.

Muhammad Rahimxon hukmronligining ettinchi yili Munis o`z she`rlarini to`plab devon tartib bera boshladi. Devonga kiritilgan she`r turlari va baytlarining soni haqida shoirning o`zi "Munisul ushshoq" ning debochasida quyidagilarni yozadi. "...Garro qasidalar, dil gusho g`azallar, fasohatayin tarkibbandlar, latofat tazyin qit`alar, sharif musaddas va muxammaslar, latif ruboiy va muammolar, shirin masnaviy va g`amgin tuyug`lar va g`ayr ham taxminan olti ming baytdir".

Mumtoz poeziyaning xilma -xil turlari bo`yicha yaratilgan baytlari o`z ichiga olgan ana shu "Munisul ushshoq" devonining bir qo`l yozma, ikki tosh bosma varianti bor. "Munisul ushshoq" devonining muallifi O`zbek adabiyoti xazinasiga qimmatbaho durdonalar qo`shish yo`lida she`r san`ati ustida qanday ishlaganini she`rlarining mavzui doirasi g`oyaviy mazmuni, badiiy saviyasi qanday ekanini klassiklardan yoki zamondoshlardan kimlar unga ustozlik qilganini umumiy tarzda devonda o`n sakkizinshi she`rida ko`rish mumkin.

Ma`lumki, Munisning hayoti Xiva xonligiga saroy doirasi bilan bog`langan holda o`tdi. Lekin u saroy muo`itida yashagan bo`lsada, o`zining fikr hayoli bilan xalq tomoniga intilib, ish olib borgan. Binobarin devondagi she`larning mavzu doirasi g`oyaviy mazmunini ko`zdan kechirganda bunga aloo`ida e`tibor berib, shoirning davrga, o`ukmdor doiralarga, turli ijtimoiy guruhlarga, ilm hunarga, adabiyot madaniyatga, ishq-muhalbbat va do`stlik masalalariga bo`lgan qarashlarini kengroq va chuqurroq tekshirish lozim.

Munis feodal zulm avj olib, xalq og`ir ao`volda yashagan davrdan hukmdor doiralardan norozi edi. U o`zining anashu noroziligini ifodalovchi she`r va qit`alar yaratgan, ba`zan esa ishqiy lirik g`azallari ichiga norizolik ruhidagi fikrlarini qistirib ketgan. Munis mamlakat o`okimi va uning xalqqa qanday munosabatda bo`lishi kerakligi haqida o`z davri uchun muhim bo`lgan o`z fikrlarini olg`a surdi. qabilachilik, urug`aymoqchilik nizolarini qoraladi.

Shermuhammad Munis 18-asr oxiri va 19-asrning birinchi choragida Xivadagi adabiy muhitda yashab ijod etgan yetuk shoir va donishmand, tarixchidir.

U o`z davrida ro`y bergan ko`pgina voqea va xodisalarning guvoo`i bo`lgan muhokama qilgan va o`z qarashlarida xalqning hukmdorlar tomonidan ezilayotganligiga achingan va norizoligini ifodalagan. O`z she`rlarida hamda tarixiy asarlarida mumkin qadar xalqning o`imoyasini ko`zda tutgan xalqparvar va ma`rifatparvar shoirdir. Munis ijodida turmushning ko`p tomonlari shoirning xon, vazir va beklarga, shayx va zoxidlarga, shoir va olimlarga o`unarmandlar va boshqa mehnat axllariga bo`lgan qarashlari aks etgan.

Munis poeziyasida jaholat va nodonlikka, ilm-o`unarga e`tiqod, she`r va shoirga hurmat, pok vijdonli va vafodor ishq axllarini o`imoya qilish kabi motivlar asosli o`rinlarni egallaydi.

Savol va topshiriqlar:

1.Munis ijodining o'ziga xos jihatlari nimalarda qo'rinadi?
2. SHoirning qanday asarlarini bilasiz?
3. Munis ruboiylari, tuyuqlaridan tahlil qiling.
4. Munis va Ogahiyning ustoz-shogirdligiga doir dalilllar keltiring.

Adabiyotlar:

1. SHermuhammad Munis. Saylanma.-T.,1980
2. SHermuhammad Munis. Savodli ta'lim.-T.,1997.
3. Abdullaev V. Navoiy va Munis. Saylanma.-T.,1982
4. Jumaev N.Munis g'azaliyoti-.-T.,1991

13-mavzu. Ogahiy hayoti va ijodi

Reja:

1. Muhammadrizo Ogahiy hayoti va ijodining manbalari.
2. Xorazm adabiy muhitida Ogahiyning o‘rni.
3. Ogahiy-shoir.
4. Tarixnavislik va Ogahiy.
5. Ogahiyning tarjimachilik maktabi.

Muhammadrizo Ogahiy Xorazmda yashab, o‘ziga xos ijodiy maktab yaratgan ustoz ijodkordir. U o‘zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiydan keyin eng ko‘p meros qoldirgan. Asarlari badiiy saviyasi, mavzu qamrovi, janr turfaligi jihatidan ham hajmiga munosib. SHuning uchun ham, hamma davrda Ogahiy ijodi namunalariga adabiyotshunos olimlarimiz katta e’tibor bilan qarashgan. Asarlarini qayta-qayta nashr ettirishgan. Jumladan, 1958-60 yillarda “Tanlangan asarlari”, 1960 yilda “Ta’vizul-oshiqin” devoni va nihoyat 1970 yillarda she’rlari, tarixiy va tarjima asarlaridan namunalar jamlangan 6 jildlik “Asarlar” to‘plami chop etildi. Ammo, bular hali etarli emas. SHoirning to‘la asarlar to‘plamini nashrga tayyorlash o‘zbek mumtoz adabiyotimiz tarixining ko‘p muammolarini hal etishga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

Ogahiy ijodini ilmiy tadqiq etish borasida ham ancha ishlar amalga oshirildi. Dastlabki yirik tadqiqotlardan biri sifatida R.Majidiyning “Ogahiy lirikasi” asarini ko‘rsatish mumkin. Tarixiy asarlari haqidagi Q.Munirovning tadqiqotlarini eslash mumkin. Tarjimachiligi haqida N.Komilovning “Bu qadim san’at..” monografiyalarini ta’kidlash lozim. Bulardan tashqari, Xorazm adabiy muhitidagi she’riyat, tarixnavislik, tarjimachilik tadqiqiga bag‘ishlangan barcha ilmiy ishlarda Ogahiyga munosib o‘rin ajratilganining guvohi bo‘lamiz. 1999 yil dekabrda Ogahiyning 190 yillik yubileyi nishonlandi. Eng so‘nggi tadqiqotlar, yangicha talqinlar sifatida ana shu anjuman munosabati bilan chop etilgan asarlarni e’tirof etish mumkin.[15]

Ogahiy haqida o‘zining tarixiy asarlari, Bayoniyning tarixiy asarlari, tazkiralar orqali ham ma’lumotlar etib kelgan. Ushbu manbalarni kuzatib, Ogahiy Xiva adabiy muhitida navoiyvor vazifani ado etgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu hududda yashagan bir necha avlod Ogahiyni ustozi komil sifatida ulug‘laydi. Donishmand shoir Komil Xorazmiy unga juda yuqori baho beradi. Ogahiyning fazlu donishda yagonaligi, so‘zining qadri balandligi, ishqning tilsimlaridan, pinhon sirlaridan ogoh ijodkorligini e’tirof etadi:

Ulki ogahlarning ogahidur,
Fahmu donish sipehrining mahidur.
So‘zi ortiqdur guhardin ham,
Fazlu donishda olam ichra alam.
So‘zni har necha qilsa bozori

---

[1]1 Огахий. Ишк ахлининг тумори. Т.1999.
2.Атокли шоир, тарихнавис таржимон (маколалар) .Т.1999.

Bordur olamda bir xaridori.

Shu adabiy muhit rahnomasi Feruz Ogahiyni o‘ziga ustoz deb oshkora e’lon etadi. Faqat ijodda emas, balki, davlatni boshqarishda ham uning ma’naviy madadiga hamisha mushtoqlik sezadi. SHoirga ehtiromini quyidagi maxsus baytlarda izhor etadi:

Komil ersam nazm aro feruzdek, ermas ajab,
Ogahiydur she’r mashq aylarda ustozim mening.

Ogahiy 1809 yil 17 dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida Erniyozbek mirob oilasida tug‘ildi. Uch yoshligida otasi o‘lib, amakisi Munis tarbiyasida qoldi. U dastlab maktab, keyin madrasada tahsil oladi. Ogahiy ham ko‘p mutolaa qilgan. Dunyoviy va diniy ilmlarni o‘rgangan. Munisning xonadonida adabiy davralarda ishtirok etadi. YOshligidan o‘zbek va tojik adabiyoti namunalarining ixlosmandi bo‘lgan.

Munis vafotidan keyin 1829 yilda Ogahiy miroblik vazifasiga tayinlanadi.

1857 yilda miroblikdan iste’fo beradi. Qolgan umrini ijodga bag‘ishlaydi. 1874 yilda 65 yoshida vafot etadi.

Ogahiy ijodiy faoliyati davomida devon tuzdi. 19 ta asarni tarjima qilib, 5 ta tarixiy asar yozdi.

Ogahiy shoir sifatida Navoiy an’analarini davom ettirgan. Devon tuzgan. Bu borada ham ustozi izidan borib, devonga maxsus “Ta’viz ul-oshiqin” deb nom qo‘ygan. U 1852 yilda tuzilgan. Unda 18.000 misra she’ri jamlangan. SHundan 1.300 misrasi forsiy she’rlari. SHoirning devoni debocha bilan boshlanadi. Debocha Ogahiy iqtidorini to‘g‘ri baholashimizga, ijodi mohiyatini teran anglashimizga yordam beradi. Unda asarlarining yozilish sabablari, g‘oyaviy xususiyatlari borasidagi shoirning o‘z nuqtai nazari bayon etilgan. Bu adabiyotshunosligimiz uchun juda muhimdir.

Ogahiy 20 ga yaqin she’riy janrda asarlar yaratgan.Devonida 450 taga yaqin g‘azal bor. Ular 7,9,11, ba’zan 15,17,23 baytdan iborat. 90 ga yaqin muxammas bor. SHundan 4-5 tasi mustaqil muxammaslar. Ogahiy Navoiy g‘azallariga 30 dan ortiq muxammas bog‘lagan. SHoir Navoiy boshlagan an’anani davom ettirib , o‘z g‘azaliga 9 ta muxammas bog‘lagan.U o‘zbek mumtoz adabiyotidagi an’anaviy mavzu va g‘oyalarni rivojlantirdi. O‘z qarashlari, hayotiy xulosalari bilan ularni boyitdi, o‘ziga xos yangi qirralarini kashf etdi.

Ogahiyning o‘zbek adabiyoti janrlar takomilida ham katta xizmati bor. Jumladan, mustazod janridagi ikki ruknga (hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vazni) teng keluvchi bir qisqa misrani ikki qisqa misraga to‘ldirdi. Bu asardagi lirik qahramonning tuyg‘ulari, kechinmalarini yanada mukammalroq, ravshanroq ifodalashga xizmat qiladi.

G‘azal janri rivojida ham Ogahiyning munosib xizmati bor. U voqeaband, dialog-munozara g‘azallar yaratib janr imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. YOr va oshiq muloqoti orqali kichik lirik-dramatik sahna yaratishga erishdi.

Qasida janri orqali ham chuqur falsafiy-axloqiy xulosalarini, o‘gitlarini ifodalashga muyassar bo‘ldi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida Ogahiy bilimdon siyosatchi, tarixchi sifatida ham yorqin iz qoldirgan. Xorazm adabiy muhitida Abulg‘ozi Bahodirxon, Munis,

Ogahiy, Bayoniylar asos solgan shajaraviy tarixnavislik bor. SHu shajaraning yirik bir qanoti bo‘lgan Ogahiy “Riyozud-davla”, “Zubdatut-tavorix”, “Jomeul voqeoti Sultoniy”, “Gulshani davlat”, ”SHohidi Iqbol” kabi beshta tarixiy asar yozdi. Bir qancha tarixiy asarlarni tarjima qildi.

Tarixiy asarlari qomusiy ma’lumotlar beradi. Tirik, harakatdagi adabiy muhitni tasavvurimizda qayta jonlantiradi. Tarixiy bilimlar samarasi o‘laroq, Ogahiy donishmand-maslahatchi bo‘lib maydonga chiqadi. Tarix saboqlarini jamlab, olamshumul xulosalar chiqaradi. Kelajak avlod ravnaqi, ona Vatan kamoli yo‘riqnomalarini yaratishga musharraf bo‘ladi.

Ogahiyning tarixiy asarlariga V.Bartold, YAhyo G‘ulomovlar yuqori baho berishgan. Ogahiy tarixiy asarlarida tarixchi, siyosatshunos, shoir, yozuvchi sifatidagi iqtidorini mukammal namoyon eta olgan.

Muhammadrizo Ogahiy tarjima sohasida ham katta ijodiy maktab yaratdiki, bu Xorazm adabiy muhitida tarjima san’atini yuqori cho‘qqiga olib chiqdi. XIX asrda 120 dan ortiq asar tarjima etildi. 80 dan ortiq kishi tarjima bilan shug‘ullandi. Erkin tarjima o‘ziga xos yangi pog‘onaga ko‘tarildi.

Ogahiy o‘z ijodiy faoliyati davomida 19 ta asarni o‘zbek tiliga tarjima etdi. Ular Sa’diyning “Guliston”, Kaykovusning ”Qobusnoma”, Mirxondning ”Ravzat us-safo”, Muhammad Mahdiy Astrobodiyning “Tarixi jahonkushoyi Nodiriy”, Zayniddin Vosifiyning, “Badoe’ ul-vaqoe’”, Mahmud G‘ijduvoniyning“ ”Miftoh ut-tolibin”, Muhammad Muqim Hirotiyning “Tabaqoti Akbarshohiy”, Muhammad YUsuf Munshiyning “Tazkirayi Muqimxoniy”, Rizoqulixon Hidoyatning “Ravzat us-safoyi nosiriy”, Xusayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, Muhammad Vorisning “Zubdat ul hikoyot”, “SHarhi daloyil al-xayrot”, Jomiyning ” YUsuf va Zulayho”, Badriddin Hiloliyning “SHoh va gado”, Nizomiyning “Haft paykar” kabi badiiy, tarixiy va axloqiy-falsafiy asarlaridir. “Qobusnoma” tarjimasini Feruz tavsiyasi bilan amalga oshirganini eslab aytgan fikrlari, Ogahiyning bu boradagi faoliyati mohiyatini bizga sharhlab bera oladi: “Mazkur nasihatnomani ilkimga berib dedikim, bu nusxani turkiy tili birla tarjima qil, to turk tavoyifining avomi dog‘i bu pandlardin bahra olg‘ay va bizning otimiz, sening so‘zing olam inqirozig‘acha zamon avroqida boqiy qolg‘ay “[16].

Shoirning tarjimalarini kuzatib, ular insoniyatni ma’naviy uyg‘oqlikka da’vat etuvchi, ko‘ngilni bedorlikka, hushyorlikka etaklovchi asarlar ekanligini his etamiz. YUksak ma’naviyat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bugungi kunda Ogahiy tarjimalarining ahamiyati yana ham oshdi. Ularda keltirilgan fikrlar, nasihatlar, hikmatlar hech qachon eskirmaydigan xulosalar. Ular xuddi biz uchun, bugun uchun aytilganday dolzarb va qadrli: “Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aqldan boy bo‘lmoqqa sa’y ko‘rguzg‘ilki, mol bila boy bo‘lg‘ondin, aql bila boy bo‘lg‘on yaxshiroqdur. Nedinkim, aql bila mol jam etsa bo‘lur, ammo mol bila aql o‘rganib bo‘lmas. Bilg‘il, aql bir moldirki, uni o‘g‘ri ololmas. U o‘tda yonmas, suvda oqmas”.[17]

---

[1] Кайковус.Қобуснома. 25-бет.
[2] Кайковус Қобуснома. 31-бет.

Ogahiy tarjimachilikni yuksak san'at darajasiga ko'targan ijodkor. U har bir tarjimaga o'zining o'y-fikrlarini, falsafiy qarashlarini singdirishga harakat qilgan. Ularga erkin yondashgan. Nizomiyning "Haft paykar" dostonini nasrda tarjima qilgan. Undagi har bir jumlani katta talabchanlik bilan tuzgan. Natijada, asar so'z qadrini baland etgan nasr namunasiga aylangan. Sa'diyning "Guliston" asari tarjimasida ham shoir erkin yo'l tutgan. U asarlarda yangi she'riy namunalar, turkigo'y xalqlar so'z xazinasidagi hikmatlar, hikoyatlardan unumli foydalangan. Bu o'z navbatida asarlarni ko'ngilga yaqin va oshno etishga xizmat qilgan: "Nasihat : mol umr osoyishi uchundir, umr mol jam' etmak uchun ermasturur".

Ogahiyning boshqa asarlari kabi tarjimalarida ham inson hayoti mohiyati har tomonlama sharhlanadi. Ezgulikka borish yo'l-yo'riqlari bayon etiladi. Noqisliklardan ogohlantiriladi. Ular ulkan ma'naviy boyligimizdir.

SHoir shaxsi, uning ko'ngli, dardu armonlari, albatta, she'riyatida namoyon bo'ladi. Dunyo mohiyati, yashashning mazmuni borasidagi o'y-fikrlari o'z ifodasini topadi. Ogahiy she'riyatini kuzatib, u SHarqning donishmand, faylasuf, nazari o'tkir va ziyrak, ulug' allomasi ekanligiga yana bir bor iymon keltirdik. Asarlarida insoniyatni asrlar osha o'yga cho'mdiruvchi, iztirobga soluvchi og'riqli jumboqlarga javob topish, hayotning mo''jizaviy tilsimlarini anglash yo'l-yo'riqlarini kashf etish mumkin.

Ogahiy she'riyatida inson taqdiriga, hayoti mohiyatiga munosabati yaqqol o'z ifodasini topadi. Bu bilan bog'liq ravishda KOMIL INSON masalasi bosh g'oyaga aylanadi. Kamolotning ajralmas birligini tashkil etuvchi nafsni, o'zligini engish, qanoatni kasb-odat qilish, kamtar, xokisor bo'lish, bir so'zli, qat'iyatli, do'stga vafoli, muruvvatli bo'lish kabi tuyg'ular shoir she'riyatining o'zak mohiyatiga aylanadi. Dardsiz kimsalardan bezish, ulardan qochish istagi ustuvorlashadi. Hayotiy tajriba, o'tkir mushohada tufayli chuqur hikmatomuz xulosalar bayon etiladi.

SHoir merosidagi barcha fikr va g'oyalar ISHQ tushunchasi bilan chambarchas bog'liq.

Ogahiy she'riyati mazmunan chuqur, falsafiy teran bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan ham barkamol asarlardir. Uning timsollar olami, tashbihu qiyoslar silsilasi o'zi xos, yangicha.

Ogahiy juda nazari o'tkir, sinchkov, ziyrak shoir. U hayotning, insonlar ruhiyatining chuqur bilimdoni. Tabiat hikmatlarining mohir nigohbonidir. Uning bu fazilati asarlaridagi o'xshatishlar badiiy san'atlar istifodasida yaqqol namoyon bo'ladi. SHoir har san'atning, har bir detalning ungacha ilg'anmagan qirralarini, borilmagan ma'noviy hudud kengliklarini kashf etishga harakat qiladi. Har bir an'anaviylik zamiridan yangilik topishga intiladi:

Emas giryon ko'zimda ko'zlari shaklu xayolikim,
Kiyiklardurki, suv istab kelibdurlar bulog' uzra.

Mumtoz adabiyotimizda ko'zni kiyikka, ohuga o'xshatish yangilik emas. Ammo, Ogahiy o'zining izlanuvchan uslubidan kelib chiqib ana shu an'anaviy qiyosning kashf etilmagan jihatini topishga intilgan. Endi ko'zlar oddiy kiyikka emas, balki tashnalab suv izlab buloq boshiga kelgan kiyikka qiyoslanadi. Bu

orqali esa o‘quvchi ko‘z o‘ngida kichik dramatik sahna yaratiladi. So‘zlarga yuklangan ma’no chegaralari yanada kengayadi. Kiyik, ko‘z, buloq va uning vositasida tip-tiniq, g‘uborsiz jamol, chehra, ya’ni muxlisning bosh maqsad mezoni namoyon bo‘ladi.

Mumtoz adabiyotimizda qosh ham an’anaviy timsol. Ammo, Ogahiy bunga ham yangicha yondashgan. Qoshning shamshir, yoy, mehrob kabi ko‘plab o‘xshatilmishlari ma’lum. Ogahiy esa buning ham yangicha qiyosini topadi:

Jamoli bog‘ining bodomig‘a qasd etkan o‘g‘ridur,
Xam o‘lmish buki mushkin qoshi ul dilkash qapog‘ uzra.

Ya’ni, shoir nazaricha, jamol, chehra bir go‘zal bog‘.Ko‘z bilan qosh oralig‘i-qabog‘ esa bodom. Qabog‘ ustida egilib turgan qosh-bodomni o‘g‘irlash uchun yashirinib boqqa kirgan o‘g‘ri. Mana, shoir kichik bir detaldan yaratgan original dramatik manzara.

So‘z-insonni Inson aylaguvchi mo‘‘jiza. Nafosatli so‘zning mavqei baland. U yurakdan tug‘ilguvchi gavhar. Va yuraklarni ulg‘aytiruvchi tilsim. SHuning uchun ham, dono shoir Ogahiy so‘z qadrini baland anglagan. Va so‘z ham uni mo‘‘tabarlik koshonasiga musharraf etdi. Zamondoshi Komil Xorazmiy Ogahiy so‘zining barcha zamonlarda ham xaridori, muxlisi borligini bashorat etgan edi. Ammo, bu borada hamisha ham toshu tarozi barobar emas edi. Ogahiy ko‘p asarlarida so‘z va so‘z ahlining qadrsizligidan kuyingan. Ma’naviy qashshoq guruhlar oldida chil-chil singan so‘zni ko‘rganda ko‘ngil shishasi larzaga kelgan:

So‘zni mafhum aylamak nofahmg‘a mushkuldurur,
Kim, bo‘lub so‘z ahli bag‘ri qonu botg‘ay qong‘a so‘z.

Xalqimizda qarama-qarshi dunyoqarashli, nofahm kishilarga so‘z uqtirguncha yurak bag‘ri qon bo‘lishi, qonga to‘lishi haqida gap bor. Ogahiy ana shu xalqona iborani ham aynan qo‘llamaydi. Fikrni yanada rivojlantiradi. Lirik qahramon ruhiyatidagi dramatizm yanada kuchliroq ifodalanadi. Endi faqat inson ko‘ngligina emas, so‘z ham qonga botayapti. Faqatgina ko‘ngil emas, so‘z ham qurbonga aylanyapti. Bunday yangicha talqin misralar zamiriga ichki dard, ichki bir fig‘on nolalarini singdirishga xizmat qilgan. Bu esa asarning ta’sir kuchini oshiradi. O‘quvchini hushyorlantirib, ko‘ngil ko‘zlarini ochadi.

Ogahiy uslubidagi eng ko‘zga ko‘ringan jihat bu -fikrlarini tabiat hodisalari bilan, hayotning oddiy xulosalari bilan dalillashdir.

Ogahiy hazrat Navoiy ijodiga katta muhabbat bilan qaragan. Ustozi asarlaridan bahramandlik uning iste’dodini badiiy balog‘atning yuqori mavqeiga ko‘tardi. Buni Ogahiyning o‘zi ham mamnunlik bilan e’tirof etadi:

Ogahiy, kim topqay erdi sozi nazmingdin navo,
Bahra gar yo‘qtur Navoiyning navosidin senga.

Savol va topshiriqlar:

1. Muhammadrizo Ogahiyning iste’dod qirralari va adabiy merosi haqida so‘zlang!

2. “Ta’viz ul-oshiqin” devoni debochasi qanday ahamiyatga ega?

3. Mustazod qanday asar? Navoiy unga qanday ta’rif bergan?

4. Ogahiyning qanday tarixiy asarlarini bilasiz?
5. Ogahiyning tarjimachilikdagi o‘ziga xos yo‘li qanday?
6. “Ta’viz ul-oshiqin”dagi asarlarining hajmi va tarkibi haqida so‘zlang!

Adabiyotlar:

1. Ogahiy . Asarlar. 6 jildlik. - T. 1971-1976.
2. Ogahiy . Ishq ahlining tumori. - T. 1999.
3. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. - T. 1978-1983.
4. Atoqli shoir, tarixnavis,tarjimon. - T. 1999.

14-mavzu. XIX asrning ikkinchi yarmi ijtioiy-siyosiy hayotda yuz bergan o’zgarishlar va ularning badiiy tafakkurga ta’siri

Reja:

1. Turkiston o‘lkasining Rusiya tomonidan istilo qilinishi.

2. XIX asrning ikkinchi choragida mamlakatda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va uning badiiy adabiyotda aks etishi.

Uyg‘onish” (Renessans) tushunchasi qadim antik adabiyotga nisbatan olingan bo‘lib, o‘rta asrlardagi ilm-fan jonlanishini ko‘zda tutadi. Uning doirasi turli mamlakatda turlicha, IX asrdan XV asrgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. “Milliy uyg‘onish”da, esa, millatning o‘zligini anglashi asos qilib olinadi. “Milliy uyg‘onish” davri adabiyoti” deyilganda 1865-1929 yillar adabiyoti ko‘zda tutiladi. U o‘ziga xos bir davrdir. 1853-1885 yillarda ko‘hna Turkiston Rusiya tomonidan bosib olindi. O‘sha davrda yozilgan Mirzaolim Mushrifning “Ansobus salotin va tavorix-ul xavoqin” («Sultonlar nasabi va xoqonlar tarixi»), Mulla Olim maxdum Hojining “Tarixi Turkiston”, Bayoniyning “SHajarai Xorazmshohiy”, Ibratning “Farg‘ona tarixi”, Muhammad Solihning “Tarixi jadidai Toshkand” («Toshkentning yangi tarixi») tarixiy asarlarida istiloning dahshatli manzaralari hikoya qilingan. Hatto buni bir qadar mo‘‘tadil rus manbalarida ham uchratish mumkin.

Bu davr adabiyoti yangilanish davri adabiyotidir. Unda qadim davrlardan kelayotgan adabiy turlar saqlandi. Devon adabiyotida she’riyat (poeziya) asosiy o‘rin egalladi. Aruz asosiy vazn bo‘ldi. G‘azal, ruboiy, tuyuq, tarix, muammo, muxammas, musaddas, musamman va ayniqsa masnaviydan keng foydalanildi. Sayohat xotiralarini ifodalovchi sayohatnoma janri maydonga keldi.

Keng ma’noni qamrab oluvchi ishq mavzui bu davrda ham she’riyatning markaziy mavzui bo‘lib qoldi. Lekin ilohiy ishq, tasavvuf g‘oyalari kuchaydi. YUsuf Saryomiy (1845-1912), Ziyovuddin Haziniy (1867-1923) kabi shoirlar ko‘proq diniy-tasavvufiy she’rlari bilan shuhrat topdilar. Badiiy adabiyotda hajviyot rivoj topdi. Adresli tanqid kuchaydi. Realistik tasvir keng o‘rin ola boshladi. Kundalik matbuot va bosmaxonalarning maydonga kelishi bilan she’riyat va o‘quvchi orasi yaqinlashdi. YAngi janrlar (masalan, publitsistika, ocherk kabi) paydo bo‘ldi. Jumladan, 1887 yili Xarkov qishloq xo‘jalik ko‘rgazmasida ishtirok etgan samarqandlik savdogar Mirzo Buxoriyning Boku, Xarkov, Moskva, Peterburgga sayohati xotiralari (“Turkiston viloyatining gazeti”, 1888 yil, 4-7 sonlar), Toshkentlik savdogar Toshmuhammad Isamuhamedovning 1900 yili Boku-Istanbul yo‘li bilan Parijga sayohati (44-45 sonlar), gazeta mualliflaridan Sattorxon Abdug‘afforovning (1890), shoir Zokirjon Furqatning (1891, 2-23 sonlar), Xudoyorxonning kichik o‘g‘li Ibn YAminbekning (1893. 22-28, 32-sonlar) o‘z qo‘llari bilan yozilgan tarjimai hollari, xususan rus madaniyati bilan bog‘lanishlariga oid xotiralari, Toshkentlik Orifxo‘janing sayohatnomasi (1894 yil 28 son) bosildi.

Ikkitillilik (zullisonayn) an’anasi davom etdi. Madrasa ko‘rganlarning deyarli hammasi arab, fors tillaridan xabardor edilar. SHoirlarning ko‘pchiligi

o‘zbek tili bilan bir qatorda tojik tilida ham ijod eta olar edilar. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, SHayx Sa’diy, Hofiz SHeroziy, Abdurahmon Jomiylar bu davr o‘zbek shoirlari uchun ham ilhom berdilar. SHu bilan birga tabiiyki, shoirlarimiz Muhammad Fuzuliy, Maxtumquli kabi turkiy dunyoning yuksak yulduzlarini ham o‘zlariga ustoz bildilar.

Xorazmda Ogahiy, Bayoniy kabi ijodkorlar tashabbusi bilan tarjima maktabi maydonga keldi. O‘nlab asarlar fors tilidan tarjima qilindi. Toshkentda mashhur hind eposi “Kalila va Dimna”ni Fazlulloh Almaiy (1852-1891), arab ertaklari “Ming bir kecha”ni Sidqiy Xondayliqiy (1884-1934) forschadan o‘zbekchaga ag‘dardilar. Murodxo‘ja domla tomonidan Sa’diy SHeroziy “Guliston”ining yangi tarjimasi amalga oshirildi. 80-yillarda L. N. Tolstoy, 90-yillardan A.S.Pushkin, A.A.Krilov nomlari Turkistonga kirib keldi. 1887 yili L.N.Tolstoyning “Odamlar nima bilan tirik” hikoyasi, 1899 yili Pushkin tavalludining 100 yilligi munosabati bilan uning “Boqchasaroy fontani”, “SHoir” asarlari tarjimasi “Turkiston viloyatining gazeti” sahifalarida bosildi. So‘ngroq Saidrasul Aziziy (1866-1933), Aliasqar Bayramali Kalinin, Abdulla Avloniy (1878-1934) kabi mualliflarimizning usuli jadid maktablari uchun tuzilgan darsliklariga kiritildi.

Adabiy harakatchilik an’anaga ko‘ra ko‘proq Qo‘qon, Xiva, Samarqand, Buxoroda rivoj topdi. Biroq Toshkent ham yangi poytaxt sifatida tez yuksalib, adabiy-madaniy markazga aylana boshladi.

Xivada Komil Xorazmiy (1825-1897), Muhammadrasul Mirzo (1840-1922), Muhammad Rahimxon Feruz (1844-1910), Ahmad Tabibiy (1869-1911), Muhammad YUsuf Bayoniy (1858-1923), Ilyos Mulla Muhammad o‘g‘li So‘fi (1860-1916), Mutrib Xonaxarobiy (1870-1925), Muhammad YUsuf CHokar (1872-1951), Avaz O‘tar o‘g‘li (1884-1919), Abdurazzoq Faqiriy (1884-1925), Safo Mug‘anniy (1882-1938), Komiljon Devoniy (1887-1938), Muhammad Rahim Rog‘ib (1918 y.vafot etgan) kabi ko‘plab shoirlar yashab ijod etdilar.

Buxoro adabiy muhitida an’anaviy ikki tillilik bu davrda ham davom etdi. Amir Abdulahadxon (1859-1910) siyosiy hayotninggina emas, adabiy hayotning ham eng e’tiborli vakili edi. Ayniqsa, bu uning amirlik davri(1885-1910)da yaqqol namoyon bo‘ldi. Uning bobosi Amir Haydar (1800-1826) ham «Sayyid» taxallusi bilan she’rlar mashq qilardi. Abdulahadxon esa, «Ojiz» taxallusi bilan tanilgan sohibdevon shoir edi. Hukmdorlarning adabiyotga yaqinligi shu darajada ediki, ayrim tuman hokimlari, masalan, Hisor hokimi Avliyoqulibek “Husayniy” taxallusi bilan devon tartib qilgan edi.

Abdulahadxonning rag‘bat va himmati bilan Afzal Pirmastiy (1915 y v. e.), Ne’matulla Muhtaram (1920 y v. e.), Mirsiddiq Hashmat (amirning ukasi), Abdi kabilar tazkiralar tuzib, an’anaviy tazkirachilikni yangi-yangi asarlar bilan boyitdilar.

XX asrning boshida esa, Bahrombek Davlatshoh o‘g‘li (1873-1933), Mirzo Sirojiddin (1877-1912) kabi shoirlar faoliyat ko‘rsatdilar. Nihoyat, Buxoro adabiy muhiti bu davrda Sadriddin Ayniy (1878-1954) va Abdurauf Fitrat(1886-1938)ni etkazib berdi.

Buxoro adabiy muhitining xarakterli xususiyatlaridan biri ko‘plab tazkiralar tuzilishi bo‘lsa, ikkinchisi, hajv va she’riy sayohatnomalarning udumga kirishidir. Qizig‘i shundaki, hajvlar hukmdorlar haqida. Amir Haydarning daftardori (moliya vaziri) jondorlik Mirzo Sodiq Munshiy (1753-1819)ning «Dahmai shohon» («SHohlarning qabrlari») masnaviysi so‘ngroq shu yo‘nalishdagi bir qator asarlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Uning qisqacha mazmuni shunday edi: SHoir Buxoroning sobiq hukmdorlari ashtarxoniylar dahmasi yonidan o‘tayotgan ekan, biridan sado chiqibdi. YAqin borsa, Subhonqulixon (1680-1702) qabri. Xon o‘zi qilgan haqsizliklardan so‘zlamoqda. Qilmishlaridan pushaymon. Avlodlarga nasihat berayapti. SHoir Ubaydullaxon (1702-1711), Abulfayzxon (1711-1747) dahmalari tomon o‘tadi. Ular ham o‘z tarixlaridan, fojialaridan so‘zlaydilar. O‘z so‘zlari bilan idoralarining tartibsiz va nizomsizliklarini aytib, o‘zlarini fosh etadilar.

Qo‘qonda Muqimiy (1850-1903), Furqat (1859-1909), Zavqiy (1853-1921), Nisbatiy(1903 y.v.), Muhayyir (1845-1918), Qori Yusuf Muntazir (1899 y.v.), Usmonxo‘ja Zoriy (1839-1916) kabilar adabiy davra tashkil etdilar. Vodiyning mashhur shoirlaridan biri, «toji shoiron» (shoirlar shohi» deb e’zozlangan Muhyi (1835-1911) bo‘lsa, ikkinchisi, shubhasiz. «Haziniy to‘ra» deb ardoqlangan Ziyovuddin Haziniy (1867-1923) edi. Asli piskentlik Said Akmalxon (1834-1883), marg‘ilonlik qozi Xo‘jajonxo‘ja Rojiy (1838-1918), Namangandan Nodim (1844-1910), Ibrat (1862-1937), Andijondan Abdurazzoq Bimiy (1847-1918), Xo‘janddan Toshxo‘ja Asiriy (1864-1916), Sayramdan YUsuf Saryomiy (1845-1912), Toshkentdan Karimbek Kamiy (1865-1922) kabilar Qo‘qondagi adabiy suhbatlarda tez-tez ishtirok etib turdilar.

Epik janrlar, xususan, dostonchilik rivojlandi. Qo‘qon adabiy maktabi vakillaridan Umidiy-Havoiy (1835-1905), “Maktubchai xon”, “Jangnoma”, “Badavlatnoma yoki tarixi Xo‘qand” kabi tarixiy dostonlar yozdi. Bu asarlar bevosita rus bosqini va uning oqibatlari bilan bog‘liq voqealarni Vatan va Millat sha’ni, el-yurt manfaati nuqtai nazaridan aks ettirdi.

Qo‘qon adabiy harakatchiligining muhim xususiyatlaridan biri X1X asrning birinchi yarmida shakllangan shoiralar silsilasining davom etganligidir. Jahon Otin Uvaysiy, Mohlaroyim Nodira an’analari bu davrda Dilshod - Barno (1800-1905/06) va Anbar Otin (1870-1915)dek ikki iste’dodli shoirani etkazib berdi.

Samarqandda Abdulazim Sipandiy (1829-1909), Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Saidahmad Vasliy (1869/70-1925) kabi shoirlar ijod etdilar. Kattaqo‘rg‘onlik Ochildimurod Miriy (1830-1899) ajoyib epik dostonlar, masnaviylar yaratdi.“Ra’no va Zebo” (1884), “Qissai Salim Javhariy” (1887), “Rustam va Suhrob” (1897), “Majididdin va Faxruniso” (1899) kabi dostonlari, “Gulnoma”, “Choynoma” singari doston-masnaviylari bilan o‘zbek epik poeziyasi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi.

Toshkent Turkiston general gubernatorligining markaziy shahri bo‘lganligidan evropalashish jarayoni bu erda tezroq va sezilarliroq kechdi. Ma’muriy-madaniy, maishiy-tijoriy qurilishlar, idora va turmush yangiliklari, matbaa, teatr, kutubxonalar, rus-tuzem maktablari, gimnaziya, seminariya kabilar, tabiiyki, adabiyotda o‘z aksini topdi va muayyan ta’sirini ko‘rsatdi. SHularga

ko‘ra, Toshkentda ko‘proq matbaachilik, ya’ni noshirlik va gazetachilik rivojlandi. Tarjimachilik, birinchi navbatda, ruschadan tarjima taraqqiy topdi. CHimkentlik ma’rifatparvar Sattorxon Abdug‘afforov (1843-1901) 80-90-yillarda, mashhur Furqat (1859-1909) 1889-1891 yillarda «Turkiston viloyatining gazeti»da bevosita ishlaganlari va o‘z hayotlari davomida ushbu gazeta bilan muntazam hamkorlikda bo‘lganlarini eslash kifoya. Ayni paytda, an’anaviy adabiyot ham avjda edi. Buni ushbu davr ijodkorlaridan Mo‘minjon Muhammadjonov-Toshqin (1883-1964)ning 40 dan ortiq shoir haqida ma’ulumot beruvchi «Toshkentlik va Toshkentda bo‘lgan o‘zbek shoirlarining tarjimai hollari» (1948) asaridan ham ko‘rish mumkin.

Adabiy-madaniy muhit ko‘proq shaharning «Ko‘kaldosh», «Beklarbegi», «Baroqxon», «Xoja Ahror» madrasalarida kechdi. Ayniqsa, dastlabki ikkitasining mavqei juda baland edi. «Ko‘kaldosh»da mashhur xattot, «Tig‘bandiy» taxallusi bilan she’rlar ham yozib turadigan SHohmurod kotib (1850-1922), Qosimxonto‘ra Muztarib (1858-1944), «Beklarbegi»da «qashshoq mulla» nomi bilan tanilgan Rahimxo‘ja Xatmiy (1835-1908), o‘ttiz yoshida «Baroqxon»ga mudarris bo‘lgan mashhur bedilxon Alouddin Fununiy (1861-1932) kabi qalamkashlar atrofida olimu fozillar, she’r muhiblari hamisha gavjum bo‘lganlar. 1890 yili Furqat, 1899 yili Muqimiy «Ko‘kaldosh»da turganlar. Karimbek Kamiy (1865-1922), Qodirqori Ramziy (1861-1943), Afandixon maxzum Axtariy (1870-1946) bilan uzoq suhbatlar qurganlar. Sayyid Haybatullo Xislat (1880-1945), Mullo Qo‘shoq Miskin (1880-1937), Sirojiddin Sidqiy-Xondayliqiy (1884-1934) ana shu muhit ta’sirida bu davr adabiyoti rivojiga munosib hissa qo‘shgani ma’lum.

Savol va topshiriqlar

1. Ilk mustamlakachilik davrining xos xususiyatlari nimalarda ko‘rinadi?
2. Ijtimoiy voqelikning badiiy adabiyotdagi talqini.
3. Xorazm adabiy maktabi.
4. Buxoro va Samarqand adabiy muhitlari.
5. Toshkent va Qo‘qon adabiy maktablari.

Tayanch iboralar

1. “Uyg‘onish” va “milliy uyg‘onish” istilohlari.
2. Mustamlakachilik va oqibatlarining badiiy adabiyotda aks etishi.
3. Ijtimoiy-siyosiy hayot va badiiy talqin.
4. Adabiy maktablar va ularning xos xususiyatlari.
5. Devon adabiyoti va ikkitillilik an’anasi.
6. Janr va mavzularning yangilanishi.
7. Tarjimachilik. Rus adabiyoti namunalarining tarjimalari.
8. Tarixiy mavzuning badiiy ifodasi.
9. Ishq va tasavvuf mavzularining yangicha talqini.
10. SHe’riyatda milliy ozodlik mavzuining aks etishi.

Kursning informatsion-metodik ta’minoti

1. Qosimov B., YUsupov SH., Dolimov U. va b. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. –T.: Ma’naviyat, 2004.
2. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. T.: “O‘zbekiston”, 2008.
3. YUsupov SH. Furqat yo‘llarida.-T.:Adabiyot va san’at, 1984.
4. YUsupov SH. Xufiya qatlamalar.-T.,1999.
5. YUsupov SH. Tarix va adab bo‘stoni.-T.,2003.
6. YUsupov SH. Xudoyorxon va Furqat.-T.:SHarq.1997.
7. Jabborov N. Furqatning xorijga ketish sabablariga oid yangi hujjat. //Adabiy meros, 1998, 3-4 (69-70)-son, 50-54-betlar.
8. Jabborov N.Furqat va milliy uyg‘onish. //Jamiyat va boshqaruv, 1998, 4-son, 31-33-betlar.

15-mavzu. Muqimiyning adabiy merosi

Reja:

1. Muqimiyshunoslikka bir nazar.
2. Hayoti va faoliyati.
3. Ijodiy merosi
4. Sayohatnoalari

Muqimiy o‘z ijodi bilan jahon adabiyotshunosligida devon adabiyoti deb nomlanadigan SHarq adabiyotidagi eng yaxshi an’analarni davom ettirdi. Ayni paytda rus istilosi bois ijtimoiy hayotda kechayotgan o‘zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yangilanishida munosib hissa qo‘shdi.

Muqimiyshunoslikka bir nazar. SHoir ijodini o‘rganish uning hayotlik chog‘idan boshlangan. SHe’rlariga bildirilgan turli-tuman munosabatlar, ular haqdagi bahslar, maqolalar bunga dalil. SHoir vafotidan keyin uning devoni «Devoni Muqimiy» nomi bilan ilk bor 1907 yili N.Ostroumov tomonidan nashr etildi. Unda shoirning she’riy asarlari bilan birga tarjimai holi va ijodi haqida qisqacha ma’lumot ham berilgan edi. 1910 yili Porsev litografiyasida «Devoni Muqimiy maa hajviyot» nomi bilan shoir asarlarining ikkinchi nashri amalga oshirildi. 1912 yili yuqoridagi nomda Muqimiy asarlarining uchinchi nashri dunyo yuzini ko‘rdi.

SHoir ijodini jiddiy va keng ko‘lamda o‘rganish o‘tgan asrning 30-yillaridan boshlandi. Bu xayrli ishning boshida otaxon shoirimiz G‘afur G‘ulom turdi. Uning tashabbusi bilan 1938 yili «Muqimiy bayozi» tuzilib, nashr etildi. 1950 yili shoir asarlari «Lirika i satira» nomi bilan Moskvada rus tilida bosildi. 1953 yili Muqimiy vafotining 50 yilligi munosabati bilan u haqda tadqiqotlar yaratilib, muqimiyshunoslikka asos solindi. Homil YOqubov, Abdulla Olimjonov, Hodi Zaripov, Hoshimjon Razzoqov, G‘ulom Karimov, Abdurashid Abdug‘afurov kabi olimlar salmoqli ishlar yaratdilar.

Muqimiyshunoslik, asosan, ikki yo‘nalishda bordi: a) Muqimiy ijodini bevosita o‘rganish; b) shoir ijodini ijtimoiy-tarixiy aspektda, zamondoshlari va salaf (o‘tmishdosh) hamda halaf (izdosh)lari merosiga qiyosan o‘rganish.

Muqimiy ijodini o‘rganishda professor G‘ulom Karimov (1909-1991)ning xizmatlari katta bo‘ldi. G‘.Karimov – muqimiyshunoslik maktabiga asos solgan olim. Uning bu boradagi ilk maqolasi «Muqimiyning hayoti va ijodini o‘rganish tarixidan» (1957) oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun yozilgan «O‘zbek adabiyoti tarixi» (3-kitob)idagi (1987) Muqimiyga bag‘ishlangan bo‘limigacha bo‘lgan tadqiqotlari, xususan, 1962 yili yoqlagan «O‘zbek demokrat shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti» doktorlik dissertatsiyasi, 1970 yili nashr etgan «Muqimiy. Hayoti va ijodi» monografiyasi muqimiyshunoslik ilmining sara namunalaridir. Nihoyat, Muqimiy asarlarining shu kungacha amalga oshirilgan o‘zbek, rus va boshqa tillardagi nashrlarining aksariyati ham olim nomi bilan bog‘liq.

Muqimiyshunoslik istiqlol munosabati bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. SHoir bosib o‘tgan murakkab ijodiy yo‘l va uning sermazmun adabiy merosini mustaqillik, Millat va Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan ko‘zdan kechirish va

xulosalar chiqarishga ehtiyoj bor. Bu borada professor G‘.Karimov izdoshlari samarali ish olib bormoqdalar.

Hayoti va faoliyati. Muhammad Aminxo‘ja Mirzaxo‘ja o‘g‘li Muqimiy 1850 yili Qo‘qon shahridagi Bekvachcha mahallasida novvoy oilasida tug‘ildi. Otasi Mirzaxo‘ja asli toshkentlik, onasi Bibioysha xo‘jandlik bo‘lgan. Ular to‘rt qiz va bir o‘g‘il ko‘rganlar. Qizlarining oti Tojinisa, Ulug‘bibi, Saydinisa, Mehrinisa. Onasi Bibioysha adabiyot va san’atni sevuvchi, so‘zga usta ayollardan bo‘lgan. Uni yaqindan bilgan o‘rtoqlari “Xumorbibi” der ekanlar. YOsh Muhammad Aminxo‘janing she’rga havas qo‘yishida uning xizmatlari katta bo‘lgan.

Bo‘lajak shoir eski maktabda xat-savod chiqargach, 1864 yildan Qo‘qondagi «Hokim oyim» madrasasida o‘qiydi. 1867 yili Bibioysha vafot etadi. Biroz vaqt o‘tgach, Mirzaxo‘ja Ziyodabibi ismli ayolga uylanadi. Muhammad Aminxo‘ja 1872-1873 yillarda Qo‘qon madrasasini bitirib, Buxoroga yo‘l oladi. 1876 yilgacha Buxoro madrasalaridan birida o‘qiydi so‘ng Qo‘qonga qaytadi. Uni Sanambibi ismli qizga uylantirib qo‘yadilar.

1877 yili Muhammad Aminxo‘ja Qo‘qondagi er qurilishi mahkamasiga mirzalik vazifasiga ishga kiradi. Er o‘lchovchi amaldorlarning hiyla-nayranglarini ko‘radi. “Tanobchilar” hajvini yozadi. So‘ng Sirdaryo bo‘yidagi Oqjar paromiga pattachi bo‘lib ishga o‘tadi. Bu erdagi ahvol ham shoirga yoqmaydi. Oqjar odamlari haqida muxammas yozadi.

U Oqjar paromida ham uzoq ishlay olmadi. 70-yillarning oxirlaridayoq pattachilikni ham yig‘ishtirib, Qo‘qonga qaytadi. Ijodga beriladi. “Muqim” (turg‘un, turib qolgan) “Muqimiy” taxallusida yozgan she’rlari bilan dovruq qozonadi. Ammo shoirning shaxsiy hayoti yurishmadi. Sanambibi bilan uzoq yashay olmadi. 1879 yili Sanambibi Muqimiydan ajraldi, o‘g‘li Akbarxo‘jani onasi Ziyodabibiga qoldirib, boshqaga turmushga chiqib ketdi. Ko‘p o‘tmay, Mirzaxo‘ja ham vafot etdi.

Muqimiy 1887-1888 yillarda Toshkentga keladi, ota qarindoshlari bilan uchrashadi. Almaiy, Nodim Namangoniy bilan tanishadi. Ular bilan yaqindan aloqa bog‘laydi. SHoir shu yillari og‘ir iqtisodiy tanglikda yashagan. 1890 yili otadan qolgan hovlini sotib, madrasa hujrasiga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lgan. Xattotlik hunari joniga oro kirgan. Kishilar uchun xat (kitobat) yozib, kitob ko‘chirib, shundan keladigan daromad hisobiga kun o‘tkazgan. Adabiyot-san’atni yaxshi ko‘rgan davlatmand kishilar moddiy yordam berganlar. SHularning yordamida 1892, 1899 yillarda ikki marotaba Toshkentga kelib ketgani ma’lum.

90-yillarning o‘rtalarida Muqimiy taqdirning bir g‘aroyiboti tufayli Moskvada Lazarev nomli jonli SHarq tillari institutida o‘qib turgan jiyani Ro‘zimuhammad Do‘stmatov bilan topishadi va ular orasida yozishmalar boshlanadi. 1898 yili R.Do‘stmatov Qo‘qonga keladi, tog‘a-jiyan uchrashadilar. YOz ta’tili tugagach, Ro‘zimuhammad yana Moskvaga qaytib ketadi. SHoir kuzatib qo‘yadi. R.Do‘stmatov ikkinchi marta 1904 yilda Qo‘qonga keldi va umrining so‘ngigacha Muqimiy uy muzeyida xizmat qildi.

Muqimiy hayotining so‘nggi yillari kasallikda kechdi. Quloq og‘rig‘i, so‘ng “yaraqon” (jigar xastaligi) shoirni qiynab qo‘ydi. 1902 yilning 16 dekabrida

Andijonda dahshatli zilzila yuz berdi. SHahar lahzada vayronaga aylanib, 4652 kishi halok bo‘ladi. SHoir bundan qattiq larzaga tushadi. SHaharga borib ofat oqibatlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘radi va iztirob to‘la ta’rix-marsiya bitadi.

Muqimiy 1903 yilning 25 mayida vafot etadi.

Ijodiy merosi. SHoirning bizgacha etib kelgan ijodiy merosi 10 ming misra atrofida. Ular asosan **lirika** va **hajviyot**dan iborat.

Muqimiy tabiatan hozirjavob kishi edi. Ko‘plab zamondoshlari singari o‘zbek va tojik tilida baravar yoza olardi. Ko‘pgina she’rlari o‘zining yozilish tarixiga ega. Ma’lum munosabat bilan yozilgan she’rlari orasida Toshkent noibi vafotiga bag‘ishlangan (“Tarixi favti noibi Toshkandiy”) besh baytlik tojikcha ta’rix-marsiyasi bor. “Noibi Toshkandiy” 1892 yildagi Toshkent qo‘zg‘olonining tashkilotchilaridan va faol ishtirokchilaridan Ino’omxo‘ja. Turkiston harbiy okrug sudi uni 1892 yil 10 dekabrda Irkutsk guberniyasiga surgun qilgan. Biroq u kasalmandligi tufayli shu erda qoldiriladi. Qamoqni shu erda o‘taydi. 1897 yilning 3 fevralida shu erda vafot etadi. Ta’rix-marsiyada shoirning rus siyosatiga qarshi bosh ko‘targan qahramonga mehr-muhabbati ochiq ifodalanadi. «Garchi hibsda g‘urbatdan qon yig‘lasa-da, oqibat shahid bo‘ldi. Uning vafoti kuni aziz-avom, katta-kichik butun Ho‘qand xalqi motam tutdi»,-deyiladi marsiyada.

Afsuski, Muqimiy 1898 yilgi Dukchi Eshon boshchiligidagi xalq ozodlik harakatini mana shunday teran anglay olmadi. Rus hukumatining rasmiy talqini izidan borib, hajviyalar bitdi.

Lirikasi. Muqimiyning juda ko‘p g‘azallari uning tirikligidayoq qo‘shiq qilib kuylangan. Uning she’rlari ko‘proq xonandalar orqali yoyilgan. SHoir she’rlarida Mamajon makay, Nizomxon, Farzincha (Farzinxon), Ismoil naychi ismlari uchrab qoladi. Ularga bag‘ishlangan baytlar, she’rlar ham bor.

Bu she’rlarning mavzui aksariyat an’anaviy, yor haqida. Uning husni, ya’ni qoshi, ko‘zi, yuzi, sochi, qaddi-qomati ta’rifiga bag‘ishlangan:

Tiyg‘ing mening qonimdadur, zulfing giribonimdadur,
Yuz ming alam jonimdadur, man mubtalo qayda boray?!

Ishqiy an’anaviy she’rlar zamonga moslanib bordi. Masalan, Muqimiy va uning zamonasida “Surating” radifli she’rlar paydo bo‘ldi. Bu, birinchi navbatda, fotografiyaning hayotga kirib kelishi bilan izohlanadi.

Muqimiy lirik janrlardan murabbaga alohida e’tibor berdi. Ma’lumki, murabba’ boshqa janrlardan, avvalo, vazn va qofiyasiga ko‘ra farqlanadi. Ruboiy faqat hazaj bahridagina yozilsa, murabba’ uchun bunday cheklanish yo‘q. Ruboiy, tuyuq mustaqil to‘rtliklardir, murabba’da esa bir necha to‘rtliklar qo‘shilishidan yaxlit asar bo‘ladi va ular a a a a, b b b a, v v v a shaklida qofiyalanadi. So‘nggi bandda taxallus bo‘ladi.

Muqimiyning murabbalari yigirmadan ortiq, deyarli hammasi ishqiy mavzuda. Ohangdor, ravon. Vazniga ko‘ra aruzdan barmoqqa yaqin turadi. Xalq qo‘shiqlarini eslatadi. Masalan:

Emdi sandek jono, jonon qaydadur,
Ko‘rib gul yuzingni bog‘da bandadur,
Saqlay ishqing toki jonim tandadur
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur,

Tabiatdan jamiyatga. Muqimiyning eng sara lirik she'rlaridan biri "Navbahor"dir. Bahor – uyg'onish fasli. U tiriklik nishonasi, tabiatning uzoq, rutubatli qishdan keyingi qayta jonlanishi. SHoir bu manzaradan tuganmas zavq-shavq oladi. Tiriklikning naqadar ulug' ne'mat ekanligini anglaydi. Unda hayotga so'ngsiz ishtiyoq uyg'onadi. Eng muhimi, chinakam umr odamlardan uzoqda kechiriladigan uzlatnishinlik emas, do'stlar bilan to'lib-toshib, yonib-jo'shib yashamoq ekan:

Navbahor! Ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar!
Suhbat aylaylik, kelinglar, jo'ralar, o'rtog'lar!
Xush bu mahfilda tiriklik ulfatu ahbob ila!
O'ynashib, gohe tabiatni qilaylik chog'lar!...

Lekin, afsuski zamona-yomonniki. Aqlli, dono kishilar ("ahli tamiz") oyoq ostida, bulbul o'rnini qarg'a (zog')lar olgan:

Hayfkim, ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,
Oldilar har erda bulbul oshyonin zog'lar.

Shoir kutilmaganda gapni mana shunday jamiyat hayotiga buradi va unga munosabat bildiradi. Agar zamona adolatli bo'lsa, har kim o'ziga munosib joyda bo'lmog'i lozim edi. Holbuki unday emas. SHoirning e'tirozi shunda.

Hajviyoti. Muqimiy ko'plab hajviy she'rlar ham yozdi. XIX asr oxiridagi tarixiy sharoitda tomir otgan takabbur, poraxo'r tanobchilarning, tovlamachi, yulg'ichlarning esda qoladigan obrazlarini yaratdi. «Tanobchilar» she'ri buning yorqin dalilidir.

Saylov – adabiyotimiz uchun yangi mavzu. CHor hukumati Turkistonda saylovni joriy etdi. YUzboshi, mingboshi, qozi saylanadigan bo'ldi. Lekin bu saylov poraxo'rlikka yo'l ochdi. Badavlat kishilarning pul sochish musobaqasiga aylanib ketdi. Muqimiyning "Saylov" she'ri shu haqda.

"To'yi Iqonbachcha"da bir to'y hangomasi tasvirlangan. Toshkentdagi bir boyning Iqondagi gumashta (xizmatchi)si to'y qilmoqchi. Hamma yoqqa ovoza tarqatgan: unday qilaman, bunday qilaman!.. Nogoh Toshkentdan «xo'jayin» «sizga to'y qilishni kim qo'yibdi» degan mazmunda sim qoqadi. «To'ynugingdan agarda chiqsa tutun, Munda ber dastmoyalarni butun»,- deya tanbeh beradi. Imoga mahtal gumashta va uning xotini xursandchiliklarini zo'rg'a yashiradilar. Eng uchida to'y o'tadi. «SHiravorning o'ziga ikki yuz so'm bo'lurmi?!» deb kerilib yurgan gumashta, tuzni ham «cho't»ga urganda, o'ttiz uch tangalik to'y qiladi. SHe'rda mana shu «to'y»ga tayyorgarlik va uning o'tkazilishi kulgili bir shaklda ifoda etilgan:

Muqimiyning bir qator hajviy she'rlari borki, ular aniq, tayinli kishilar haqida. Masalan, "Hajvi Viktorboy", "Hajvi Viktor", "Voqeai Viktor" she'rlari Viktor Dimitrovich Axmatov haqida. U Qo'qondagi aka-uka Kamenskiylarning savdo idorasida ish boshqaruvchi bo'lgan. 1891 yili Moskvadan arzon mol keltirib beraman deb, bir to'da sodda o'zbeklarning pulini olib, bedarak ketgan. Bu gap o'z davrida butun Farg'ona vodiysiga yoyilib, shov-shuv bo'lgan. Ikkinchi bir "qahramon" Laxtin degani ham shunaqa yulg'ich, ucharlardan. U bir qator zavod, fabrikalar, bosmaxona ham ochgan edi. SHoirning "Dar shikoyati Laxtin" she'ri shu haqda. "Maskovchi boy ta'rifida" she'ri mahalliy boylarimizdan

Hodixo‘ja haqida hikoya qiladi. U raqobatga dosh berolmay, uquvsizlik qilib singan boylardan.

Xullas, Muqimiy turmushning xilma-xil manzaralarini, zamondoshlari va ularning fe’llarini kulgili, esda qoladigan lavhalar, ifodalar bilan bizga etkazadi. Bu she’rlar ohangiga ko‘ra ham engil, ravon.

Sayohatnomalari. Muqimiy Farg‘ona vodiysi bo‘ylab qilgan sayohatlari taassurotlarini she’r qilib yozdi va bular “Sayohatnoma” nomi bilan shuhrat topdi. Bular shoirning Qo‘qon-Farg‘ona, Qo‘qon-SHohimardon, Qo‘qon-Isfara sayohatlari taassurotlaridir. Har uch sayohatnoma yaxlit bir asar shaklida bo‘lib, to‘rtliklardan tarkib topgan. Jami: 244 misra. Hammasi bir vaznda – rajazi murabbai solimda, har bir band “ekan” radifi bilan yakunlanadi. Barchasi uchun bitta umumiy muqaddima va bitta umumiy yakun-xulosa bor. Asarda sayohat sababi beriladi, so‘ng turli manzil-qishloqlar, ularning tabiati, manzaralari tasvir etiladi. Joylardagi odamlar, fe’l-udumlar hikoya qilinadi.

Mumtoz adabiyotimizda “hasbi hol” degan maxsus janr bor. Unda shoir o‘z ahvoli haqida yozadi. Goho uning ayrim ko‘rinishlari boshqa xil she’rlarda ham uchraydi. “Sayohatnoma”da mana shunday hol mavjud.

Muallif kayfiyati, holati, atrof-muhitga, kishilarga munosabati “Sayohatnoma” satrlarida ayon sezilib turadi. Masalan, shoir SHohimardon tomon yo‘l olar ekan, Ultarma, Do‘rmoncha, Bo‘rbaliq, Oq er, Roshidon, Zohidon, Oltiariq, CHimyon, Vodil qishloqlari bilan tanishtiradi, ularning har birini ta’rif-tavsif etadi:

Ammo nazarda Roshidon
Firdavs bog‘idin nishon.
O‘ynab oqar obi ravon,
Sahni gulu gulzor ekan.

Keyingi sayohatnomasida Qudash, YAyfan, Nursux, Beshariq, Konibodom kabi qishloq va shaharlarga oid tafsilotlar beriladi. SHoir ona-Vatanning betimsol tabiatini, ko‘zni qamashtiruvchi manzaralarini, “anhoru soyu cho‘llari” va “shirin zardolulari”ni so‘ngsiz mehr bilan tasvirlaydi.

Asarning ohangi ravon, o‘ynoqi. Rajazning to‘rt ruknlik solim bahrida yozilgan, ya’ni mustaf’ilun mustaf’ilun.

Muqimiy “Sayohatnoma”si Qo‘qon shoirlari orasida aks-sado topgan. Furqat, Zavqiy, Tajalliy kabi zabardast shoirlar Muqimiy asarining vazni va radifi bilan sayohatnomalar yozganlar. Furqat, Zavqiy, Tajalliy “Sayohatnoma”lari shular jumlasidandir.

Xulosa qilib aytganda, Muqimiy she’riyati yangi o‘zbek adabiyotining shakllanishida, ayniqsa unda ijtimoiy satira va serohanglikning markaziy o‘rin egallashida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Savol va topshiriqlar

1. Tabibiy yashagan muhit haqidagi tasavvurlaringizni to‘ldiruvchi manbalar qaysilar?
2. Avaz va Tabibiyning yashash sharoitlari va dunyoqarashlari jihatidan taqqoslang.
3. SHoirning ma’rifatparvarlik g‘oyalari ilgari surilgan g‘azallaridan yod oling va tahlil qiling.
4. Muqimiyning hayot yo‘lini davr ijtimoiy-iqtisodiy voqealar bilan vobasta o‘rganing.
5. Muqimiy adabiy merosini asosiy g‘oyasini aniqlang.
6. Muqimiyning hajviy qahramonlari haqida nima deya olasiz?
7. Muqimiy lirikasining badiiy miqyosini belgilang.
8. Muqimiyning «Sayohatnoma»si qanday ahamiyatga ega?
9. Muqimiyning Qo‘qon adabiy muhitida tutgan o‘rnini belgilang.

Tayanch iboralar

1. Tabibiy hayoti.
2. Tabibiy – tazkiranavis.
3. Tabibiy g‘azallari.
4. Tabibiyning didaktik qarashlari.
5. «Vomiq va Azro».
6. Muqimiy hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi.
7. Muqimiyning hayot yo‘li.
8. Muqimiy va Toshkent adabiy muhiti.
9. Muqimiyning ijodiy merosi va uning tavsifi.
10. Muqimiy – lirik shoir.
11. Muqimiy hajviyoti.
12. Muqimiy yumorlari.
13. Muqimiy sayohatnomalari.
14. Muqimiy ijodida maktub janri.

Kursning informatsion-metodik ta’minoti:

1. Tabibiy. Tanlangan asarlar. T, 1968.
2. F.G‘anixo‘jaev. Tabibiy. T, 1978.
3. N.Qobulov va boshqalar. Avaz O‘tar va uning adabiy muhiti. T, 1987.
4. Muqimiy. Tanlangan asarlar. 2-tomlik. T, 1960-61.
5. Muqimiy. Asarlar. T, 1974.
6. G‘.Karimov. O‘zbek adabiyoti tarixi. 3-kitob. T, 1975.
7. G‘.Karimov. «Muqimiy hayoti va ijodi». T, 1970 yil.
8. A.Abdug‘ofurov. Muqimiy satirasi. Furqat va Muqimiy. T, 1976.
9. S.Ahmedov. O‘zbek adabiyotida «Sayohatnoma». T, 1986.
10. S.Ahmedov. O‘zbek demokratik adabiyotida she’riy hikoya. T, 1987.

16-mavzu: Zokirjon Furqat hayoti va ijodiy merosi

Reja:

1. **Furqatning ijodiy hayot yo‘lini o‘rganish tarixi. SHoirning hayot yo‘li. Furqat Toshkentda.**
2. **Furqatning chet ellardagi hayoti.**
3. **Furqat ijodiy merosi: a) ishqiy lirika; b) ijtimoiy-falsafiy o‘ylar aks etgan asarlar; v) inson erki va g‘urbat ohangi ifodalangan asarlar.**

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida o‘zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ijodiyoti uning tirikligidayoq matbuot sahifalarida, bayozlarda ko‘rindi. Bu borada «Turkiston viloyatining gazeti»da bir necha marta 1889, 1890, 1891 yilgi sonlarida e’lon qilindi. Uning hayot yo‘li ham shu gazetada «Qo‘qonlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti» nomi bilan o‘zbek-rus tillarida chop etildi. Rus olimlaridan A.Samaylovich 1809 yilda Peterburgda chiqadigan rus arxeologik jamiyatni SHarq bo‘limining to‘plamida Furqat haqida ma’lumotlar beradi.

Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li 1859 yilda Qo‘qon shahrida mayda savdogar oilasida tug‘ildi. Zokirjonning otasi Xolmuhammad zamonasining ziyoli kishilaridan bo‘lgan, shuning uchun ham farzandining o‘qishiga jiddiy e’tibor qaratadi. Zokirjon 7 yoshga to‘lganda, otasi uni Muhammad Olim ismli maktabdorga shogirdlikka beradi. Talabchan ota farzandini yaxshi o‘qitishini talab qilib “Zokirjon maktabga kelmasa yo kelib darsni o‘qimasa tanbih qilg‘aysiz, eti sizniki, ustoxoni meniki”,- deydi.

Furqat 1880 yilda otasining xohishi bilan Qo‘qonga qaytib keladi, oila quradi, qalb istagidagi o‘z davrasini topadi. Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Nisbat, Muhayyir kabi shoirlarning muhitida shoir Furqat yanada jo‘shib ijod qiladi. Do‘stlar davrasi, she’r shukuhidan ilhomlangan Furqat shunday yozadi: “...Va asr shuarolarikim, chunonchi, mavlono Muhyi va mavlono Zavqiy va mavlono Nisbatdurlar, hamisha majlis bunyod aylab, zodai tab’larimizdin mushoara qilur erduk. Va ba’zi vaqt ishq tavsifi va husn ta’rifida g‘azal mashq aylab va gohi qadimiy shuarolar devonlaridin bir sho‘x g‘azalni topib, anga har qaysimiz alohida muxammas bog‘lar erduk...”.

Ayni shu davrlarda Furqat faqat she’rlargina emas, balki “Hammomi xayol” deb nomlangan risola ham yozadi. «Nuh manzar», “CHor darvesh” degan asarlarni fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qiladi.

Ma’lumotlarga qaraganda, Furqat 1886-87 yillarda yana Marg‘ilonga kelgan va Jome’ masjididan bir hujra olib, shu erda istiqomat qilgan. Muhammad SHarif degan bir savdogar do‘stining ko‘magida do‘kon ham ochgan. Bu erda bir qancha shoirlar bilan do‘stlashadi, adabiy aloqa o‘rnatadi.

SHoir Furqatning 1889-1891 yillar Toshkentdagi hayoti uning taqdirida ayricha rol o‘ynaydi. Furqat sayohat orzusida Marg‘ilondan o‘z yurtiga qaytib, u erda bir kun turgach, Xo‘jandga yo‘l oladi. Xo‘jandda u shoir Toshxo‘ja Asiriy

bilan uchrashadi. Bu erda biroz betob ham bo‘lib qoladi. SHunday bo‘lsa-da safarni davom ettirib, 1889 yilning iyun oyida Toshkentga keladi. Bu erda Hoji A’zam degan g‘oyibona do‘sti bilan topishadi, uning ko‘magida “Ko‘kaldosh” madrasasiga joylashadi. 9 oy shu madrasada yashaydi. Xo‘janddan kasallanib kelgan shoir hali batamom tuzalmagan edi. Bu vaqt ichida Hoji A’zam uning issiq- sovug‘idan xabar olib, mehribonchilik ko‘rsatib turdi. Bu kishining yordami bilan Toshkentning ilg‘or ziyolilari – Sattorxon Abdug‘afforov, Saidrasul Saidazimov, SHarifxo‘ja Poshshoxo‘ja o‘g‘li, Muhiddinxo‘ja Hakimxo‘ja o‘g‘li kabilar bilan tanishadi. Hatto SHarifxo‘ja suhbatlarning birida shoirga taxallusini o‘zgartirishi haqida maslahat ham [18]beradi. SHoir SHarifxo‘janing taklifiga ko‘ra bir muddat “Furqat” (“ayriliq”, “judolik”) emas, “Farhat” (“shodlik”, “xursandlik”) taxallusi bilan she’rlar ham yozgan.

Furqat Toshkentning madaniy hayoti bilan doimo qiziqib yashadi. Teatrlarga bordi, vistavkalarni tomosho qildi, gimnaziya darsxonalarini ko‘zdan kechirdi va taassurotlarini “Gimnaziya”, “Ilm xosiyati”, “Vistavka xususida”, “Suvorov haqida doston” , “Nag‘ma bazmi xususida” kabi asarlarida bayon qildi.

Yirik furqatshunos olim Sharif Yusupov shoirning Toshkentda yashagan yillarida yozilgan ma’rifatparvarlik yo‘nalishidagi bunday she’riy asarlari ichida eng yirigi sifatida “Bal xususida” sarlavhali manzumasi ekanligini alohida qayd etadilar*. Hajmi kattagina bo‘lgan mazkur manzumada ma’rifatparvarlikka xos bo‘lgan jihatlar ko‘zga tashlanadi. SHu bilan bir qatorda manzuma mazmunidan shoirning nafis amaliy san’at turlari - me’morchilik va naqqoshlikdan ham xabardor ekanligini payqash mumkin. Hatto, ma’rifatparvar shoirning qishlik bog‘ haqidagi ajabtovur chizgilari o‘quvchini hayratga soladi:

...Ajoyib bulki, bir oyina xona
Berur qish fasli gulshandin nishona.
Ochilg‘on toza gullar anda bisyor,
Agar uzsa, tikandin etmas ozor…
Sovuq kunda bo‘lurmu bog‘ hechdin?
Etar issig‘ ani ostig‘a pechdin.
Bo‘lib azbaski ul kecha charog‘on,
Misoli ro‘zi ravshan ul guliston..

Furqatning “Turkiston viloyati gazeti” muharriri, Toshkent Erlar gimnaziyasining direktori N.P. Ostroumov bilan tanishuvi uni shu gazet bilan doimiy bog‘ladi. Ma’lum muddat mazkur gazetaning tarjimoni bo‘lib ham ishladi. YUqoridagi she’rlari ham, keyingi yillardagi va safar taassurotlari ham “Turkiston viloyati gazeti”da batafsil berib borildi. SHuningdek, “Ho‘qandlik Zokirjon Furqatning ahvoloti, o‘zi yozg‘onlari” deb atalgan tarjimai holi ham aynan shu gazetaning 1891 yildagi bir necha sonlarida bosilib chiqdi. Mutaxassislar esa uni “Furqatnoma”, «Sarguzashtnoma», «Ahvolot» nomlari bilan ataydilar.

---

*Изоҳ. Мазкур манзума Ш.Юсупов томонидан илк бора “Ўзбек адабиёти ва санъати” газетасининг 1992, 11 сентябр сонида тўлалигича чоп эттирилди.

SHoir 1891 yilning mayida Toshkentdan chiqib, Samarqandga bordi. Bu erda xat orqali tanishgan g‘oyibona do‘sti Mirzo Buxoriy bilan uchrashdi. Bir necha kun shu erda yashadi, iyulning o‘rtalarida Buxoroga yo‘l oladi, oyning oxirlarida Buxoroning Kogon temir yo‘l vokzalidan poezdga o‘tirib, Marv, Ashxobod, Boku, Botum orqali ikki oycha yo‘l bosib, sentyabrning oxirlarida Istanbulga etib keldi. Kuz va qishni shu shaharda o‘tkazadi. Bu erda shoir toshkentlik qadrdonlarini sog‘inib, ularga maktub tarzida 280 misrali “Sabog‘a xitob” masnaviysini bitadi. SHe’rda shoirning Vatanidan chiqib ketganiga hali bir yil bo‘lmasdan, yurtini, do‘stlarini, ma’shuqasini sog‘ingani, ularni qo‘msayotgani, o‘zini juda g‘arib va musofir his qilayotgani aks etgan. Uning sog‘inchlari samimiy. U Istanbul “mardum” (kishi)larining sayru sayohat qilib yurganini ko‘rar ekan, o‘zining yoru do‘stlari yodiga tushadi va ularni entikib sog‘inadi. SHayxontohurlik do‘sti Mahmudxo‘jani orziqib sog‘inar ekan, uni “oshno” emas, “ag‘o”dek bo‘lib qolganini, unga qilgan ko‘p “mehru shafqat”, “ehsonu muruvvat”larini bot-bot eslaydi:

Muhabbatlik menga bir oshnodur,
Na tanho oshno, balkim ag‘odur.
Manga ko‘p aylagan ul mehru shafqat,
Qilib haqqimda ehsonu muruvvat.

Shoir Qashqardagi Rusiya Musulmon idorasida kotib bo‘lib ishlaydi, ilmi nujum (astronomiya) va tabobat bilan shug‘ullanadi. Ra’noxon degan qizga uylanadi. Nozimjon va Hakimjon ismli farzandlar ko‘radi.

Zokirjon Furqat 1909 yili 50 yoshida Yorkentda vafot etdi.

Ko‘rinib turibdiki, Furqat hayoti vatanjudolikda kechdi. Uning chet elga ketish va qolib ketishi shoir ixtiyori bilan sodir bo‘lmagan. Adabiyotshunos olim SH. Yusupov “Furqat yo‘llarida” monografiyasida Furqat yirik shaxs ekanligi, uni yurtda yashab, ijod qilishligi rus davlatining “qudratini” uzoq saqlanishligiga g‘ov bo‘lishi mumkin degan hadikda qolgan N.P. Ostroumovning taz’yiqi va ta’qibiga ko‘ra Vatandan chiqib ketishga majbur bo‘lganligini arxiv xujjatlari hamda ishonchli manbalar asosida e’tiborli, ilmiy mulohazasini bayon qilgan.

Yuqorida biz shoirning rus ilmi va madaniyati haqidagi she’rlarini keltirgan edik. SHoirning bu she’rlari rus davlatining obro‘sini oshirish maqsadida emas, balki Evropa va rus madaniyatini o‘z foydamizga xizmat qildirish zarur degan xulosani targ‘ib qilish niyatida yozilgan asarlar edi. Tabiiyki, N. Ostroumov Furqatning donish va yuqori saviyali shaxs ekanligini juda yaxshi bilgan, shuning uchun ham shoirni Turkistonda yashashligi unga “xavf” bo‘lib tuyulgan.

Furqat - lirik shoir. SHoir lirik merosining eng yuqori mavqeini asosan g‘azallar egallaydi. Mutaxassislarning belgilashicha, g‘azallarining umumiy adadi 200 atrofida. Furqat so‘z san’atkori sifatida “Bahor ayyomida”, “Bir qamar siymoni ko‘rdim”, “CHiroylik”, “Kokuling”, “YUzlaringdin sharm etib”, “Adashganman” kabi bir qancha go‘zal, aqlni hayratga soluvchi nurafshon she’rlar yaratdi.

Furqatning “Qavoidi Chin va umuroti siyosiy” asari esa tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. Asarda oila va uning mustahkamligini ta’minlashda eru

xotinning huquq va burchlari, aka-ukalar munosabati, do‘stlik va qo‘ni-qo‘shnichilik odoblari haqida ibratli mulohazalar bayon qilingan.

Mutaxassislarning aniqlashicha, bizgacha Furqatning uchta elshunoslik yo‘nalishidagi (“To‘y xususida”, “Aza xususida”, “Gap xususida”) va bitta adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi (“Ilmi she’rning qoidai avzonini bayoni”) ilmiy asari etib kelgan. Bu to‘rt ilmiy asar Furqatning ilmiy faoliyati haqida muayyan tasavvur bera oladi

Furqat – ilk o‘zbek jurnalisti. Uning dastlabki jurnalistlik faoliyati “Turkiston viloyati gazeti”da boshlandi. Ilk maqolasi Toshkentdagi rus gimnaziyasidan olgan taassurotlari asosida yozilgan. Keyinchalik esa Xorijdan – Istanbul, Hindiston, Qashqardan yo‘llagan xabar va maqolalarida bu mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti haqidagi muhim masalalarni ko‘tarib chiqadi. SHuningdek, shoirning “Yoqubbek marhumning qo‘liga tushgan Qashqar viloyatining ahvoloti xususida”, “Qashqar viloyatidagi sartiya xalqlarining zindagonlik ahvolotlari xususida”, “Xo‘qandlik Zokirjon Furqatning “Peysai axbor” nom Hindiston gazetidin naql qilib yozgan xabari” kabi maqolalari uning jurnalist sifatidagi yuksak salohiyatini his etish imkonini beradi.

Bulardan tashqari, «Sarguzashtnoma»da aytilishicha, shoir bir necha asarni turkiy tilga tarjima qilgan. «Hammomi xayol» asarini she’riy yo‘lda, «Chor darvesh»ni forschadan nasriy shaklda, «Nuh manzar» nomli asarni erkin tarjima qilgan.

Ko‘rinadiki, Furqat serqirra ijod sohibi. Uning she’riyati, nasri, publitsistikasi va tarjimalari o‘zbek adabiyoti, madaniyatining xazinasidan munosib joy olgan.

Savol va topshiriqlar

1. Furqatning Qo‘qon adabiy muhitida tutgan o‘rnini belgilang.
2. Furqat ijodiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini nimada?
3. SHoir Furqatning xalqparvar, millatsevar ekanligini asarlari misolida tahlil qiling.
4. Furqatning nasriy, ilmiy-etnografik asarlari haqida ma’lumot bering.

Kursning informatsion-metodik ta’minoti:

1. Furqat. Asarlar majmuasi. Ikki jildlik. T, 1991.
2. Abdug‘afurov A. Zokirjon Furqat. T, 1977.
3. Yusupov SH. Furqat yo‘llarida. T, 1985.
4. Furqat ijodiyoti. Maqolalar to‘plami. T, 1990.
5. Furqat ijodi muammolari. Maqolalar to‘plami. Qo‘qon, 2010.
6. Jabborov N. Furqatning “Qavoidi CHin va umuroti siyosiy” asari to‘g‘risida (uyg‘ur tilida). //SHinjong universiteti ilmiy jurnali, - O‘rumchi (Xitoy), 2007, 2-son, 72-75-betlar.
7. Jabborov N. Furqat hayoti va ijodiyotining chet ellarda tadqiq qilinishi. //SHinjong ijtimoiy fanlar minbari, - O‘rumchi (Xitoy), 2008, 1-son, 63-68-betlar.
8. Jabborov N. Hijron seli ustiga solingan ko‘pruk (uyg‘ur tilida). //Buloq, - O‘rumchi (Xitoy), 2009, 1-son, 29-40-betlar.

TA’LIM TEXNOLOGIYASI

Davr madaniy hayotiga sharh
(XVIII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmi(1865 yil)gacha)
Mavzu mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi

Mashg‘ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni: 60 – 80 gacha
Mashg‘ulot shakli	Kirish-axborotli mavzu
mavzu mashg‘ulotining rejasi	1. Davrning tarixiy sharoiti. 2. Manbalar va ularni o‘rganish yo‘llari. 3. Madaniy hayot. 4. Davr adabiy muhiti.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: XVIII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmi(1865 yil)gacha) bo‘lgan adabiy muhitni yoritib berish.	
Pedagogik vazifalar: Davrning tarixiy sharoiti bilan tanishtirish; Manbalar va ularni o‘rganish yo‘llari.ma’lumot berish; Madaniy hayot va davr adabiy muhitini yoritib berish.	**O‘quv faoliyati natijalari***:* ➢ Davrning tarixiy sharoiti haqidagi bilimlarini tizimlashtiradi; ➢ Manbalar va ularni o‘rganish yo‘llari haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi; ➢ Madaniy hayot va davr adabiy muhitini i anglab etadi.
Ta’lim berish usullari	og‘zaki bayon, «Tushunchalar tahlili», «Venn Diagrammasi», «Klaster» metodlari.
Ta’lim berish shakllari	axborotli kirish mavzusi; jamoaviy, kichik guruhlar va individual shakldagi audi-vizual ish, 80 daqiqa davomida
Ta’lim berish vositalari	interfaol doska, mavzu matni, vizual materiallar, elektron ishlanmalar
Ta’lim berish sharoiti	O‘TV bilan ishlashga moslashtirilgan xona
Monitoring va baholash	kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, savol-javob va «Blits - so‘rov», rag‘batlantirish, «Tushunchalar tahlili» metodi orqali o‘z-o‘zini baholash.

Ma’ruza mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari,	**Faoliyat mazmuni**	
	O‘qituvchining didaktik harakatlari	**Talaba faoliyati**

vaqti		
1-bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. O‘quv kursi nomini aytadi. Ekranga kurs bo‘yicha mavzular ro‘yxatini beradi va ularga qisqacha ta’rif beradi 1.2. Birinchi mashg‘ulot mavzusi, uning maq-sadi va o‘quv faoliyati natijalari hamda ada-biyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi 1.3. Talabalar o‘quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi	1.1. Tinglaydilar 1.2. Tinglaydilar, yozadilar. 1.3. Tinglaydilar, yozadilar. 1.4. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)	2.1. Mavzu, o‘quv mashg‘ulotining maqsadi, undan kutilayotgan natijalarni e’lon qiladi. 2.2. «Tushunchalar tahlili» metodidan foydalanib, talabalarinng fan yuzasidan mavjud bilimlar darajasini tashhis qiladi 2.3. Talabalar bildirgan fikr-mulohazalarni navbati bilan tinglaydi va ularni asosiylarini ajratadi. 2.4. XVIII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmi(1865 yil)gacha) bo‘lgan adabiy muhiti haqidagi ma’lumotlarni tushuntiradi, ularga oid vizual material-larni navbati bilan namoyish etadi. mavzuning zaruriy joylarini yozdiradi	2.1. Tinglaydi, yozib oladi. 2.2.Eshitadi, yozib ola-di, o‘ylaydi, o‘z munosabatini yozma tarzda bildiradi. 2.3. Fikrlarini tahlil qiladi, baholaydi, qo‘shimcha mulohazalarni yozib boradi, muhokamada ishtirok etadi. 2.4. Vizual materiallar-ni ko‘radi, tushunadi, tasavvurlarini aniq-lashtiradi, eslab qoladi, zaruriy axborotlari yozib boradi

3-bosqich. YAkuniy qism (10 daqiqa)	3.1. Mavzuni mustahkamlash maqsadida talabalar bilan «Blits-so‘rov» o‘tkazadi, talabalar tomonidan mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini baholaydi, faol talabalarni rag‘batlantiradi 3.2. Mavzu yuzasidan mustaqil ta’lim uchun XVIII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmi(1865 yil)gacha) bo‘lgan adabiy muhit tushunchasiga «Klaster» tuzib kelishni topshiradi va zaruriy ko‘rsatmalarni beradi.	3.1. Tezkor so‘rovlarga javob beradi, rag‘bat oladi. 3.2. Eshitadi, topshiriqni va zaruriy ko‘rsatmalarni yozib oladi.

1 ilova

Asosiy adabiyotlar

1. Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob”. – T. 1993.
2. Zayniddin Vosifiy. “Badoe’ ul-vaqoe”. – T. 1979.
3. Bobur. “Boburnoma”. – T. 1989.
4. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik. 3–4-jild. – T. 1978.
5. B.Valixo‘jaev. o‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. – T. 1993.
6. Fitrat. Tanlangan asarlar. II jild. – T. 2000.

2 ilova

№	Nazorat turi	Ajratilgan ball	Izoh
1	Oraliq nazorat	30	SHundan 10 ball texnologik xaritalarni rasmiylashtirish uchun, qolgan 20 ball test nazorati uchun qo‘yiladi
2	Joriy nazorat	40	Har bir laboratoriya mashg‘ulotidagi ishtiroki uchun ball qo‘yiladi
3	YAkuniy nazorat	30	YAkuniy nazorat yozma topshiriladi

3-ilova

Жонлантириш учун саволлар:

1. XVI-XIX аср 1-ярмида қандай муҳим сиёсий воқеалар бўлган?
2. Қандай тарихий ва тазкира асарлар яратилган?
3. Ушбу даврда маданий ҳаёт қандай эди?
4. Адабий жараённинг қандай ўзига хос хусусиятлари бор?
5. “Музаккири аҳбоб” асари ва муаллифи ҳақида маълумот беринг!
6. “Бадоеъ ул-вақое” асари ва муаллифи борасида сўзланг!
7. Давр адабиётшунослиги тарихи ва тараққиёти ҳақида сўзланг!

Tarixnavislik. Tazkiranavislik.

Ma’ruza mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi

Mashg‘ulot vaqti – 2 soat	Talabalar soni 60-80 nafar
Mashg‘ulotining shakli	Muammoli, axborotli – ma’ruza
ma’ruza mashg‘ulotining rejasi	1. *Davr hayotiga oid asosiy manbalar.* 2. *Davrning ko‘zga ko‘ringan tarixchilari.* 3. *Tazkiranavislikning taraqqiy topishi.* 4. *Davr hayotiga doir badiiy asarlar.*
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: Talabalarga tarixnavislik va tazkiranavislik tushunchalarini o‘zaro farqlab berish.	
Pedagogik vazifalar: - Davr hayotiga oid asosiy manbalar haqida ma’lumot berish; -Tazkiranavislikning taraqqiy topishi bosqichlarini yoritish; Davr hayotiga oid asosiy manbalar. - Davrning ko‘zga ko‘ringan tarixchilari haqida nazariy bilimlarni shaklantirish; - Davr hayotiga doir badiiy asarlar bilan tanishtirish.	**O‘quv faoliyatining natijalari:Talaba:** - Davr hayotiga oid asosiy manbalar haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi; - Tazkiranavislikning taraqqiy topishi bosqichlari bo‘yicha nazariy bilimlarni o‘zlashtiradi; - Davrning ko‘zga ko‘ringan tarixchilari haqida biladi, - Davr hayotiga doir badiiy asarlar bilan tanishadi.
